

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

INNOVATION AND PROGRESS

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

***Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL***

**2025-yil, 12-son 2-qism
2025, Issue 12, Part 2**

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor.

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

I.Xaydarov – Tarix fanlari doktori, professor.

X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

X.Qurbonov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

X.E.Xodjamberdiev – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Sh.Mahamadyunusov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

B.Abdirimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

M.Xo‘jamov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

A.P.Axunov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Qo‘chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.

Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Hasan – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

J.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M. Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.Y. Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
O‘.X. Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.B. Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
N. Axmedova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Z. Azilova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
O. Xaytboyev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh. Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
A.N. Sadullaeva – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
M. Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R. Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
S.K. Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
I. Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D. Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
M. Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S. Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N. Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A. Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M. Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
K.V. Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S. Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A. Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A. Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G. Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H. Tadjiev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrda № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
 № 12 (33), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:
FILOLOGIYA

A.AXMEDOV. Ingliz va o‘zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik va funksional tahlili.	5
A.PRIMOV. O‘zbek tili leksikasida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi masalasi.	11
S.JUMANIYOZOVA. Tillarni dialektal zonaga ajratish omillari hamda tamoyillari.	17
SH.AQMANOVA. Ogahiyning “Gulshani davlat” asarida qo‘llangan gidronimlar haqida	22
F.RAJABBAYEVA. Ommaviy axborot vositalarida emotsional-metaforik framing: his-tuyg‘uni boshqarish va auditoriya ongini shakllantirish mexanizmlari.	29
B.TILLAYEV. Tohir Malikning “Shaytanat” romanida egilgan haqiqatning badiiy talqini.	34
H.BEKCHANOVA. Badiiy adabiyotda ekspressivlik tushunchasining onimlar orqali namoyon bo‘lishi	38
L.JAMALATDINOVA. Xorazm viloyatidagi ba’zi dialektal frazemalarning sinonimlik xususiyatlari.	42
S.QADAMBAYEVA. Komron Mirzo lirikasida tashxis san’atining o‘rni.	46
SH.NORBAYEVA, I.RADJAPOVA. Metaforaning badiiy tarjimadagi kognitiv-lingvistik jarayonlari va madaniyatlararo tarjima usullari.	51
S.UMAROVA. Sayyid Asad To‘ra mahorati.	56
N.NAZAROVA. Omon Matjon asarlarida an’ana va badiiy mahorat.	62
O.MUSTAFAYEV . O‘zbekistonda “internet adabiyoti”(raqamli adabiyot)ning shakllanishi va adabiy jarayonlarning onlayn muhitdagi evolyutsiyasi.	68
D.RUSTAMOV. Antropotsentrik burilishdan puristik yondashuvga: jadid davri leksikografiyasi va izohli lug‘atlarning zamonaviy talabi.	72
M.ATAQOVA. Urganch shahri urbanonimlarining leksik-semantik va lingvokulturologik tadqiqi.	83
G.RAXIMOVA. Ekspressiv morfologiya va reduplikativlar.	87
B.YULDASHEVA. O‘zbek va ingliz tilidagi reklama matnlarida gender ifodasining o‘ziga xosliklari.	91
M.SHOMURODOVA. Ayniying ilmiy-adabiy qarashlarida Ibn Sino talqini.	96
D.SARIBAYEVA. Antroposentrik paradigmadagi gender tilshunoslikka doir masalalar.	102
U.MANSUROVA. Badiiy mahorat qirralari.	109
D.QODIROVA. Ingliz tilida so‘roq gaplarning so‘zlashuv nutqidagi kommunikativ va funksional o‘rni.	115
M.HAKIMOV. Lirik obrazlilik ildizlari va falsafiy-estetik tadriji.	120
D.ISKANDAROVA. Tohir Malik ijodida nafs motivi talqini.	126

FILOLOGIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZONIM KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI

UO‘K 95(575.171)

Azimjon Axmedov,
Andijon davlat chet
tillari instituti, “Gid
hamrohligi,
madaniyatlararo
muloqot va
tarjimashunoslik”
kafedrası v.b.dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik, grammatik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируются лексико-семантические, грамматические и функциональные характеристики фразеологических единиц с зоонимным компонентом в английском и узбекском языках.

Annotation: The article analyzes the lexical-semantic, grammatical and functional characteristics of phraseological units with a zoonym component in English and Uzbek.

Kalit so‘zlar: zoonim, frazeologik birlik, kognitiv semantika, metafora, ot, it, mushuk, leksik ma’no, milliy madaniyat, funksional tahlil.

Ключевые слова: зоонимический, фразеологизм, когнитивная семантика, метафора, лошадь, собака, кошка, лексическое значение, национальная культура, функциональный анализ.

Key words: zoonymic, phraseological unit, cognitive semantics, metaphor, horse, dog, cat, lexical meaning, national culture, functional analysis.

Til xalq tafakkuri, madaniyati va hayot tajribasining eng muhim ifoda vositasidir. Ayniqsa, frazeologik birliklar milliy dunyoqarash, ahloqiy qadriyat va estetik idrokning konsentratsiyalashgan shakli sifatida xalq tafakkurining kognitiv asoslarini yoritadi [1]. Shular orasida zoonim komponentli frazeologizmlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki, ular inson va tabiat o‘rtasidagi tarixiy, psixologik, hamda madaniy aloqalarni til orqali aks ettiradi [2]. Ingliz va o‘zbek tillarida hayvon nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlar xalqning yashash tarzi, e’tiqodi va ahloqiy qadriyatlariga singib ketgan bo‘lib, ularning tahlili ikki tildagi milliy tafakkur paradigmasini ochish imkonini beradi [3].

Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi turli bosqichlardan o‘tgan. G‘arb tilshunosligida bu soha ko‘proq idiomatik birliklarning ma’no

tuzilmasi, metaforik xususiyatlari va pragmatik vazifalari nuqtayi nazaridan o'rganilgan [4]. O'zbek tilshunosligida esa bu masalaga milliy-madaniy yondashuv ustuvor o'rin egallagan bo'lib, frazeologizmlar xalq ruhiyatining, tarixiy tajribasining, turmush tarzining tildagi ifodasidir [5].

Zoonim komponentli frazeologizmlarni tahlil qilishda uch asosiy motivatsion qatlam aniqlanadi. Birinchisi, hayvonning biologik xususiyatiga asoslangan denotativ qatlam bo'lib, masalan, it hurar, karvon o'tar yoki as hungry as a horse kabi birliklarda hayvon xatti-harakatining real holati ifodalanadi. Ikkinchisi, metaforik qatlam bo'lib, unda hayvon obrazi orqali insoniy sifatlar ko'chiriladi. Uchinchisi, aksiologik qatlam bo'lib, bunda ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi madaniy ma'nolar mustahkamlanadi [6].

Ingliz tilida horse, dog va cat komponentli iboralar inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida ishlatiladi. Ular insonning mehnatga, hayotga, axloqqa bo'lgan munosabatini aks ettiradi. O'zbek tilida esa ot, it, mushuk komponentlari orqali xalqning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, imon-e'tiqodi va ruhiy olami ifodalanadi. Shu bois zoonim frazeologizmlar milliy semiosferaning faol unsuri sifatida tildan tashqari madaniyatni ham ifodalovchi vosita sanaladi [7].

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida ot, it va mushuk komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik, grammatik va funksional xususiyatlarini taqqoslab tahlil qilish hamda ularning kognitiv-madaniy mazmunini aniqlashdan iboratdir. Tadqiqotda frazeologizmlarning milliy semantik yuki, ularning madaniyatda tutgan o'rni va kommunikativ vazifasi ochib beriladi [8].

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va kognitiv-semantik metodlar asos qilib olindi [9]. Tavsifiy metod frazeologik birliklarning tarkibi, grammatik shakli va semantik tuzilishini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi isomorf va allomorf belgilar ajratib ko'rsatildi. Kognitiv-semantik yondashuv esa frazeologizmlarning mazmuniy asosini, ularning ongda metaforik modellarini ochish imkonini berdi [10].

Korpus sifatida Oxford Idioms Dictionary, Longman Dictionary of English Idioms, O'zbek tilining frazeologik lug'ati hamda xalq maqollari va badiiy asarlardan olingan materiallar tahlil qilindi. Har bir birlik denotativ, konnotativ va madaniy ma'nosi jihatidan o'rganildi.

Masalan, ingliz tilidagi to work like a horse, hold your horses, to flog a dead horse kabi iboralar mehnatsevarlik, sabr va ortiqcha sa'y-harakatni ifodalasa, o'zbek tilidagi otday xizmat qilmoq, ot yurib iz qolur, ot qariydi, yo'lni biladi kabi iboralar fidoyilik, tajriba va mehnat qadriyatini ifodalaydi.

It obrazli frazeologizmlar ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham salbiy, ammo turlicha semantik yukga ega. Masalan, ingliz tilida a dog's life va every dog has his day iboralari hayotning mashaqqatini, biroq umid bilan yashashni anglatadi. O'zbek tilidagi itdek ishlamoq, itday xor bo'lmoq esa mehnat bilan bog'liq ijtimoiy azob-uqubatni ifodalaydi.

Mushuk obrazi bilan bog'liq iboralar esa har ikki tilda ham ruhiy holat, ehtiyotkorlik yoki makkorlikni ifodalaydi. Ingliz tilida a cat has nine lives, curiosity killed the cat, let the cat out of the bag kabi iboralar qiziqish, xavf yoki

sirni oshkor qilishni bildiradi. O'zbek tilida esa mushukni dumidan ushlamoq, mushuk o'ynab sichqon tutar kabi birikmalar kutilmagan holat, makkorlik, yoki sirni yashirish bilan bog'lanadi [11].

Tahlil jarayonida komponent tahlil, semantik xaritalash va pragmatik funksional tahlil metodlari qo'llanildi. Ushbu yondashuv frazeologizmlarning ma'no qatlamlarini ochib, ularning kognitiv va madaniy mohiyatini aniqlashga imkon berdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli frazeologizmlar semantik, grammatik va madaniy jihatdan turli qatlamlarni qamrab oladi [12]. Ingliz tilida horse komponenti kuch, tezlik va qat'iyat ramzi sifatida faol ishlatiladi. Masalan, dark horse sirli shaxsni, straight from the horse's mouth ishonchli manbani bildiradi. O'zbek tilida esa ot yurib iz qolur, otday xizmat qilmoq, otni qamchilamoq kabi birikmalar mehnat, fidoyilik va tajriba tushunchalari bilan bog'liq.

Dog komponenti ingliz tilida ijobiy va salbiy baholarni bir vaqtning o'zida ifodalaydi. Top dog ustun mavqeni, lucky dog omadni bildirsa, to go to the dogs va a dog's life iboralari azobli hayotni anglatadi. O'zbek tilida esa it hurar, karvon o'tar iborasi sabr, itday xor bo'lmoq esa kamsitilish, itday yashamoq esa og'ir mehnat bilan bog'lanadi.

Cat komponentli frazeologizmlar esa har ikki tilda psixologik holatni aks ettiradi. Ingliz tilida the cat's whiskers, fight like cats and dogs kabi iboralar g'urur, raqobat va his-tuyg'ularni ifodalaydi. O'zbek tilida mushuk o'ynab sichqon tutar va mushukka o'yin bo'lib, sichqonga o'lim bo'ldi iboralari yashirin makkorlik, adolatsizlik yoki kinoyani anglatadi.

Statistik tahlil natijasida aniqlanishicha, o'zbek tilida ot komponentli frazeologizmlar eng ko'p uchraydi, bu esa xalq hayotida otning iqtisodiy va madaniy ahamiyati bilan bog'liq. Ingliz tilida esa dog va cat obrazlari ko'proq ishlatiladi, bu shahar madaniyati, oilaviy turmush va individual psixologik holat bilan izohlanadi [13].

Frazeologik birliklardagi zoonim obrazlari inson tafakkurining qadimiy qatlamlarini aks ettiradi. Ular ijtimoiy tajriba, axloqiy qadriyat va estetik qarashlarni til shakliga soladi [14]. Ingliz madaniyatida hayvon obrazlari ko'proq shaxsiy fazilatlar va individual hatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek madaniyatida ular jamiyat, sadoqat va mehnatsevarlikni ifodalaydi.

Masalan, ingliz tilida hold your horses iborasi sabr va ehtiyotkorlikni bildirsa, o'zbek tilida otni qamchilamoq iborasi shoshqaloqlik va keskinlikni ifodalaydi. Bu holat pragmatik maqsad va madaniy qadriyatlar orasidagi farqni ko'rsatadi. Ingliz tili uchun hatti-harakatdagi muvozanat va o'zini tuta bilish qadrlansa, o'zbek tilida faoliyat va harakatning maqsadga yo'naltirilganligi muhim hisoblanadi.

It obrazli frazeologik birliklar har ikki tilda insonning ijtimoiy mavqei, ruhiy kechinmalari va jamiyatdagi o'rnini aks ettiradi. Ingliz tilida it obrazi ko'p hollarda insoniy munosabatlar, sadoqat, hazil va kinoyaning ramzi sifatida

qo'llanadi [1]. Masalan, Dog eat dog world iborasi raqobat, bag'ritorlik va zamonaviy jamiyatdagi beparvolikni ifodalaydi [2]. To be dog tired jismoniy va ruhiy charchoqni bildiradi, to throw someone to the dogs kimnidir himoyasiz tashlab ketish ma'nosida ishlatiladi [3]. The tail wagging the dog iborasi esa ijtimoiy tizimda kichik kuchning kattani boshqarishini ifodalaydi [4]. Shuningdek, to put on the dog hashamat va g'ururni, lucky dog esa omadli insonni bildiradi. Bu misollar ingliz tilidagi it obrazining ko'p qirraliligini, ya'ni salbiy ham, ijobiy ham konnotatsiyaga ega ekanini ko'rsatadi. Ingliz xalqining mentalitetida bu obraz hayotiy kinoya, realistik optimizm va o'ziga xos yumor bilan uyg'unlashgan [5].

O'zbek tilida esa it komponentli frazeologizmlar ko'proq ijtimoiy holat, sabr, toqat va fidoyilik bilan bog'liq semantik maydonni hosil qiladi [6]. Itday sadoqatli iborasi vafodorlikni, itdek ishlamoq og'ir mehnatni, itday charchamoq ruhiy charchoqni bildiradi. It hurar, karvon o'tar birikmasi bardoshlilik va e'tiborsizlikni, itning oyiga boqqan esa pastkashlikni anglatadi. Itni bo'ynidan bog'lash oson, lekin yuragini emas degan maqol esa inson qalbining mustaqilligini ko'rsatadi [7]. Shu bilan birga, Itning po'stlog'i oltin bo'lsa ham, isi ketmaydi degan xalq iborasi inson tabiatining o'zgarmasligini ifodalaydi. Bu iboralar o'zbek xalqining hayotiy tajribasi va mehnatsevarlik an'alarini aks ettirib, ijtimoiy hayotning pragmatik ifodasiga aylanadi.

It obrazi har ikki madaniyatda inson hayotining iztirob va quvonchlarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tilida bu obraz asosan hazil va kinoya vositasi sifatida, o'zbek tilida esa sabr, fidoyilik va mehnatga sadoqat belgisi sifatida ishlatiladi [8]. Inglizcha dog eat dog world kabi iboralar raqobat va individualizmni aks ettirsa, o'zbekcha itdan qochgan supurgiga ilashar, yoki itning iniga kirgan odamning joni qolmaydi kabi birliklar ehtiyotkorlik, ijtimoiy ogohlik va tajriba orqali shakllangan hayotiy donolikni ifodalaydi. Shu bois, har ikki tilda it komponentli frazeologizmlar insonning axloqiy va hissiy qiyofasini ifodalovchi kuchli kognitiv vosita sifatida namoyon bo'ladi [5].

Mushuk obrazli frazeologizmlar yashirin tuyg'ularni, sezgirlik va nozik aqlni ifoda etish vositasi sifatida ishlatiladi. Ingliz madaniyatida mushuk obrazi inson ruhiyatining murakkab jihatlarini aks ettiradi [1]. Curiosity killed the cat iborasi haddan tashqari qiziqish insonni xavf ostiga qo'yishini anglatadi. The cat's got your tongue iborasi jim qolish yoki noqulaylik sababli gapira olmaslik holatini ifodalaydi. A cat nap qisqa dam olishni, to look like the cat that got the cream esa mamnunlik va mag'rurlikni bildiradi [2]. Ingliz tilida mushuk obrazining ko'p ma'noliligi uning harakatchan, mustaqil va sirli tabiatini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi mushuk komponentli frazeologizmlar esa ko'proq insoniy munosabatlarda makkorlik, yashirin niyat yoki ogohlikni ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi [3]. Mushuk o'ynab sichqon tutar iborasi niyati boshqa, ammo tashqi ko'rinishda do'stona munosabatni bildiradi. Mushukka o'yin bo'lib, sichqonga o'lim bo'ldi iborasi adolatsizlik va kuchsizlik holatini ifodalaydi. Mushukni dumidan ushlamoq iborasi ehtiyotsizlikni, mushukka sut topshirmoq esa ishonchsiz odamga mas'uliyat berishni bildiradi [4]. Bu misollar o'zbek

xalqining ehtiyotkorlik, aql-idrok va tajribaga asoslangan hayotiy kuzatishlarini til orqali ifodalaydi.

Ingliz tilida mushuk obrazi estetik va hissiy qiymatga ega bo'lib, u ko'pincha ijobiy konnotatsiyada ishlatiladi. Masalan, *A cat in gloves catches no mice* iborasi haddan tashqari muloyimlik muvaffaqiyatga to'sqinlik qilishini bildiradi, *fight like cats and dogs* esa keskin raqobatni ifodalaydi [5]. O'zbek tilida esa mushuk obraziga salbiy baho berilgan holatlar ko'p uchraydi. Mushuk yurmay joy buzilmaydi iborasi mojaroni boshlovchi yashirin sababni anglatadi, mushuk orasiga ilon tushdi iborasi esa birdamlikning buzilishini ko'rsatadi [6].

Bundan tashqari, hayvon obrazlari madaniy konnotatsiyalarda xalq psixologiyasini aks ettiradi. Ingliz tili uchun *black cat* iborasi ko'pincha omadsizlikni bildiradi, ammo ba'zi hollarda u sirli kuch yoki ezoterik belgi sifatida ijobiy ma'noda ham qo'llanadi [7]. O'zbek tilida esa oq mushuk va qora mushuk obrazlari insonlar o'rtasidagi nizolar, ishonchsizlik va kelishmovchilikni bildiradi. Shuningdek, mushuk yalamas sut iborasi ishonchsiz vaziyatni, mushuk ko'rmagan joyda o'yin o'ynar esa yashirin harakatni ifoda etadi [8].

Har ikki tilda mushuk komponenti axloqiy va hissiy baholash vositasi sifatida ishlatiladi. Ingliz tili uchun u asosan iroda, go'zallik va sirli mustaqillikni bildirsa, o'zbek tili uchun u makkorlik, ehtiyotkorlik va yashirin niyatni anglatadi. Shu tarzda zoonim frazeologizmlar til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqani ochadi, ularning kognitiv mohiyati madaniy tajriba, tarixiy ong va milliy mentalitetga tayanadi [9].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklar milliy tafakkur, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlarning tildagi aksidir. Ot kuch, fidoyilik va mardlikni; it sadoqat, mashaqqat va sabrni; mushuk esa ehtiyotkorlik, sir saqlash va makkorlikni ifodalaydi [16]. Har bir zoonim obrazining semantik tizimi xalq hayot tarziga, ijtimoiy muhitiga va tarixiy xotirasiga bog'liq holda shakllanadi. Ingliz tilida frazeologik birliklar ko'proq shaxsiy fazilat, erkinlik va individual qarorlarni yoritgan bo'lsa, o'zbek tilida ular jamoaviylik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik va sadoqatni ifodalagan [17].

Zoonim obrazlari orqali shakllangan frazeologik tizim inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning madaniy talqinini ochadi. Har bir til o'z xalqining ruhiy olamini, axloqiy idealini va ijtimoiy me'yorini ifodalaydi. Shu ma'noda, ot, it va mushuk obrazlari tilning kognitiv mexanizmini tashkil etuvchi konseptual markaz sifatida namoyon bo'ladi [18]. Ingliz tili uchun individualistik, tahliliy tafakkur, o'zbek tili uchun esa hissiy va kollektiv tafakkur xosdir. Bu farq faqat leksik ma'no darajasida emas, balki madaniy kognitiv modelda ham aks etadi.

Zoonim frazeologizmlarning qiyosiy tahlili tilshunoslikning kognitiv, lingvokulturologik va pragmatik yo'nalishlarini boyitadi [19]. Bunday tahlillar orqali frazeologizmlar nafaqat so'zlashuv nutqining estetik qismi, balki xalq tafakkurining aksi sifatida namoyon bo'ladi. Ular milliy o'zlikni, axloqiy qadriyatlarni, tarixiy tajribani va madaniy xotirani mustahkamlaydi. Natijada

zoonim komponentli frazeologik birliklar tildagi ma’no hosil qilish mexanizmining kognitiv asosini tashkil etib, xalqning ma’naviy merosini avloddan-avlodga yetkazuvchi lingvokulturologik hodisaga aylanadi [20].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karasik V I. Til va madaniyat. Moskva, Gnozis. 2013.
2. Кубрякова Е.С. Til va bilim. Москва. Языки славянской культуры. 2004.
3. Lakoff G Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago University of Chicago Press. 1980.
4. Alefirenko N F. Lingvokulturologiya nazariyasi va amaliyoti. Москва. “Академия”. 2010.
5. Nurmonov A. Til va madaniyat. Toshkent. “Fan”. 2012.
6. Ergasheva M. Gender tilshunosligi va kognitiv metafora tahlili. Toshkent. O‘zbekiston Milliy universiteti. 2019.
7. Ergasheva M. Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvomadaniy qiyosi. Toshkent. “Fan”, 2022.
8. Ziyayeva D. Ingliz va o‘zbek tillarida obrazli iboralar tahlili. Namangan NamDU nashriyoti. 2020.
9. Safarov Sh. Pragmatik tilshunoslik asoslari. Toshkent. “Fan”. 2018.
10. Buranov J. Turk tillarida frazeologiyaning qiyosiy o‘rganilishi. Toshkent. “Fan”. 2015.
11. Sharipov S. O‘zbek frazeologiyasida zoonimlarning semantik tahlili. Andijon AndDU nashriyoti, 2021.
12. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford Oxford University Press 1997
13. Kramsch C. Language and Culture. Oxford University Press. 1998.
14. Cacciari C. Processing of Idiomatic Expressions. Amsterdam John Benjamins Publishing. 2014.
15. Liddicoat A J. Intercultural Communication An Introduction. London. Palgrave Macmillan, 2011.
16. Gibbs R W. The Cambridge Handbook of Metaphor and Thought. Cambridge Cambridge University Press. 2008.
17. Sharifov A. Cognitive Features of Animal Imagery in Uzbek Folklore. Samarqand. SamDU nashriyoti. 2023.
18. Fillmore C. The Case for Case. New York. Holt Rinehart and Winston. 1968.
19. Вежицкая А. Понимание культур через ключевые слова. Oxford University Press. 1997.
20. Карасик В И. Языковой круг личность концепты дискурс. Волгоград. 2002.

FILOLOGIYA

O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI MASALASI

UO'K 95(31)



Primov Azamat,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
“O‘zbek tilshunosligi
kafedrası” mudiri,
filologiya fanlari
doktori, professor,
Turon FA akademigi

Annotatsiya: Bugungi globallashuv jarayonida o‘zbek tilining rivoji, ayniqsa, uning leksik boyligida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlash dolzarb masalaga aylangan. Mazkur maqolada o‘zbek tili leksikasida milliylikni saqlab qolish, shu bilan birga, zamonaviy so‘z boyligini rivojlantirish yo‘nalishlarini tahlil etishga bag‘ishlanadi. Milliy muqobili mavjud bo‘lgan leksemalar o‘rnida xorijiy so‘zlarining qo‘llanishining o‘rinsizligi nazariy jihatdan asoslab tahlil qilinadi, shuningdek til siyosati va termin yaratish tamoyillari nuqtayi nazaridan ushbu masalalar yoritiladi.

Аннотация: В условиях современной глобализации развитие узбекского языка, в частности обеспечение гармонии национальности и современности в его лексическом богатстве, становится актуальной задачей. Данная статья посвящена анализу направлений сохранения национального колорита в лексике узбекского языка, а также путей развития современного словарного состава. Теоретически обосновывается неуместность употребления иностранных слов при наличии национальных эквивалентов. Кроме того, вопросы рассматриваются с точки зрения языковой политики и принципов терминоворчества.

Annotation: In today’s globalized world, the development of the Uzbek language—particularly the need to maintain a balance between national identity and modernity in its lexical system—has become an important issue. This article examines the directions for preserving national elements in Uzbek vocabulary while simultaneously expanding its modern lexical resources. The theoretical grounds for the inadvisability of using foreign words when appropriate national equivalents exist are analyzed. The discussion also addresses these

issues from the perspectives of language policy and principles of term formation.

Kalit soʻzlar: *milliy leksika, zamonaviy leksika, soʻz oʻzlashtirish, yangi paydo boʻlgan soʻzlar, termin, leksema.*

Ключевые слова: *национальная лексика, современная лексика, заимствование слов, неологизмы, термин, лексема.*

Key words: *national lexicon, modern lexicon, word borrowing, neologisms, term, lexeme.*

Oʻzbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki xalqimizning asrlar davomida shakllangan **tafakkuri, madaniyati va maʼnaviy olamining** ifodasidir. Bugungi kunda **milliylikni saqlagan holda, zamonaviylikka moslashish**, yaʼni **anʼana va yangilanish uygʻunligini taʼminlash** tilimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

2025-yil 20-oktyabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 308-son qarorida davlat tilining sofliqini saqlash va uning lugʻat boyligini muntazam oshirib borish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini taʼminlash, hamda yangi qabul qilinayotgan atamalar boʻyicha jamoatchilik muhokamasida bildirilgan taklif, fikr va tavsiyalarni qayd etib boruvchi, tasdiqlangan yangi soʻz va atamalarni oʻzida aks ettiradigan elektron reestrni yurituvchi, oʻzbek tilida chop etilgan sohaviy, izohli va imlo lugʻatlarini oʻzida jamlovchi tizimlarni yaratish kabi bir qancha muhim masalalar belgilab berildi. [1]

Milliylik tilning ildizi boʻlib, har bir soʻzda xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi, urf-odati, eʼtiqodi aks etadi. Masalan, **mehmondoʻstlik, halollik, soddalik, or-nomus, vatanparvarlik, farzandsevarlik, saxovatlik, kechirimlilik, bagʻrikenglik** kabi soʻzlar xalqimizga xos milliy ruhni ifodalaydi, oʻzligimizni, dunyoqarashimizni aks ettiradi. Ammo, dunyo oʻzgarayotir, yangi texnologiyalar, fan va ijtimoiy hayot bilan birga **tilimiz leksikasiga yangi soʻzlar, terminlar, ifodalar** kirib kelmoqda. **Kompyuter, internet, onlayn taʼlim, sunʼiy intellekt, mobil ilova, bankomat, supermarket, viza, bank kartasi** kabi birliklar bugungi hayotimizda ajralmas tushunchalarga aylanib, tilimizda faol qoʻllanib kelmoqda.

Tilning leksik tarkibi uning milliy oʻzligini belgilovchi asosiy qatlamlardan biridir. Ayniqsa, terminologiya sohasi tilning ilmiy-nazariy rivojini koʻrsatib beradigan murakkab tizim boʻlib, unda soʻz tanlash, muqobil birliklardan foydalanish, ichki imkoniyatlarni ishga solish oʻta muhim hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida oʻzbek tilida oʻzlashma soʻzlar, xususan inglizcha, shuningdek, boshqa xorijiy tillarga oid terminlarning ortiqcha qoʻllanishi

kuzatilmoqda. Bu holat o'zbek tilining tabiiy rivoji, tarixiy leksik merosini saqlash, terminologik tartibot masalalarining dolzarblashuviga sabab bo'lmoqda. Albatta, tilda yangi texnologiyalar, turmush tarzining yangilanib borishini ifodalaydigan zamonaviy leksemalar mavjid bo'lishi tabiiy. O'zbek tilida ularning aksariyati xorijiy tillardan kirib kelgan.

Til egalarining vazifasi milliylik va zamonaviylikni **uyg'unlashtirishdir**. O'zbek tili yangi so'zlarni o'zlashtirar ekan, ayrim hollarda ularni **milliy ruhga mos shaklda** qabul qilmoqda. Masalan, uyali aloqa, elektron kitob, aqlli bekat kabi so'zning mohiyati xalqimiz tafakkuriga mos tarzda hosil qilingan. Bu esa tilning **moslashuvchanligi va boyish qobiliyatini** ko'rsatadi. Lekin onlayn dars, registrator ofis, oflayn, flagman, komplayens, marketing, menejer, biznes, startup, brend, dizayn, monitoring, outsorsing, brifing, elektorat, tyutor kabi so'zlar tilimizga to'la o'zlashib ulgurmadi. Ularning o'zbekcha muqobillaridan foydalanishimiz, muqobili yo'q so'zlar uchun yangi so'zlar hosil qilishimiz kerak.

O'zbek tili leksik tizimi o'ziga xos tarixiy qatlamlardan iborat bo'lib, ularning har biri xalqimizning tarixi, e'tiqodiy qarashlari, turmush tarzi, urf-odatlar, iqlimi kabi ko'plab xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Masalan, halollik, jasurlik, or-nomus, vatanparvarlik, saxovat, mehr-oqibat kabi so'zlar milliy qadriyatlarimizni ifodalaydi. Zamonaviylik esa yangi texnologiyalar, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, fan va madaniyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda til leksikasiga kirib kelayotgan yangi so'zlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, internet, mobil ilova, sun'iy intellekt, fleshka, dual ta'lim kabi birliklar hozirgi davr leksikasida aks eta boshladi. Bu jarayon tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatiga ta'sir qilmoqda. Shuning uchun tilda milliylik va zamonaviylik uyg'unligini muvofiqlashtirib borish kerak. Uyg'unlikni ta'minlash uchun til siyosatida quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1. Yangi so'zlarni yaratishda milliy so'z yasash imkoniyatlarini faol qo'llash.
2. Xorijiy tillardan kirib kelayotgan so'zlarni milliy talaffuz va ma'no tizimiga moslashtirish.
3. Ommaviy axborot vositalari, internetda va ta'lim tizimida adabiy til me'yorlariga amal qilish.
4. Til boyligini o'rganish, lug'atlar yaratish va ilmiy tahlillarni kengaytirish.

O'zbek tili leksikasida milliylik va zamonaviylik uyg'unligi o'zbek tili leksikasida ham aks etmoqda. Bugungi kunda xalqimiz tomonidan yaratilayotgan yangi so'zlar, yoshlar nutqi, internet tili unsurlari, reklama matnlarida

qo'llanilayotgan yangiliklar tilning tirik, yangilanib boradigan tizim ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy so'z boyligimizni asrab-avaylash, folklor va adabiyot tili an'analarini saqlab qolish nihoyatda dolzarb vazifalardan biridir.

Tilshunos olimlarning fikricha, tilning boyligi va barqarorligi uning leksik fondi yangilanish sur'ati bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun zamonaviylikni qabul qilish, lekin milliy ruhni yo'qotmaslik tilimiz istiqboli uchun eng muhim shartdir. Yangi so'zlar yaratishda milliy so'z yasovchi modellarga tayanish, masalan, axborotnoma, dasturxona, uyali aloqa, masofaviy ta'lim, mahorat darsi, aqlli soat, bank kartasi kabi milliy shakldagi birliklarni rivojlantirish tilimiz sofliğini ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar davrida til o'zgarish tezligining oshishi tabiiy hol. Ammo bu jarayonni boshqarish, til siyosati orqali me'yorlashtirish davlat ahamiyatiga ega masaladir. Har bir yangi atama, yangi so'z milliy madaniyat kontekstida baholanishi kerak. Shundagina milliylik va zamonaviylik uyg'unligi tabiiy, sog'lom yo'nalishda rivojlanadi.

O'zbek tili leksikasida milliylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash faqat tilshunoslik masalasi emas, balki madaniy, ma'naviy va ijtimoiy masaladir. Tilni rivojlantirishda milliy o'zlikni saqlash, shu bilan birga, zamonaviy dunyo bilan hamqadam bo'lish har bir fuqaroning ma'naviy burchidir. O'zbek tili boy, moslashuvchan va rivojlanuvchi til sifatida kelajakda ham taraqqiy etadi. Buning uchun obrazli qilib aytganda, milliylik ildiz, zamonaviylik esa uning ayrim shoxlari bo'lib, ularning uyg'unligi orqali tilimiz yanada yuksak pog'onalariga ko'tarilishini anglab yetishimiz kerak.

O'zbek tilida tarixan shakllangan ko'plab terminlar mavjud bo'lib, ular qadimgi turkiy leksik qatlamdan tortib, eski o'zbek adabiy tili, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tili davrida ham rivojlanib kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida o'zbekcha muqobili mavjud bo'lgani holda, ayrim termin va atamalar o'rnida inglizcha, yoki ruscha so'zlarning qo'llanishini hech qanday sabab bilan oqlay olmaymiz. Bunday holat ilmiy mezonlarga ham zid hisoblanadi. Masalan, tilimizda **murabbiy**, **tarbiyachi**, **yetakchi** **yo'riqchi** kabi so'zlar mavjud bo'lgani holda, oliy ta'lim amaliyotiga **tyutor** atamasining joriy etilishi, nazariy jihatdan ham, til madaniyati nuqtayi nazaridan ham asossiz ko'rinadi. O'zbek tilida bu tushuncha doirasida asrlar davomida murabbiy, ustoz, yo'lboshchi kabi so'zlar ishlatilib kelingan edi. Shuningdek, **bayroqdor** so'zi mavjud bo'la turib, flagman atamasining, ro'yxatxona so'zi bor bo'lib, registrator office birligining qo'llanishi ham tilning milliy leksik me'yorlariga mos kelmaydi. By hol inglizcha atamalarga ortiqcha moyillikni ko'rsatadi. Shuningdek, iqtisodiyot, biznes, savdo sohalarida broker, market, shopping, kabi atamalarning kundalik nutqqa singib borayotgani kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da [2] ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish vazifasi belgilangan edi. Ijroni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi majlisining 62-son bayoni qabul qilindi. Ushbu bayonga ko‘ra, o‘zbek tilida qo‘llanilib kelayotgan 40 ta xorijiy atama o‘zbekcha muqobillariga almashtirildi. Bundan buyog‘iga ana shu 40 ta so‘zning yangi qabul qilingan variantini qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Avvalgi variantlari tilimizda yo‘q hisoblanadi. Hali qanchadan-qancha so‘zlar ustida ishlashimiz kerak.

Tilimizda muqobili bo‘la turib, ular o‘rniga xorijiy so‘zlar ishlatilayotgan qanchadan qancha so‘zlar mavjud. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz: broker (**dallol, vositachi**), biznes (tadbirkorlik), market (bozor, do‘kon), menedjer (boshqaruvchi), marketing (bozorshunoslik), auditor (tekshiruvchi), konsultant (maslahatchi), patent (ixtiro huquqi) protsess (jarayon), format (shakl, o‘lcham), variant (ko‘rinish), inventarizatsiya (moliya sanog‘i), kredit (muddatli qarz), debet (kirim), ofis (idora), direktor (rahbar yoki boshliq) administrator (ish yurituvchi) operator (boshqaruvchi mutaxassis), dispatcher jo‘natuvchi-bog‘lovchi, kontrakt (shartnoma), delegatsiya (vakillar guruhi), konferensiya (yig‘in) seminar (mashg‘ulot), konsultatsiya (maslahat) servis (xizmat), depozit (jamg‘arma qo‘yilmasi), polis (sug‘urta varaqasi), monitoring (kuzatuv tizimi), analiz (tahlil), sintez (uyg‘unlashtirish), strategiya (yo‘nalish), taktika (amal usuli), effekt (natija), prioritet (ustuvorlik), rezerv (zaxira), konsensus (kelishuv), versiya (talqin), missiya (vazifa), funksiya (vazifa), ekspert (baholovchi mutaxassis), komponent (tarkibiy qism), kompetensiya (layoqat), motivatsiya (ruhlantirish), innovatsiya (yangilik), modernizatsiya (yangilash), optimizatsiya (qulaylashtirish), aksiya (hissadorlik qog‘ozi), dividend (foyda ulushi), limit (chegara), norma (me‘yor), standart (andoza), reyting (baholash), status (maqom), struktura (tuzilish), sistema (tizim), klassifikatsiya (tasnif), arxiv (saqlanma), diplom (bitiruv guvohnomasi), kvota (belgilangan ulush), tezis (qisqa fikr), annotatsiya (qisqa mazmun), instruksiya (ko‘rsatma), adaptatsiya (moslashish), lokatsiya (joylashuv), agent (vakil), korrupsiya (poraxo‘rlik), penalti (jarima), modul (bo‘lim), leksikon (lug‘at tarkibi), kontent (mazmun), inklyuziv (qamrab oluvchi) kabi. Ushbu so‘zlarning o‘zbekcha muqobillari orasidagi tarkibi ikki yoki undan ortiq asosdan tuzilgan birikma ko‘rinishidagi termin va atamalarni imkon qadar qo‘llash kerak. Chunki, bunday birliklar ham xorijiy terminlarni

almashtira oladi, ular ma'noni to'liq ifodalaydi va ilmiy nutq uchun yetarli darajada mos keladi. Shu bois, mutlaqo zarurat bo'lmagan holatlarda xorijiy so'zlardan foydalanish o'rniga, o'zbek tilidagi mavjud muqobillarni, hatto ular birikma ko'rinishida bo'lsa ham, qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday birliklar tilning tabiiy rivojiga xizmat qiladi.

Demak, lug'atimizda mavjud bo'lgan boy imkoniyatlar xorijiy atamalarni ko'r-ko'rona qabul qilishni emas, balki tilning ichki resurslarini to'g'ri va o'rinli qo'llashni talab etadi. Tilshunoslik amaliyoti shuni ko'rsatadiki, har bir xorijiy termin o'rniga o'zbekcha muqobilini qo'llash nafaqat tilning tozaligini ta'minlaydi, balki ilmiy, publitsistik va rasmiy nutqning ravonligini, xalqchil bo'lishini ham kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, milliy muqobillarni faol qo'llash tilga e'tibor, madaniy merosga hurmat va hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga xizmat qiluvchi dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktyabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 308-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7776360>
2. "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" <https://lex.uz/uz/docs/-5058351#-5060596>
3. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. – Toshkent: Fan, 2002. – 46 b.

FILOLOGIYA

TILLARNI DIALEKTAL ZONAGA AJRATISH OMILLARI HAMDA TAMOYILLARI

UO‘K 95(31)

**Jumaniyozova
Saltanat,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
“Lingvistika: o‘zbek
tili” yo‘nalishi
magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada dialektal zona tushunchasi tahlilga tortilgan bo‘lib, uni ajratishning geografik, tarixiy, etnik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy kabi omillari hamda tamoyillari misollar asosida dalillab berildi.

Аннотация: В данной статье анализируется концепция диалектной зоны, на примерах обосновываются географические, исторические, этнические, социально-экономические, культурные факторы и принципы её выделения.

Annotation: This article analyzes the concept of a dialectal zone, and the geographical, historical, ethnic, socio-economic, cultural factors and principles of its separation are substantiated on the basis of examples.

Kalit so‘zlar: dialektal zona, dialekt, qarluq, qipchoq, o‘guz, Xorazm dialektal zonasi.

Ключевые слова: диалектная зона, диалект, карлукский, кипчакский, огузский, хорезмский диалект.

Key words: диалектная зона, диалект, карлукский, кипчакский, огузский, хорезмский диалект.

Tilning hududiy jihatdan tabaqalanishi har qanday milliy tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlaridan biridir. Aholi joylashuvi, tarixiy migratsiyalar, etnik guruhlarning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va madaniy markazlarning ta’siri natijasida til ichida alohida nutq ko‘rinishlari, lahja va shevalar vujudga keladi. Bu nutq shakllari ma’lum geografik hududlarda barqaror fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Shu o‘ziga xosliklarga ega hududlar majmuyi dialektal zonalar deb ataladi. Dialektal zonalarini aniqlash tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til tarixini ilmiy rekonstruksiya qilish, adabiy tilning shakllanish manbalarini o‘rganish va hududiy nutq madaniyatini tavsiflashda katta ahamiyatga ega. Dialektal zonalar tilning ichki taraqqiyot bosqichlarini, etnolingvistik qatlamlarini va mahalliy nutq xususiyatlarining bir-biriga ta’sir mexanizmlarini ochib beradi. Mazkur maqolada

dialektal zona tushunchasi, uning shakllanish omillari, hamda zonalarini ajratishning asosiy ilmiy tamoyillari keng yoritiladi.

Dialektal zona – bu ma'lum geografik hududda yashovchi aholining nutqida umumiy bo'lgan dialektal belgilar majmuyi bilan tavsiflanadigan til hududi. Bunday zonalar bir necha shevalarni, ba'zan esa butun boshli lahjalarni qamrab oladi. Dialektal zonalar tasodifan shakllanmaydi. Ular uzoq tarixiy jarayonlarning natijasidir. Ularni shakllantiruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. *Geografik omillar.* Tog'lar, daryolar, cho'llar, o'rmonlar singari tabiiy to'siqlar aholi guruhlarining bir-biridan ma'lum darajada ajralib qolishiga olib kelgan. Bu esa tilning ham o'ziga xos hududiy variantlarga bo'linishiga sabab bo'lgan.

2. *Tarixiy migratsiyalar.* Bir xalqning boshqa hududlarga ko'chishi, boshqa etnik guruhlar bilan aralashuvi natijasida yangi nutq xususiyatlari paydo bo'lgan. Masalan, qadimgi turkiy qabilalarning ko'chish yo'nalishlari hozirgi dialektal hududlarning shakllanishiga asos bo'lgan.

3. *Etnik tarkib.* Har bir hududning tarixiy etnik tarkibi o'sha hududda mavjud leksik qatlamning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ayrim hududlarda o'zbek tiliga qozoqcha, qoraqalpoqcha, uyg'urcha yoki tojikcha unsurlar kirib kelgani ma'lum.

4. *Ijtimoiy-iqtisodiy omillar.* Savdo yo'llari, shaharlarning rivojlanish darajasi, iqtisodiy markazlar ham dialektlarning shakllanishiga ta'sir etgan. Aholisi ko'proq muloqot qiladigan hududlarda dialektlarning aralashuvi tezroq yuz beradi.

5. *Madaniy markazlar ta'siri.* Yirik shaharlarda shakllangan nutq madaniyati atrof hududlarga tarqalib, dialektal zonalarining chegaralarini o'zgartirgan. Masalan, adabiy til markazi bo'lgan shaharlar yaqinidagi shevalar adabiy tilga yaqinroq bo'ladi.

Dialektal zonalarini aniqlash ilmiy metodologiya asosida amalga oshiriladi. Tilshunoslikda dialektal zonalarini ajratishda bir nechta asosiy tamoyillar qo'llanadi. Ularning har biri zonalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

1. *Fonetika tamoyili* dialektal farqlanishning eng barqaror va ishonchli ko'rsatkichidir. Shevalarda tovushlarning o'ziga xos talaffuzi dialektal zonalarining eng aniq belgilaridan biri hisoblanadi. Fonetika tamoyiliga quyidagilar kiradi: Unli tovushlarning farqi (*a/e*, *o/ö*, *u/ü* almashinuvi); undoshlarning o'zgarishi (*q/x*, *g/y*, *b/p* almashinuvi); cho'zma va qisqa unlilarning mavjudligi; urg'uning turlicha qo'yilishi kabi. Masalan, ayrim hududlarda

“*kelayapman*” shakli “*kelyapman*”, “*kelyapmen*”, “*kelyattim*” ko‘rinishida talaffuz qilinishi fonetik tamoyil asosida farqlash imkonini beradi.

2. *Leksik (lug‘aviy) tamoyil*. Leksik tamoyil dialektal zonalarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi, chunki turli hududlarda bir predmet yoki hodisa turli so‘zlar bilan nomlanadi. Misol uchun: chaqmoq – yaltirak, qiyma – mayda go‘sh, sholg‘om – turp, arava – arbo, quduq – kuyuk kabi hududiy variantlar mavjud. Bu farqlar ko‘pincha etnografiya, an‘ana, hunarmandchilik va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq.

3. *Morfologik tamoyil*. Shevalarda qo‘shimchalar, ot va fe‘l shakllari turlicha qo‘llanishi keng tarqalgan. Masalan:

Kelishik qo‘shimchalari: *-ni, -di, -nu, -nū, -ti*.

Egalik qo‘shimchalari: *kitobim – kitobum – kitobom* variantlari.

Fe‘l zamonlari va mayllari: *kelganman – kelgammen – keliptim* kabi shakllar.

Morfologik belgilar dialektal zonalarining grammatik strukturasi haqida ma‘lumot beradi.

4. *Sintaktik tamoyil*. Sintaksis ko‘proq o‘zgaruvchan bo‘lsa-da, ayrim zonalarda gap tuzilishidagi sistematik farqlar aniqlanadi: kesimning gap oxirida yoki boshida kelishi; yordamchi fe‘llardan foydalanish usuli (*tur-, dur-, edi, erdi* variantlari), so‘z tartibining o‘zgarishi; bular dialektal zonasining umumiy strukturaviy ko‘rinishini belgilaydi.

5. *Geografik tamoyil*. Hududning tabiiy cheklovlari dialekt shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, dialektal zonalarini belgilashda geografik xaritalar, aholi joylashuvi, tabiiy to‘siqlar hisobga olinadi. Geografik tamoyil zonalar chegarasini aniqlashda asosiy yondashuvlardan biridir.

6. *Tarixiy-etnografik tamoyil*. Dialektal zonalarini belgilashda tarixiy manbalar, qadimgi qabila nomlari, etnografik materiallar katta ahamiyatga ega. Har bir hududning tarixiy-etnik tarkibi o‘sha hududga xos bo‘lgan til xususiyatlarini shakllantiradi. Masalan, turli urug‘ va qabilalarning joylashuvi hozirgi shevalarning ayrim belgilarini izohlashga yordam beradi.

7. *Sotsiolingvistik tamoyil*. Aholining ijtimoiy tarkibi, kasb-kori, urbanizatsiya darajasi, savdo aloqalari dialektal xususiyatlarning shakllanishi va tarqalishida muhim rol o‘ynaydi. Shahar va qishloq nutqi, ko‘chmanchi va o‘troq aholining nutq farqlari sotsiolingvistik tamoyillar bilan belgilanadi. O‘zbek dialektologiyasida uch yirik dialektal zona mavjud: qarluq (janubiy), qipchoq (shimoliy) va o‘g‘uz (g‘arbiy) zonalar. Ularning o‘rganilishi til tarixini aniqlashda, adabiy tilning shakllanish jarayonini tushunishda va lingvistik

xaritalar tuzishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek dialektologiyasida asosan uch yirik dialektal zona mavjudligi qayd etiladi:

1. Qarluq (janubiy) lahjasi zonasi;
2. Qipchoq (shimoliy) lahjasi zonasi;
3. O'g'uz (g'arbiy) lahjasi zonasi.

Bu zonalar tarixiy turkiy qatlamlarga tayanadi va o'zbek tilining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Har bir zona o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik jihatlariga ega bo'lib, mahalliy shevalarning umumiy manzarasini belgilaydi. Dialektal zonalarining o'rganilishi til tarixini aniqlashda, adabiy tilning shakllanish jarayonini tushunishda, lingvistik xaritalar tuzishda, mintaqaviy til siyosatini shakllantirishda, mahalliy nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek shevalarini dialektal zonalarga ajratishni V.V.Reshetov boshlab berdi. U Toshkent viloyati qurama shevalarining 49 ta lingvistik atlasini yaratgan edi. Shundan so'ng, A.Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarining 137 ta lingvistik xaritasini [7], Q.Muhammadjonov Janubiy Qozog'istondagi qarluq, qipchoq lahjalariga oid o'zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini kartalarda qayd etdi [4]. N.Murodova Navoiy viloyati o'zbek shevalari leksikasini areal lingvistik jihatdan tadqiq etib, lisoniy birliklar aks etgan 100 dan ortiq karta tayyorladi [3]. I.Darvishov Janubi-g'arbiy Namangan shevalari fonetik-fonologik xususiyatlarining areal tadqiqini amalga oshirdi [1]. Olim Janubi-g'arbiy Namangan dialektal arealini hududiy-geografik jihatdan tasniflab, ularning fonetik-fonologik xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. N.Rahmonov Navoiy viloyati o'zbek shevalarining morfologik xususiyatlarini areal jihatdan tadqiq qildi va lingvistik kartasini yaratdi [6]. G.Norova tomonidan Zarafshon vohasi o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari areal tadqiq etildi [5].

Xorazm shevalari yuzasidan ham areal lingvistik tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Y.Ibragimov "Janubiy Orolbo'yi o'zbek shevalari tadqiqi"da voha shevalarining areal tadqiqini amalga oshirdi [2]. Olim mazkur hudud shevalarini arealhududiy jihatdan tasnif qildi, lisoniy xususiyatlarini kartalashtirdi. Shuningdek, Y.Ibragimovning nazariy qarashlari ham hali rivojlanib kelayotgan o'zbek areal lingvistikasi, ham o'zbek dialektologiyasi uchun muhim hisoblanadi. Olim Janubiy Orolbo'yi o'zbek shevalarini 3ga: g'arbiy (qipchoq lahjasi), sharqiy (o'g'uz lahjasi), janubiy yoki oraliq shevalar guruhlariga ajratadi va oraliq shevalarning, nafaqat, o'zbek shevalarini areal tasnif qilinishida, balki dialektologik tasniflarda ham aks etmog'i kerakligini qat'iy ta'kidlaydi.

Bunday zonalarini belgilashda davlat chegaralari hisobga olinmaydi, balki o'zbek tili massivi (o'zbek tili tarqalgan hudud) geografik, dialektal farqlanishi,

tarixiy-etnografik xususiyatlari, ma'lumotlari asosida uning shevalari guruhlashtiriladi. Bunga yaqqol misol sifatida Xorazm dialektal zonasini keltirish mumkin. Bu zona uchun Urganch-Xiva shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajaradi. U Turkmanistonning Toshhovuz, va Qoraqalpog'istonning o'zbeklari tiliga va qoraqalpoq tiliga ta'sir kuchini ko'rsatadi. Janubiy g'arbiy dialektal zona O'zbekiston va Qirg'iziston hududida joylashgan va bu zona uchun Andijon va O'sh shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajaradi.

Xullas, dialektal zona tilning hududiy differensiallashuvi natijasida shakllangan murakkab lingvistik hudud bo'lib, u fonetik, leksik, grammatik, sintaktik, geografik va tarixiy belgilar majmuyi bilan tavsiflanadi. Zonalarni chuqur o'rganish tilning ichki tizimini, taraqqiyot bosqichlarini, mahalliy nutq shakllarining o'ziga xosligini va adabiy tilga ta'sirini aniq ko'rsatib beradi. Shu jihatdan dialektal zonalar nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki amaliy til siyosati, ta'lim va madaniyat uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: Жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 147 б.
2. Ибрагимов Ю. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2000. – 366-б.
3. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент, 2006. – 309-б.
4. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.
5. Норова Г. Ўзбек тили Зарафшон воҳаси ўзбек шевалари лексикасининг лингвоареал тадқиқи: Филол.фан.б.фал.док...дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – 50-б.
6. Рахмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 47-б.
7. Шерматов А. Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области. – Тошкент: Фан, 1978. – 145-с.

FILOLOGIYA**OGAHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA
QO‘LLANGAN GIDRONIMLAR HAQIDA****UO‘K 95(31)**

Shahnoza Aqmanova,
UrDU “O‘zbek
tilshunosligi” kafedrası
dotsenti, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa
doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning “Gulshani davlat” asarida qo‘llangan gidronimlar tahlilga tortilgan. Gidronimlarning tarixiy asarlarda berilishi va hozirgi o‘zbek tilidagi ifodasi qiyosiy o‘rganilgan. “Gulshani davlat” asaridagi daryolar, anhor (kanal)lar, ko‘llarning nomlanish xususiyatlariga doir ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, asarda qo‘llangan gidrotoponimlar ham misollar orqali dadillangan.

Аннотация: В данной статье анализируются гидронимы, использованные в произведении Мухаммада Ризо Эрниязбека оглы Огахи «Гульшани давлат». Проведено сравнительное изучение особенностей гидронимов в исторических произведениях и их современного выражения в узбекском языке. Приводятся сведения о характеристиках наименований рек, арыков (каналов) и озер в произведении “Гульшани давлат”. Также, на примерах проиллюстрированы гидротопонимы, использованные в произведении.

Annotation: This article analyzes the hydronyms used in the work "Gulshani davlat" by Muhammad Riza Erniyozbek oglu Ogahiy. The presentation of hydronyms in historical works and their expression in the modern Uzbek language are studied comparatively. Information is provided on the naming features of rivers, canals, and lakes in the work "Gulshani davlat". The hydrotoponyms used in the work are also illustrated through examples.

Kalit so‘zlar: tarixiy asarlar onomastikasi, “Gulshani davlat”, gidronim, gidrotoponim, anhor, nahr, arna.

Ключевые слова: ономастика исторических произведений, “Гульшани давлат”, гидроним, гидротопоним, анхор, нахр, арна.

Key words: onomastics of historical works, "Gulshani davlat", hydronym, hydrotoponym, anhor, nahr, arna.

Xorazm azaldan buyuk daholar, olim-u fozillar diyoriki, shiddatli va zahmatli kechmishi sabab odamlari kurashuvchan va zakiiy bo'lganligini tarixchi olimlar ham tasdqilaydi. "Xorazmning fenomenal ob-havo sharoiti, tarix davomida Amudaryoning o'jar tabiati, qum bosish va qurg'oqchilik xavfi, tashqi dushmanlar bilan kurashish, ozodlikka erishish orzusi voha ahlini kurashlarda po'latdek toblab, jasur, irodali o'g'il-qizlarni tarbiyalagan, bu holat esa o'ziga xos Xorazm sivilizatsiyasini yaratgan [2:35]", - deb ayni haqiqatni bayon qiladi U.Bekmuhammad. Xorazm tarixini go'zal bitiklarda meros qoldirgan buyuk muarrix, mumtoz badiiyat sohibi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy juda katta ilmiy-adabiy xazinani yaratgan. Ularning til xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va muayyan xulosalar chiqarish juda ko'p ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi. A.O'razboyev takidlaganidek, "Tarixiy asarlar leksikasi biror-bir xalqning jahon ijtimoiy-siyosiy sahnasida tutgan tarixiy o'rnini belgilash uchun muhim ilmiy faktlar bera oladi" [18:127].

Ogahiy tarixiy asarlarining asosiy voqealari urush, talon-tarojlarning iqtisodiyotga ta'siri, ayniqsa, xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun xonlarning sun'iy sug'orish inshootlarini izdan chiqarishi, buning oqibatida aholining boshqa hududlarga ko'chib ketishi kabi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hodisalarni qamrab oladi. Ko'rinadiki, tabiiy va sun'iy suv obyektlari azaldan xalq farovonligini ta'minlaydigan muhim vosita sanalgan. "Shohid-ul iqbol" asaridan quyidagi parcha fikrimizni dalillaydi: "G'ozibod orig'ining suvin G'ozibod qa'lasining ostidan bog'latib, u jamoaning mazralarig'a suv o'tkarmay, umidlari ziroatin hirmon samumi bila quritdi va ul atrofdag'i elotning qal'alarig'a favj-favj lashkarni qarovulliq yo'suni bila muhofazat uchun qo'ydi" [15:9].

"Geografik nomlar kishilarning e'tiborini qadim zamondanoq, jalb qilib kelgan. Yunon tarixchisi Gerodot o'z asarlarida mamlakatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma'nosini tushuntirib berishga harakat qilgan" [9:273]. Xuddi shunday, Ogahiy ham tarixiy voqealarni shunchaki berib o'tmasdan kitobxon uchun ma'lumotlarda mavhumlik paydo bo'lmasligiga e'tiborni qaratadi. Ya'ni, geografik obyektlar va ularning nomlari xususida ma'lumotlarga ham batafsil to'xtaladi. Quyidagi parcha orqali buning guvohi bo'lishimiz mumkin: "Bu safiyyai ma'niyoro mallohlarning xotiri bahri maxoratig'a po'shida qolmasunkim, Qazoq daryosi Ko'hna daryodin ayrilib kunchiqarg'a qarab oqadur"[6:224]. Asarlarni sinchiklab o'qish jarayonida suv yo'llarining nomlanish xususiyatlariga ham urg'u berilganini kuzatish mumkin.

O'rta Osiyolik olimlar haqida qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan H.Hasanov "Munis, Ogahiy va Bayoniyning geografik merosi alohida bir muhim

tema bo‘lib, kelgusida mukammal tahlilga muhtojdir”, – deb ayni haqiqatni yozgan [19:212]. Geografik merosi geograflar tomonidan o‘rganilsa, geografik obyektlar nomlanishi tilshunoslar zimmasidagi dolzarb masala sanaladi. Bunday nomlar maxsus onomastik sathda tahlil qilinishi yana bir karra ish ko‘lami va xususiy birliklarga ajratib o‘rganishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Ogahiyning tarixiy asarlaridan biri “Gulshani davlat” bo‘lib, unda Sayyid Muhammad davri (1856 – 1864-yillar) voqealari gavdalantirilgan. Mazkur asarda gidronimlar juda salmoqli o‘rinni egallaydi va ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Daryolar. Ogahiyning boshqa asarlarida uchragani kabi “Gulshani davlat”da ham **Amudaryo** ko‘plab o‘rinlarda *daryoyi Amu, Jayhun, Amuya* kabi nomlar bilan tilga olinadi: “Amudin kema bila maqsad jonibig‘a ozim bo‘ldi (GD:95)”.

Ko‘hnadaryo. “Ko‘hna Urganch qal’asining qiblasidan o‘tgan *Ko‘hnadaryo* rudxonasig‘akim shorqiroviqg‘a mavsumdur, yo‘l topib, ko‘p yerlarga borg‘uncha suv joriy bo‘ldi va bo‘z yerlardin nihoyatsiz ziroatgoh ochildi. (GD:132). Ko‘hnadaryo xalq tilida Daryoliq deb ham yuritiladi. Ushbu daryo Amudaryoning qurib qolgan o‘zanidir. Amudaryo muzlik davrida shu o‘zandan oqib, chuchuk suvli Sariqamish ko‘liga quyilgan. Urganch shahri yaqinidan boshlanib, shimoliy-g‘arbga cho‘zilgan. Toshhovuz vohasi orqali Ko‘hna Urganch shahrigacha boradi, 1878-yilgi katta toshqinda Amudaryoning suvi Ko‘hnadaryo orqali Sariqamish ko‘liga quyilib, ko‘l suvi sathini 8 m ko‘targan [7:62]. Ogahiy “Jome ul voqeoti sultoni” asarida ushbu daryoni Ko‘hna daryoliq deb ham ataydi [14:25].

Yoyiq suyi. “Dovidbiy boshlig‘ farmoni oliy mujibi bila *Yoyiq suyi* yaqasidin beshumor lashkar bila...” (GD:172). Yoyiq Ural daryosining dastlabki nomi bo‘lib, keng hududga yoyilgani uchun shunday nom berilgan. S.Djo‘raboyeva “Boburnoma” tarkibidagi gidronimlarni tahlil qilar ekan, “asarda daryolar nomi tarkibida ba‘zan “suyi” so‘zi ham ishlatilgan”[3:30]ligini ta’kidlaydi. “Gulshani davlat” asarida **Sho‘rqochuv suyi** gidronimi ham berilgan bo‘lib, voqealarni aniqroq gavdalantirishga xizmat qilgan.

Bulardan tashqari, yirik daryolar **Marv** va **Sir** daryolar ham Ogahiy tarixiy asarlarida bir qancha o‘rinlarda tilga olinadi.

Anhor (kanal)lar. “Balki zebu ziynatda **Kavsar va Sansabil anhorig‘a** sho‘rishafkan qildi” (GD:177) Kavsar va Sansabil jannat daryolari sifatida Qur‘oni Karimda ham zikr qilingan. Tafsir va hadislarda aytilishicha Kavsarning suvi asaldan totli, qor va sutdan oq bo‘lib, undan ichgan kishi abadiy tashnalik bilmaydi. Shuningdek, qiyomat kuni jannat nasib etgan mo‘min-musulmonlar

mazkur Kavsar suvidan ichishlari to‘g‘risida bashorat beriladi. Sansabil esa „oson yutish“ yoki „mazali ta‘m“ deb tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan salla, salis yoki salsala so‘zlaridan kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Bu tushunchalar jannatda iste‘mol qilinadigan suyuqliklar uchun mos deb hisoblanadi.

“Ariqsoqoy nahrining to‘shida Bekyofining saqqosig‘a tushuldi (GD:205)”. **Nahr** (نهر) arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida ko‘pincha “katta kanal”, “ariq” yoki kichik daryo ma‘nosida ishlatiladi va “Anhor” (ko‘plik, "daryolar") so‘zining asosidir. Bu, odatda, sug‘orish uchun yoki suv transporti maqsadlarida sun‘iy qazilgan katta suv yo‘li, shuningdek, tabiiy kichik daryo yoki irmoqlar uchun qo‘llaniladigan atama[5] hisoblanadi. Nahr so‘zi “tez oqadi” ma‘nosini bildiruvchi nahara fe‘lidan hosil bo‘lgan [6]. “Gulshani davlat” da **O‘g‘uz nahri** haqida ham so‘z borgan: “Barcha lashkariyani kema bila Sho‘rqochuv suyidin o‘tkarib bo‘lg‘andin so‘ng ko‘chub, mazkur bo‘lg‘an **O‘g‘uz nahrining** daryog‘a quygan mavzeg‘a nuzul qildi” (GD:209). Mazkur gidronim asarning boshqa nashrida **O‘kuzketgon nahri** tarzida ham qo‘llangan [6:182].

Ko‘llar. “Xorazm tengizidin uchang‘a minib, daryoyi Jayhunning tengizga quyaturg‘an yeriga kelib va daryoda kema bila qat‘i masofa qilib,..” (GD:175). Orol dengizi Ogahiy asarlarida Xorazm tengizi tarzida ifodalangan. Orol aslida katta ko‘l hisoblanib, bu boshqa tadqiqotlarda [1:26] ham asoslanganligini ko‘rish mumkin.

Dashti Qipchoq muzofotidin “**Tovqara** tengizining havolisig‘a borib qazoq toifasining mollari axz etmakda...(GD:94)”. Avaz inoq hukmronlik qilgan davrda Tovqara dengiz suvi qurigan va u yerlar dehqonchilik qilish uchun yaroqli bo‘lib qolgan [12:202].

“Shimoliy sohilda **O‘rpak baliq ko‘lining** havolisin kavkabayi volog‘a maqarru ma‘vo qildi (GD:193)”. Ushbu ko‘l asarda berilgan ma‘lumotlarga tayanib Amudaryoning shimoliy sohilida joylashganini bilish mumkin.

Bo‘zko‘l. “Ma‘lum bo‘lsinkim, **Bo‘zko‘l** Chinboy qa‘asining tavobi‘idindur. Va anda hanuz suv bormamish erdi va aning bila ushbu manzilgoh bo‘lg‘an to‘palarning orasi to‘rt farsaxlik masofatdur” (GD:226). Mazkur ko‘lning Ogahiy qalamga olgan davrda ham suvsiz ekanligi, ya‘ni ko‘lning suvi qurigani ma‘lum bo‘ladi. Bo‘zko‘l bugungi kun olimlarining ta‘kidlashicha, bir vaqtlar bo‘g‘oz vazifasini ham bajargan [10]. “Ko‘l qurisa ham nomi qurimaydi” degan xalqimizdagi ibratli naql aynan shunday tarixiy davrlarga borib taqaladigan ko‘llarga nisbatan aytilgan. Iqlim o‘zgarishlari va insoniyat tamadduni sababli bunday ko‘llarga yana suv kelishi ehtimoli ham yo‘q emas. Shu boisdan ularning nomlari saqlanishi va o‘rganilishi muhimdir.

Xo'ja ko'li. Ogahiyning “Gulshani davlat” asarida tilga olingan mazkur ko'l bugungi kunda mavjud emas. Asarda keltirilgan ma'lumotdan ko'lining qaysi hududga tegishli ekanligini yaqin masofadagi obyektlar orqali bilib olish mumkin: “Xo'ja ko'lidin ko'chub, hazrati Shayx Jalil ota tog'ining sharqiy janubidin dashtu biyobon bo'lub juma kuni Ohak tog'ining etag'igakim, hazrati Sulton Uvays tog'ining sho'balaridindur tushuldi” (GD:230).

Ma'lumki, tarixiy davrlardan to bugungacha nomi ma'lum bo'lmagan, maxsus qayd qilinmagan suv obyektlari ham mavjud. Ogahiy asarlarida ham bunday suv inshootlari haqida ma'lumotlar uchraydi, Masalan: “Muhammad Yaqub mahram toza yof qozdurib, ul bo'z yerga suv kelturmish erdi” (GD:268); “Andaroy jangalig'a bordi va bir ulug' ko'l qanorig'a nuzul etib, vusuli sharafidin borgohi olampanoh manjuqin zurvayi uyukdin o'tkardi” (GD:269); “Daryo bila Pahlavon Mahmudning arnasi bobaynidi voqedurur” [15:175]. Ma'lumki, suv inshootlarining ko'pchiligi ulug' kishilar homiyligi va rahnamoligida barpo qilinadi va aksariyat holatlarda ularning nomi bilan ataladi. Pahlavon Mahmud arnasi va Polvon kanalini bir suv inshooti deb faraz qiluvchilar ham bor. Aslida Polvon kanalining dastlabki nomi Xey Kanik anhuri hisoblanadi.

Ogahiy asarlarida suv inshootlari nomlari asosida nomlangan toponimlar ham talaygina. Bunday nomlar gidrotoponimlar deyiladi. N.Uluqov ta'kidlaganidek, “gidrotoponim shakllanishining muhim jihati shundaki, bunda yangi nom – toponim iste'molda bo'lgan boshqa nom asosida yaratiladi. Bu albatta, yangi nom yaratishdan ko'ra oson va yengilroq. Demak, gidrotoponimlar nomlar asosida yaratilgan nomlardir” [17:192].

Ogahiy tarixiy asarlarida Yangiariq joy nomi ya'ni mavze' tarzida ko'p bora qayd qilingan. Yangiariq – bu yangi qazilgan katta ariqni ifodalaydi, Xorazm viloyatidagi tumanlardan birining nomi, shuningdek, tumanning markazi ham. Mahalliy aholi vakillari va umuman, ko'pchilik aholi mazkur nomni yangi qazilgan ariq ma'nosida deb talqin etishadi va unga shubha ham qilishmaydi [8:460]. Mutaxassislar tomonidan mazkur nom aslida “ark” so'zi bilan bog'liqligi qayd etiladi. Biroq ko'plab tahlillar mazkur nom uning aynan gidronimga nisbat berilganini tasdiqlab kelmoqda. Xususan, buni Ogahiy asarlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ogahiyning tarixiy asarlarida, xususan, “Jome ul-voqeoti sultoni”da *Yangoriq* tarzida ifodalashining o'zida bu nom yangi qazilgan ariqqa qo'yilgan nomligi ayon bo'ladi.

Asarda **Toshhavz** gidrotoponimi ham faol qo'llangan. Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga asoslangan holda bu nom Toshhovuz tarzida ifodalanadi. Hozirda bu hudud Turkmaniston Respublikasiga qarashli bo'lib, Turkmanistonning birinchi prezidenti tomonidan ushbu nomga “Dosho'g'uz” tarzida o'zgartirish kiritilgan. Biroq nomning asl kelib chiqish mazmuniga e'tibor

qaratadigan bo'lsak, Xorazm vohasining janubiy qismida karvonsaroy bo'lib, uning yonida toshdan hovuz qurilgan va keyinchalik bu hudud Toshhovuz deb atala boshlangan.

Qo'shko'prik mavzeyi gidrotoponimi bir qarashda hech qanday suv obyekti nomini ifodalashga aloqasi yo'qday ko'rinadi. N.Oxunov soy, ariq, buloq, ko'l, suv, quduq, **ko'prik**, kechik so'zlari bilan aloqador toponimlarni gidrografik terminlar deb ataydi [16:9]. S.Qorayev ham ko'prik so'zi bilan sinonim bo'la oladigan kechik so'zini gidronimlarni hosil qiladigan atama sifatida izohlagan: kechik (kechuv) – daryodan, katta soydan kesib o'tiladigan joy [9:63]. Shulardan ko'rinadiki, ko'prik so'zi gidronimik nomlarni hosil qilishga xizmat qiladi. Farg'ona viloyatida ham Qo'shko'prik qishlog'i borligi, qolaversa, Xorazm shevalarida ko'prik so'zi fonetik o'zgarishlar bilan ko'pir tarzida ishlatilishi natijasida Ogahiy nazarda tutgan Qo'shko'prik mavzeyi hozirgi Qo'shko'pir nomi bilan yuritiladi.

Ogahiy asarlaridan olingan quyidagi parchalar orqali suv inshootlariga qo'yilgan nomlar hudud nomiga aylanganini ko'rish mumkin: "...**Yangiyof** hududidakim, o'zlarining maskani oliysi erdi...(GD:93)"; "Ul ovonda qozoq ashroridin Bo'rito'rakim, Beshikli va **Sho'rbuloq** otlig' mavzelarda bo'lur erdi (GD:95)"; "...hazrati sulton Uvays qadamgohidag'i tog'ning sharqi jonibidin **Suv ko'li** yo'li bila ozim bo'ldi"; "Oqdarband xalqining sarxayli Akbar yuzboshi dag'i xamul kun **Zeydin** o'z qal'asidagi navkari bila kelib, mulozamat davlatiga foyiz bo'ldi (GD:155). Asarda Zey hudud nomi sifatida qo'llangan: Zey hududida muaksar qilib..." ; "Yakshanba kuni Qipchoq qal'asi muzofotidin **Qaroja ko'li** otlig' mavzega tushildi (GD:193)". Qaroja so'zi qora qarg'a mazmunini bildirishi manbalarda qayd qilingan [13].

Ogahiy ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan hamohang umr kechirganligi, ayniqsa, uning miroblik vazifasida ancha yillar faoliyat yuritganligi sabab voha va uning atrofidagi suv inshootlarini chuqur o'rgangan va ular haqidagi ma'lumotlarni, xususan, nomlanishi bilan bog'liq mulohazalarini o'z asarlarida bayon qilgan. Sun'iy sug'orish obyektlarining eng ko'p bunyod etilgan davri ham Ogahiy miroblik qilgan yillarga to'g'ri keladi. Shu bois uning asarlarida qo'llangan gidronimlar lingvogeografiya sohasi uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim qiladi. Badiiy matndagi toponimlar, xususan, tarixiy asarlardagi toponimlar tilimizdagi joy nomlarining arxaik shakllari haqida ma'lumot berishini [11:123] tadqiqotchi D.Andaniyozova ham tasdiqlagan. Ogahiy nafaqat tarixiy asarlarida, balki boshqa turfa janrlardagi badiiy ijod namunalarida ham gidronimlardan unumli foydalangan va badiiy obraz yaratishda suv inshootlari

nomlarini mahorat bilan qo'llay olgan. Fikrimizni dalillash maqsadida birgina bayt bilan cheklanamiz va she'riy asarlarda qo'llangan gidronimlar yuzasidan alohida tadqiqotlarimizda tahlillar olib borishni ma'lum qilamiz:

Ko'zlarim yoshin ishqing ichra oqizib har yon

Birni aylabon Jayhun, birni qil Aras yo Rab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova M. Ogahiyning "Riyozi-d-davla" asari onomastikasi. – Urganch, 2025. – 136 b.
2. Bekmuhammad U. Xorazm va xorazmliklar. 1-kitob. Buxoro, 2022. – 208 b.
3. Djo'raboyeva S. Boburnoma tarkibida toponimlarning qo'llanishi. Молодой ученый. – 2021, N-30
4. etimlugat.uzbekcorpus
5. <https://www.google.com/search?q=nahr+nima&rl>
6. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. 6-jild. – Toshkent: Sharq, 2020, – 327 b.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent: 2000.
8. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. – Toshkent, 2022. – B.460. 624 b
9. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – 318 b.
10. Soburov O'. Orolbo'yi mintaqasining ekologik muammolari. Geografiyauz. Sayti. 2015-yil
11. Анданиёзова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоетикаси. PhD дисс. – Тошкент, 2017. – 164 б.
12. Гулямов Я. Г., История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент. 1957, с.202
13. ЗАПИСКИ ИНСТИТУТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ АКАДЕМИИ НАУК. Издательство Академии Наук СССР Москва • 1937 • Ленинград
14. Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Тарихий асарлардан парчалар. 6 жилд – Тошкент, 1978. – 208 б.
15. Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Тарихий асарлардан парчалар. 5 жилд – Тошкент, 1978. – 210 б.
16. Охунов Н. Тил ва жой номлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1988. – 24 б.
17. Улуков Н. Ўзбек тили гидронимиясининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2008. – 192 б.
18. Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент, 2013. – 138 б.
19. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиёлик географ ва сайёҳлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – 212 б.

FILOLOGIYA

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA EMOTSIONAL-METAFORIK FRAMING: HIS-TUYG'UNI BOSHQARISH VA AUDITORIYA ONGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI



Rajabbayeva Feruza,
Urganch innovation
university “O‘zbek va
xorijiy Filologiya”
kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori

UO‘K 95(31)

Annotatsiya: Maqolada ommaviy axborot vositalarida emotsional-metforik framingning mazmun yaratish, hissiy boshqaruvni amalga oshirish va auditoriya ongida voqelikning qayta konseptualizatsiya qilinishidagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье проводится углублённый анализ эмоционально-метафорического фрейминга в средствах массовой информации, его роли в создании смысла, управлении эмоциональными состояниями и переконцептуализации событий в общественном сознании.

Annotation: The article provides a systematic analysis of how emotional-metaphorical framing in mass media contributes to meaning construction, affective regulation, and the reconceptualization of events in public consciousness.

Kalit so‘zlar: emotsional framing, metaforik framing, media diskurs, kognitiv metafora, affektiv boshqaruv.

Ключевые слова: эмоциональный фрейминг, метафорический фрейминг, медиа-дискурс, когнитивная метафора.

Key words: emotional framing, metaphorical framing, media discourse, cognitive metaphor, affective control.

Ommaviy axborot vositalari zamonaviy kommunikatsiya tizimida nafaqat axborot uzatuvchi kanal, balki ijtimoiy ongni konstruksiyalovchi murakkab semiotik-kognitiv maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Media diskursi bugungi kunda auditoriyaning voqelikni idrok etish shaklini, uning affektiv va ratsional reaksiyalarini qayta modellashtiruvchi strategik epistemik makonga aylangan. Ayniqsa, OAV matnlarida qo‘llaniladigan metaforik strukturalar voqelikni ma’lum konseptual ssenariylar asosida tartiblaydi, emotsional signallar esa ushbu ssenariylarni affektiv jihatdan kuchaytirib, auditoriyaning baholash, xotirada saqlash va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora inson tafakkurining asosiy kognitiv mexanizmlaridan biri bo‘lib, abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosidagi

xaritalar orqali strukturaviy anglashga imkon beradi. Media diskursi aynan shu mexanizmga tayanib, voqealarning semantik konfiguratsiyasi va hissiy tonalligini belgilaydi: metafora voqelikni “qayta konseptualizatsiya qilsa”, emotsional framing uni auditoriya ongida “affektiv jihatdan markazlashtiradi”. Natijada voqelikning obyektiv tasviri emas, balki ma’lum kognitiv-hissiy model asosida tayyorlangan diskursiv konstruksiya iste’mol qilinadi.

Zamonaviy axborot maydonining yuqori tezkorligi, multimodal shakllarining kengayishi, hamda auditoriya diqqatining fragmentar xarakteri OAVni emotsional-metaforik framingning eng kuchli generatoriga aylantirdi. Bunday qayta ishlab berilgan semantik-pragmatik model auditoriyaning idrok maromiga, affektiv rezonansiga, kognitiv disonans yoki konsonans holatlariga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, emotsional-metaforik framingni o’rganish nafaqat lingvistik tahlil, balki kognitiv fanlar, psixologiya, media tadqiqotlari va pragmatik semantika uchun ham dolzarb bo’lib bormoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — OAVda yuzaga keladigan metaforik va emotsional markerlarning lingvokognitiv tabiati, ularning diskursdagi semantik yuklanishi, hamda auditoriya ongiga ko’rsatadigan ta’sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan aniqlashdir. Tadqiqot, shuningdek, media tilining konseptual xaritalarni shakllantirishdagi roli, affektiv strukturalarning kognitiv jarayonlarni boshqarishdagi o’rni va framingning ongni yo’naltiruvchi (directive), baholovchi (evaluative) hamda manipulyativ (manipulative) funksiyalarini kompleks ravishda yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot kognitiv va diskursiv yondashuvlar integratsiyasi asosida olib borildi. Avvalo, konseptual metafora tahlili Lakoff va Johnson hamda Kövecses tomonidan ishlab chiqilgan modelga tayangan holda amalga oshirilib, media matnlaridagi asosiy metaforik konseptlar — MASALA = KASALLIK, JAMOAT = TANA, INQIROZ = TO’FON va shu kabi strukturalar aniqlanib, ularning konseptual xaritasi tuzildi. Keyingi bosqichda media diskursining kritik tahlili Fairclough, Van Dijk va Musolff nazariyalariga asoslanib, matnlarda uchraydigan emotsional va metaforik signallarning persuziv hamda manipulyativ funksiyalari o’rganildi. Shuningdek, affektiv-semantik tahlil yordamida emotsional birliklar semantik polariteti (pozitiv va negativ mazmun), affektiv intensivlik darajasi (xavotir, qo’rquv, umid, hayajon) va ularning matndagi retorik vazifalari bo’yicha tasniflandi. Tadqiqot materiali sifatida esa 2020–2024 yillarda BBC, CNN, Euronews, Kun.uz va Gazeta.uz portallaridan olingan 300 dan ortiq media matni korpus shaklida tanlanib, tahlil jarayonida emotsional-metaforik signallarning qo’llanish dinamikasi aniqlab borildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, media diskursida metaforik framing voqelikni qayta konseptualizatsiya qiluvchi asosiy kognitiv mexanizm sifatida ishlaydi. Tahlil jarayonida ommaviy axborot vositalarida INQIROZ = TO'FON "to'liq kabi kengaymoqda", JAMIYAT = TANA ("jamiyat jarohat oldi"), MUAMMO = KASALLIK ("iqtisodiy virus tarqalmoqda") va RIVOJLANISH = YO'L ("qiyin burilishdan o'tmoqda") kabi ustuvor metaforik mappinglar faol qo'llanayotgani aniqlandi. Ushbu metaforalar voqelikni hissiy ranglangan shaklda qayta paketlab, muayyan hodisalarning semantik talqinini kuchaytiradi. Tadqiqotda aniqlanishicha, emotsional-metaforik framing uch bosqichli kognitiv-affektiv mexanizm asosida ishlaydi: birinchi bosqichda diqqatni kerakli nuqtaga yo'naltiradi, ikkinchi bosqichda voqelikning semantik refleksiyasini o'zgartiradi, uchinchi bosqichda esa auditoriyada affektiv baho shakllantiradi. Natijada, metafora auditoriya fikrlashini strukturaga soluvchi kognitiv vosita sifatida namoyon bo'lsa, emotsional signallar ushbu strukturaga kuchli affektiv yuklama berib, matnning persuziv ta'sirini oshiradi va uning manipulyativ imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Olingan natijalar media diskursida emotsional-metaforik framingning murakkab, ko'p qatlamli tabiatini tasdiqlaydi. Metafora voqelikni qayta konseptualizatsiya qiluvchi asosiy kognitiv mexanizm sifatida, emotsiya esa ushbu kognitiv strukturani auditoriya ongiga affektiv darajada singdiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Lakoff va Johnson ta'kidlaganidek, inson tafakkuri metaforik model orqali tashkillashtiriladi va bu model orqali voqelikning ma'no maydoni shakllanadi [1]. Media matnlarida aniqlangan INQIROZ = TO'FON yoki JAMOAT = TANA kabi keng qo'llanadigan mappinglar orqali hodisalarning dramatisatsiya darajasi oshiriladi, ularning ijtimoiy-semantik vazni qayta belgilab beriladi. Bu jarayon Kövecses tomonidan tavsiflangan "emotsional tafakkurning konseptual asoslari" bilan ham mos keladi [2].

Media diskursida emotsional framingning qat'iy funksional tabiati ham muhim omil bo'lib, tahlil natijalari Van Dijkning ideologik diskurs modeli bilan uyg'unlashadi. Van Dijk fikricha, emotsiya ijtimoiy ongni shakllantirishda kognitiv nazorat mexanizmlarini faollashtiradi va baholovchi qarashlarni yo'naltiradi [3].

Xavf framingi orqali qo'rquvni kuchaytirish, umid framingi orqali motivatsiyani shakllantirish yoki og'riq framingi orqali ijtimoiy solidarniyani kuchaytirish — bularning barchasi auditoriya reaksiyalarini boshqarishga qaratilgan strategik diskurs texnikalari hisoblanadi. Musolffning metaforik stsenariylar haqidagi ishlari ham shuni ko'rsatadiki, metafora nafaqat til birliklari

yig'indisi, balki voqelikni talqin qilish uchun ishlatiladigan ijtimoiy kognitiv skriptlardir [4].

Natijalar shuni anglatadiki, emotsional-metaforik framing o'z mohiyatiga ko'ra sezilmaydigan, ammo ta'siri kuchli psixologik vosita bo'lib, u auditoriya diqqatini kerakli semantik nuqtalarga yo'naltiradi, voqelikning ma'no strukturasini qayta shakllantiradi va nihoyat affektiv bahoni hosil qiladi. Bu esa Faircloughning diskursning ijtimoiy-semiotik tabiati haqidagi qarashlari bilan hamohang bo'lib, media diskursida tilning nafaqat axborotni yetkazish, balki ijtimoiy ongni boshqarish vositasi sifatida ishlashini yana bir bor tasdiqlaydi [5].

Shu bois, emotsional-metaforik framingning nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinishi media savodxonligini oshirish, ijtimoiy qadriyatlarining manipulyatsiyaga uchramasdan idrok qilinishini ta'minlash va auditoriyaning ongli qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Bu yondashuv zamonaviy media ta'sir mexanizmlarini tushunishga, shuningdek, jamiyatda tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari OAV diskursida emotsional-metaforik framingning kognitiv, semantik va affektiv komponentlari bir-biri bilan uzviy aloqador holda ishlashini yaqqol ko'rsatdi. Metafora voqelikni konseptual darajada modellashtirib, hodisalarning mazmuniy talqinini muayyan semantik doiraga yo'naltiradi; emotsional framing esa ushbu konseptual strukturaning affektiv yuklamasini kuchaytirib, auditoriyada ma'lum bir hissiy pozitsiyaning shakllanishiga turtki beradi. Ushbu integrativ mexanizm natijasida media matnlari nafaqat axborot yetkazadi, balki ijtimoiy voqelikni qayta talqin qilish, unga baholovchi munosabatni shakllantirish va auditoriyaning kognitiv jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, metaforik modellash va affektiv signallarning uyg'unlashuvi media diskursining persuaziv kuchini sezilarli darajada oshiradi va ijtimoiy ongni shakllantirishning samarali vositasiga aylanadi. Bu holat zamonaviy OAVda tilning faqat kommunikativ emas, balki ideologik, kognitiv va psixologik ta'sir funksiyalarini chuqurroq o'rganish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu sabab, emotsional-metaforik framing jarayonining ilmiy tahlili media savodxonligini yuksaltirish, manipulyativ ta'sirlarni aniqlash va ongli idrokni rivojlantirish uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242-b.
2. Kövecses Z. *Metaphor and Emotion*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 220-b.
3. Charteris-Black J. *The Persuasive Power of Metaphor*. – London: Palgrave Macmillan, 2005. – 280-b.
4. Fairclough N. *Critical Discourse Analysis*. – London: Longman, 1995. – 265-b.
5. Van Dijk T. *Ideology and Discourse Analysis*. – London: Sage, 1998. – 250-b.
6. Musolff A. *Political and Media Discourse Analysis*. – London: Bloomsbury, 2016. – 210 b.
7. Semino E. *Metaphor in Discourse*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 240-b.
8. Charteris-Black J. *Analysing Political Speeches: Rhetoric, Discourse and Metaphor*. – London: Palgrave, 2014. – 289-b.
9. Van Dijk T. *Ideology: A Multidisciplinary Approach*. – London: SAGE Publications, 1998. – 240-b.
10. Musolff A. *Political Metaphor Analysis: Discourse and Scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 205-b.
11. BBC News Archive. *Materiallar to'plami (2020–2024)*. – London: BBC. – Elektron manba.
12. Kun.uz Media Materials. *Materiallar majmuasi (2020–2024)*. – Toshkent: Kun.uz. – Elektron manba.

FILOLOGIYA**TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ROMANIDA EGILGAN
HAQIQATNING BADIY TALQINI****UO‘K 95(31)**

Tillayev Bahodir,
Urganch innovatsion
university,
“Pedagogika va
boshlang‘ich ta‘lim
metodikasi” kafedrası
o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonlarni kurashishga majbur qiladigan omillar, egilgan va mudom to‘siqlarga uchragan haqiqat va bu holatning inson hayotining turli davrlarida boshidan kechirgan voqealarda ham ta’siri saqlanib qolganligi haqida so‘z boradi.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы, побуждающие людей к борьбе, искажённая реальность, постоянно сталкивающаяся с препятствиями, и влияние этой ситуации на события, переживаемые людьми в разные периоды их жизни.

Annotation: This article examines the factors that motivate people to fight, the distorted reality that constantly faces obstacles, and the impact of this situation on the events people experience at different periods of their lives.

Kalit so‘zlar: Jinoyat, jinoyatchi, jinoiy guruh, qasos, haqiqat, yorug‘lik, qorong‘ulik, ezgulik kategoriyasi, yovuzlik kategoriyasi.

Ключевые слова: Преступление, преступник, преступная группа, месть, истина, свет, тьма, категория добра, категория зла.

Key words: Crime, criminal, criminal group, revenge, truth, light, darkness, category of good, category of evil.

“Yorug‘ kunda barcha yaxshi narsalarni ko‘rib turamiz. Qorong‘ida esa ko‘rmaymiz. Urilib, suqilib, qoqilib yuramiz. Alqissa, yorug‘ kunning qadriga yetmoq uchun qorong‘ulikni ham ko‘rish lozim emasmi?” (Tohir Malik)[1].

Hayotda shunday tushunchalar borki, ular asrlar davomida insonlarning fe‘l-atvori va hayot tarzini ifodalashda, oddiy insonlardan tortib o‘z davrining va keyingi davrlarning ham mashhur insonlarini baholashda qo‘llanib kelinayotgan muhim kategoriyalardir. Ahloqshunoslikdagi eng muhim shunday kategoriyalardan biri ezgulikdir. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi.

“Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal” uchligi “Avesto” dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rinni egallashi ham shundan, albatta. Chunki, ezgulik insonga eng kuchli ma‘naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat, shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyatdir. Ezgulik va unga qarama-qarshi kuch bo‘lgan yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o‘lchanmaydi, bu ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash

abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo'ladi. Ezgulik va yovuzlikning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug'ligi va tubanligini o'lchaydigan muqaddas tarozuga o'xshatish mumkin.

Bu ikki juftlikning farqli tomoni shundaki, sodir qilingan ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo'lib qolaveradi[2].

Bugun biz ezgulik va yovuzlikning o'zaro kurashiga bag'ishlab yozilgan asar haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor bu g'oyani paydo bo'lish sababi haqida muallifning o'zi aytgan sharhlarga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Adib jurnalistlar bilan bo'lgan bir suhbatda *“Nima uchun bolalar jinoyat olamiga kirib qoladilar? Adashibmi? Nima uchun biz, kattalar ular adashguncha qarab turamiz? O'smirlarning shaytonlar olamidagi tikonni bosib olishlariga kim aybdor? Faqat o'zlarimi? Biz – kattalar ularning qalb ko'zlarini ochishga urinib ko'rganmizmi?”* degan savolni qo'yadi. Va ushbu savolga asar qahramoni tomonidan kuylangan *“Hayot gulzor deya kezzim, tikonlari chiqdi yo'ldan; na-da tikonlari, ilonlari chiqdi yo'ldan...”* satrlari orqali javob beradi. Insonlarni, ayniqsa, hayotga endi boshlang'ich qadamlarini qo'yayotgan o'smir yoshlarni ogohlantiradi.

Jamiyatdagi barcha insonlarni ogohlantirish maqsadida yozilgan *“Shaytanat”* asarining birinchi kitobida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi o'zaro kurash tasviridan oldin asar qahramonlari bilan tanishamiz. Tanishish jarayonida ularning o'tmishiga, hayotlarida uchragan turli voqealarga, nohaqlik va haqiqatlarga guvoh bo'lamiz va hayotning turli ko'chalariga qanday kirib qolganligining asl sabablariga ham oydinlik kiritib boramiz.

Tanishtirish jarayoni asarning asosiy qahramoni Asadbek bilan emas, balki, bizning fikrimizcha asarda keyingi o'rinlarda turishi lozim bo'lgan Elchin bilan boshlanadi va hofizning hayotidagi eng ayanchli va eng dahshatli voqea – sevimli jufti halolining ko'ksiga pichoq sanchilib yotgan holati tasvirlanadi. Bu holatni ko'rishdan oldin Elchin tush ko'radi. Tushida u oldin momiq bulut parchasida rohatlanib suzib borayotgan bo'ladi va *“birdan bulut choki so'kilib”* shiddat bilan pastga qulaydi. Elchin ko'rgan mana shu dahshatli tushning o'zi o'tgan davrdagi hayoti va kelgusida ro'y beradigan voqealar haqida boshlang'ich ma'lumotni beradi desak, yanglishmaymiz.

Ayniqsa, Noilaning holatini ko'rib, *“shoshilib borib ko'krakdagi pichoqni sug'urib olishi”* voqealar rivoji uchun turtki bo'ladi. *“Kim Noilaning ko'kragiga sanchdi?”* degan o'z-o'ziga berilgan savol esa Elchin qalbidagi qasos olish tuyg'usini paydo bo'lishi uchun zamin bo'lganligini zukko kitobxon anglab oladi, albatta. Biz asarning boshlanishidagi Elchinga bag'ishlangan kichik lavha bilan

tanishar ekanmiz, bunday holatda o'zini inson deb bilgan, qalbida imoni va vijdoni bo'lgan har qanday insonda o'ch olish va haqiqatni bilish istagi paydo bo'lishini his qilamiz va Elchindan ham buni amalga oshirishni beihitior so'rab qolamiz.

Urushdan keyingi og'ir sharoitlarda yashayotgan ko'pchilik oilalar singari Asadbeklar oilasi ham turmush mashaqqatlarini tortib yashayotgan bo'ladilar. Birgina uyni isitish imkoni bor. Uydagi yolg'iz tanchaning uch tomonidan oilaning uch nafar a'zosi, Asadbek, otasi va onasi uxlaydilar. Dasturxonda ham bir kunga yetarli non va boshqa yeyimliklar bor, xolos. Buni asardagi *“Sandal ustini qoplab turgan to'rt burchakli katta patnisda bir burda non, bir siqim turshak bor edi”* jumlasidan zukko kitobxon darhol fahmlab oladi. Ayniqsa, uyga bostirib kirgan ikki nafar begona kishini ko'rib, Asadbekning *“Bular o'g'ri, yaxshi ham nonni yeb qo'yganim”* deb o'ylaganining o'zi hayot tarzining naqadar og'ir ekanligidan dalolat beradi.

Tohir Malik beruxsat kirib kelgan ikki nafar chaqirilmagan mehmonlar va Asadbek, uning otasi o'rtasidagi qisqa-qisqa suhbatlarni juda ustalik bilan, tushunarli tilda yozgan. Ularning o'zaro suhbatidan bemahal tashrifning maqsadi va mohiyati haqida hech qanday sharhlarsiz kitobxon anglab oladi.

-Qo'rqma, biz o'g'ri emasmiz. Biz xalqni o'g'ri, muttaham, dushmanlardan himoya qiladigan odamlarmiz. Sening otang ham dushman. Oddiy emas xalq dushmani!

-Bolaga bu gaplarni gapirmang, foydasi yo'q.

-Foydasi bor. Bilib qo'ysa chakki bo'lmaydi.

O'zaro suhbat Asadbekning dadasi kirib kelgandan keyin boshqacha, jiddiy tus oladi:

-Siz qamoqqa olindingiz, -dedi past bo'yli odam, uning orqasiga o'tib.

-Xalq dushmani sifatida, -dedi novcha odam, uning ro'parasiga turib olib.

Dadasi indamadi.

Mana shu o'rinda u davrlar haqida biladigan kitobxon bolaning dadasi nega indamaganligiga o'zida javob topadi. Stalin davridagi qatag'on yillarida atayin qurbon qilingan insonlar haqiqiy xalq g'amini o'ylaydigan, ziyoli va faol insonlar bo'lgan. Qatag'on qilish jarayonida kimning ustidan bir varaq ariza tushsa, yoki o'z fikrini erkin bildirib, davr muammolari haqida fikr bildirib, boshqalarni o'z izidan ergashtirish qobiliyati bor bo'lgan insonlar qurbon bo'lganlar. Indaganning, bahslashganning esa foydasi yo'q.

O'smir Asadbek esa dadasi har ikkalasini ham urib-urib ko'chaga otib yuborishini juda istaydi. *“Nimaga urmayptilar, kuchlari yetmaydimi? Men borman-ku!”* deb o'ylaydi va shu o'y tufayli *uning jajji yuragida eng dastlabki isyon vulqoni uyg'onadi*. U *“Dadamga tegmang! Tegmang dadamga! – daf'atan kelgan hayqiriqni to'xtata olmadi. Irg'ib turib, uzun bo'yligining yelkasiga tirmashdi”*.

Mana shu tasvirning o'zi Asadbekning biz kelgusi boblarda guvoh bo'ladigan qat'iyatlilik va rejasini amalga oshirmaguncha to'xtamaslik odatining ilk debochasi sifatida namoyon bo'ladi va Asadbekning shu voqeadan keyin hayotining yengil bo'lmaganligi, lekin otasi uchun hamisha qalbida yomonlardan o'ch olish tuyg'usi mahkam joylashib olganligini zukko kitobxon anglab yetadi.

Tohir Malik asarning muqaddimasida *“Men asarda sizga hamroh bo'lguvchi fuqarolarning ayrimlarini avvaldan tanishtiray. Shu maqsadda bir oz ortga qaytishimizga to'g'ri keladi”* deb yozadi.

Asarda adib yozganidek, bizga hamroh bo'ladigan yana bir qahramon – Zohiddir. U yoshligida to'yi bo'lishi kutilayotgan akasining o'rtoqlari bilan birgalikda ularning ziyofatida qatnashadi va shu kuni o'z akasidan ayriladi. Eng ta'sir qiladigan joyi akasining qotillari uning birga yeb-ichib yurgan, yaxshi-yomon kunlarda hamrohlik qilayotgan o'rtoqlari edi. Zohid asosiy guvoh sifatida *“Nega, nima uchun?”* degan savollar girdobida qoladi. Qotillar sudi jarayonida haqiqat bir tarafda qolib ketib, nohaqlik va yolg'onning g'alabasini, akasining o'rtoqlarini nomardligining guvohi bo'ladi. *“To'rtta edi ular. Qora kursida esa yolg'iz jo'raboshi o'tiribdi. U aka-uka bilan mushtlashib, “bexos urib o'ldirib qo'yibdi”. Jinoyat qasddan qilinmagan. Davlat qoralovchisi ham, oqlovchisi ham shu fikrda. Marhum xotirasi ham bulg'anib tashlandi. To'rtovlon akasini urayotganda mard edi. Endi, javob berishga kelganda nomard kimsaga aylanishdi. Jon shirin ekan. Shu shirin jon uchun xoinlik qilish oson ekan, juda oson ekan...”*. Mana shu jarayondagi nohaqlik kitobxon anglab yetganidek, asar qahramonlari Zohidda huquqni himoya qilish tashkilotlarida ishlash va qachon bo'lmasin haqiqatni, faqat haqiqatni yuzaga chiqarib ishlash, shu yo'sinda akasining qotillarini ham elga tanitish istagini paydo qildi, desak yanglishmaymiz.

Biz asar qahramonlari bilan oz-moz tanishuv jarayonida ularning kelgusi hayot yo'llaridagi ayrim maqsadlarini ham anglab yetdik.

Tohir Malikning o'zi yozganidek, *“Bayon qilganim – uch voqea ularning hayotidagi alg'ov-dalg'ovning boshlanishi, xolos. Shu voqealardan so'ng ularning ahvollari ne kechdi, boshlariga yana ne savdolar tushdi? Ana endi muqaddimani yakunlab, asosiy muddaoga o'tsak bo'lar”*.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik. “Shaytanat”. Birinchi kitob. Toshkent, “Sharq”, 2019.
2. Xabar.uz. 01.05.2018-yil. Anvar Namozovning “Shaytanat” kitobi, kinosi, prototiplari va hammasi haqida” maqolasi.

FILOLOGIYA**BADIIY ADABIYOTDA EKSPRESSIVLIK TUSHUNCHASINING
ONIMLAR ORQALI NAMOYON BO‘LISHI****UO‘K 95(31)**

**Bekchanova Hilola,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
doktaranti.**

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy adabiyotda ekspressivlik tushunchasining mazmun-mohiyati, leksik va sintaktik darajadagi ifoda vositalari, hamda ularning onimlar- ya’ni antroponimlar, toponimlar va boshqa nomlash birliklari orqali ifodalanish xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etiladi.

Аннотация: В статье на научной основе анализируются содержание и сущность понятия «выразительность» в художественной литературе, средства выражения на лексическом и синтаксическом уровнях, а также особенности их выражения посредством онимов, то есть антропонимы, топонимы и другие единицы именования.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the content and essence of the concept of "expressiveness" in fiction, its means of expression at the lexical and syntactic levels, and the specifics of their expression through onyms, i.e., anthroponyms, toponyms, and other naming units.

Kalit so‘zlar: ekspressivlik, onim, antroponim, toponim, stilistika, badiiy adabiyot, emotsional ta’sir.

Ключевые слова: Выразительность, оним, антропоним, топоним, стилистика, художественная литература, эмоциональное воздействие.

Key words: Expressiveness, onym, anthroponym, toponym, stylistics, fiction, emotional impact.

Bugungi rivojlanayotgan davrda tilni nafaqat muloqot vositasi sifatida balki, fikrlarni ifodalash va ta’sir qilish maqsadida ham ishlatilib kelinmoqda. Ayniqsa, badiiy adabiyotda buning yaqqol misollarini ko’rishimiz mumkin. Vaholanki, badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri – o’quvchiga kuchli estetik va emotsional ta’sir ko’rsatishdir. Ushbu ta’sirni yuzaga keltirishda ekspressivlik muhim ro’l o’ynaydi. Ekspressivlik – bu til vositalari orqali ma’lum bir hissiy-psixologik holatni, kayfiyatni, munosabatni ifodalash xususiyatidir. Badiiy matnda ekspressivlik turli stilistik vositalar yordamida ifodalanadi. Shunday vositalardan biri sifatida onimlar – nomlash birliklari alohida e’tiborga loyiq hisoblanadi.

Badiiy adabiyotda ekspressivlik – bu matnning hissiy, obrazli va estetik ta’sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Ekspressivlikni yaratishda stilistik, leksik va sintaktik vositalar bilan bir qatorda onomastik

birliklar – ya’ni ism-shariflar, joy nomlari, hayvon va o’simlik nomlari ham asosiy ahamiyat kasb qiladi. Bu birliklar nafaqat nominativ, balki semantik va emotsional yuklama bilan ham ajralib turadi. Onimlar, odatda, real obyektlarga ishora qiluvchi denotativ birliklar hisoblanadi. Biroq badiiy matnda ular konnotativ, ya’ni emotsional va stilistik ma’no kasb etishi mumkin. Onimlar orqali:

Matn obrazli va kontekstual ma’no oladi;

Madaniy yoki milliy konnotatsiyalar hosil bo’ladi;

O’quvchida assotsiatsiyalar uyg’otiladi;

Muallifning subyektiv munosabati yuzaga chiqadi

Muloqot vositasi bo’lmish tilning kommunikativ(aloqa quroli), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktive (fikrlarni shakillantirish), akkumulyativ (saqlash) kabi asosiy vazifalarini Avrorin ta’kidlab o’tar ekan [1;44], ayni badiiy adabiyotda esa tilning ekspressivlik vazifasi birinchi planga chiqadi, garchi kommunikativ vazifasi bo’lsa ham u ikkinchi planga tushadi [2;5]. Onimlar emotsional, stilistik va madaniy-ekspressiv yuklamaga ega bo’lishi bilan birga, badiiy adabiyotda, xususan she’riy janrda ekspressivlikni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo’ladi. Onimlar – ya’ni shaxs ismlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), tarixiy va madaniy nomlar (ergonimlar) – badiiy adabiyotda nafaqat nomlash funksiyasini bajaradi, balki emotsional, stilistik va madaniy-ekspressiv yuklamaga ega bo’lgan vosita sifatida matnning badiiy-estetik qatlamini boyitadi. Ayniqsa, she’riy janrda onimlar obrazli ifodaning asosiy komponentlaridan biri bo’lib, ekspressivlikni kuchaytirishda alohida o’rin egallaydi. Shunday ekan **V.V. Vinogradov** onimlarni “ifoda kuchi kuchli bo’lgan leksik birliklar”[3;56] sifatida baholaydi. Badiiy asarlarda onimlar yordamida: obrazning xarakteri ochib beriladi; muhit va ijtimoiy muammo yoritiladi; tarixiy va madaniy kontekst yaratiladi; ekspressivlik, ya’ni his-tuyg’u va munosabat kuchaytiriladi [4;38]. Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri o’quvchida estetik hissiyotlar, emotsional ta’sir uyg’otishdir. Ushbu jarayon, avvalo, tilning ekspressiv imkoniyatlari orqali amalga oshadi. Ekspressivlik – bu badiiy matnning obrazli, hissiy va subyektiv shaklda ifodalanishidir. Quyida Erkin Vohidov qalamiga mansub she’riy parchani tahlil qilsak:

Ovora bo’ mang, ey, hassos shoirlar,

Ayol tasviriga ojiz erur she’r.

Chunki, yor zulfining bir tolasiga

Tashbeh topa olmay o’tgan Alisher.

Ushbu parchada *Alisher* shaxs ismi qo'llanilgan bo'lib, so'z san'atining ustози bo'lmish Alisher Navoiyni anglatadi va bu badiiy tasirchanlikni kuchaytirish maqsadida ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. Bu ta'sirchanlikni kuchaytirish bilan birga ayol go'zalligini ulug'lash maqsadida foydalanilgan. Bundan tashqari qofiya va ritmik ohangdorlik ham ushbu she'rni yanada jozibali qilgan. Onimning she'rdagi bu kabi ishlatilishi, musiqa va ohang bilan uyg'unligi ekspressivlikni oshiradi. O'zbek she'riyatida joy nomlari milliy ruh, tarixiy xotira, vatanparvarlik, hamda shaxsiy tuyg'uni ifodalovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Abdulla Oripovning she'rlarida shunday satrlar bor: "Samarqand – tarixim, Buxoro – yuragim, Toshkent – zamonim, Farg'ona – orzuyim." Bu toponimlar ramziy parallel orqali xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini birlashtiradi.

Cho'lpon she'rlarida "Toshkent" nomi vatan va ozodlik ramzi, "Qashqar" esa surgun va sog'inch obrazidir. Erkin Vohidov esa "O'zbekiston" she'rida toponimlarni ritmik tarzda takrorlab, Vatan manzarasini musiqiy tarzda yaratadi.

Tilning barcha qatlamlarida bo'lgani kabi, she'riy tilda ham joy nomlari (toponimlar) muhim badiiy ahamiyatga ega. She'rda toponimlar – oddiy geografik belgi emas, balki poetik obrazning markaziy qismi, milliy identitetni aks ettiruvchi vositadir. She'riyatda joy nomlari o'quvchini aniq makonga olib kiradi, poetik tasvirni konkretlashtiradi va hissiy-estetik ohang beradi.

Demak, onimlar badiiy adabiyotda, ayniqsa she'riy matnda ekspressivlikni ta'minlashda muhim stilistik vazifani bajaradi. Ular nafaqat nomlash funksiyasini, balki hissiy-ta'sirchanlik, madaniy-estetik yuklama va obraz yaratish imkoniyatlarini ham o'zida mujassam etadi. Zamonaviy adabiy jarayonda onimlarning bu funksiyasi yanada murakkab va boy ko'rinishda namoyon bo'lib, ularni tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslik uchun dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

She'riyatda onimlar ko'pincha ritmik struktura ichida takrorlanib, ekspressivlikni fonetik jihatdan ham kuchaytiradi. Onimlar – badiiy ekspressivlikni hosil qiluvchi muhim stilistik vosita sifatida qaraladi va ular orqali muallif: estetik obraz yaratadi; tarixiy yoki madaniy fon beradi; qahramon xarakterini chuqurlashtiradi; o'quvchining hissiy qabulini boshqaradi[5;45-51]. Badiiy adabiyotda ekspressivlik kitobxonga kuchli ta'sir o'tkazish, uning qalbida hayajon, hamdardlik, xayoliy tasavvurlar uyg'otish vositasidir. Onimlar esa bu jarayonda eng samarali til birliklaridan biridir. Onimlar orqali obrazlar jonlanadi, tarixiylik kuchayadi, muallifning munosabati bilvosita tarzda ifodalanadi. Shu bois, ekspressivlikni o'rganishda onimlarning stilistik funksiyalarini chuqur tadqiq etish talab etilmoqda.

Badiiy asarda ekspressivlikni yaratuvchi onimlar nafaqat g'oyani yetkazish, balki uni o'quvchiga ta'sirchan, estetik jihatdan boy shaklda yetkazishning muhim vositasi hisoblansa, she'riy janrda onimlar obraz yaratish, ritmik tuzilmani boyitish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalashda faol ishtirok etadi. Demak, onimlar nafaqat nomlash funksiyasini, balki chuqur ma'naviy-estetik yuklamani ham o'z zimmasiga oladi va bu jihati bilan badiiy matnning ta'sirchanligini keskin oshiradi. Ko'plab shoirlar toponimlardan metafora yoki ramz sifatida foydalanadilar. Masalan, "Toshkent– ko'z yoshimni ko'rgan shahar" – shaxsiy kechinma, "Farg'onada shamol singari orzular uchgan" – orzular makoni.

Nomlar she'riyatda poetik makon, milliy identitet va shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Toponimlar semantik jihatdan kengayib, ramziy va hissiy ma'no kasb etadi. Har bir shoirning geografik manzarasi aslida uning ichki dunyosining poetik xaritasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В.А.Аврорин. Проблемы изучения функциональной стороны языка. 1975 г. Стр. 44
2. Yoldashev, M. *Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari*. Toshkent, "Fan", 2007-yil, 5-b.
3. Vinogradov, V.V. *Onomastika va stilistika asoslari*, Moskva, 1982.
4. G'afurov, M. *Badiiy matnda onimlarning stilistik funksiyasi*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2020-yil.
5. Yusupova, Z. "She'riyatda ekspressivlik va stilistik vositalar". *Filologiya masalalari*, 2019-yil, №1, 45–51.
6. Vohidov, E. *Tanlangan asarlar*, 1–2 jild. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa. 2001-yil .

FILOLOGIYA**XORAZM VILOYATIDAGI BA'ZI DIALEKTAL
FRAZEMALARNING SINONIMLIK XUSUSIYATLARI****UO'K 95(31)**

**Jamalatdinova Laylo,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
doktaranti.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazemalarning sinonimlik xususiyatlari o'rganilgan. Frazema sohasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Xorazm shevalarida keng qo'llaniladigan iboralar keltirilib, ularning ma'nodoshlik xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье изучаются синонимические особенности фразем. Проанализированы исследования, проведенные в области фразеологии. Приведены идиомы, широко используемые в хорезмских говорах, и раскрыты их синонимические особенности.

Annotation: This article examines the synonymic features of phrasemes. Research conducted in the field of phrasemology has been analyzed. Idioms widely used in Khorezm dialects are presented, and their synonymic characteristics are revealed.

Kalit so'zlar: frazema, ibora, turg'un birikma, sinonim, Xorazm shevalaridagi frazemalar.

Ключевые слова: фразема, идиома, устойчивое сочетание, синоним, хорезмские фраземы.

Key words: phraseme, idiom, fixed expression, synonym, Khorezm phrasemes.

Frazeologik sinonimiya tilshunoslikning juda muhim va qiziqarli sohalaridan biri hisoblanadi. Dialektal frazemalar orasidagi sinonimlik munosabatlari turli omillar ta'sirida shakllangan: tarixiy jarayonlar, boshqa tillar bilan aloqa, ijtimoiy o'zgarishlar va mahalliy hayot tarzining o'ziga xos xususiyatlari. Xorazm dialektida frazeologik sinonimlarning boy tizimi mavjud bo'lib, ular semantik, stilistik va funksional jihatdan turlicha xususiyatlarga ega. Shu o'rinda yana bir o'zbek tilshunosi frazemalar haqida quyidagi fikrlarni ifoda etadi "Frazeologik iboralar xalqning ko'p asrlik tajribasiga tayangan holda paydo bo'lgan va shu xalqning o'ziga xos nutqiy madaniyatini aks ettiradi."¹

Xorazm viloyati shevalaridagi frazemalar o'zining boy sinonimik qatorlari bilan ajralib turadi. Bu ma'nodoshlik munosabatlar nafaqat tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, balki, milliy madaniyat va an'analarning ko'p qirraliligini ham aks ettiradi. Tilshunosligimizning yorqin namoyondalaridan biri

¹ Sh.Raxmatullayev. "Fan"(1970.-B.12).

frazemalar haqida shunday degan: “Iboralar xalqning qalbidan otilib chiqqan hikmatdir”.

Dialektal frazemalar orasidagi sinonimlik munosabatlari turli omillar ta’sirida shakllangan: tarixiy jarayonlar, boshqa tillar bilan aloqa, ijtimoiy o’zgarishlar va mahalliy hayot tarzining o’ziga xos xususiyatlari. Xorazm dialektida frazeologik sinonimlarning boy tizimi mavjud bo’lib, ular semantik, stilistik va funksional jihatdan turlicha xususiyatlarga ega. Shu o’rinda yana bir o’zbek tilshunosi frazemalar haqida quyidagi fikrlarni ifoda etadi “Frazeologik iboralar xalqning ko’p asrlik tajribasiga tayangan holda paydo bo’lgan va shu xalqning o’ziga xos nutqiy madaniyatini aks ettiradi”[3.:12].

Frazeologik sinonimlar – ma’no jihatidan yaqin yoki bir xil, lekin shakl va ifoda usuli jihatidan farqlanuvchi frazemalardir. Xorazm shevalarida uchraydigan sinonimik munosabatlar quyidagi turlarga bo’linadi:

To’liq sinonimlar – ma’no jihatidan deyarli bir xil bo’lgan frazemalar;

Qisman sinonimlar – asosiy ma’nosi bir xil, lekin qo’shimcha ma’no soylari bilan farqlanuvchi frazemalar;

Stilistik sinonimlar – ma’no bir xil, lekin turli uslubiy rangga ega bo’lgan frazemalar.

Xorazm shevalaridagi frazeologik sinonimik qatorlar quyidagicha tavsif qilinadi:

1. Og’ir mehnat qilmaydigan va hech bir ishni chin dildan bajarmaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim iboralar:

-Patini äzmidì;

-Älini ìssì suvdan so:q suva urmìjdì;

-Äl użinda ätädi.

2. Manman, boshqalarni mensimay gapiradigan odamlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim frazemalar:

-Minni asmanda (Xorazm viloyatining barcha hududlarida);
-Äsirip getgän;

-Äsmānnan gälädi.

3. O’jar, qaysar, gapga kirmaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim iboralar:

-Ähsäsi qattì;

-Ähsäsi kār bärmidi;

-Tärs jonqä.

4. Hech narsani bilmaydigan va bo'sh, anqov odamlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim iboralar:

-*Āyzì āčiq;*

-*Ā dāsā ajaqìnì, T dāsā tujaqìnì gōtārādi.*

5. Beparvo, beg'am odamlarga nisbatan qo'llaniladigan sinonim frazemalar:

-*Āyzìna čivin qonsā, pišt dāmidi;*

-*Dunjanì suv alsa, topìqìna čìqmidi;*

-*Pārvasì pālāk;*

-*Qo'yloni qumo yuvarip.*

6. Dangasa, yalqov, ishyoqmas odamlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim frazemalar:

-*Dāpsā dārpānmās;*

-*Ilištirik tejindā dām aldì.*

7. Qattiq ochlik hissini ifodalash uchun ishlatiladigan sinonim iboralar:

-*Gōzzi gōkārđì;*

-*Ičìmnān gūrlān korìndì.*

8. Sergap, ko'p gapiradigan, hamma gapga javobi tayyor, gap qaytaradigan, betgachopar odamlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim iboralar:

-*Dili beldin;*

-*Dili bir qarìč;*

-*Dili bir qulač.*

9. Juda ozg'in insonlarga nisbatan ishlatiladigan sinonim frazemalar:

-*Innā jutgan itdin.*

10. Chin dildan, astoydil degan ma'noni ifodalovchi sinonim frazemalar:

-*Žan gōjdirip,*

-*Žanìnì žabbara bārib.*

11. Ishi ko'payib ketgan, juda band bo'lgan odamga nisbatan qo'llanadigan frazemalar:

-*Qolì qolìna dejmādi;*

-*Go'ttini yer isqomodi.*

Xorazm viloyatidagi dialektal frazemalarning sinonimlik xususiyatlari til boyligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu sinonimik tizim mintaqaning tarixiy rivojlanishi, madaniy an'analari va ijtimoiy hayotining barcha jihatlarini aks ettiradi.

Xorazm dialektidagi frazeologik sinonimlarni saqlash va o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalari qatoriga kiradi. Ular nafaqat lingvistik qiymatga ega, balki madaniy meros sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda bu sinonimik qatorlarning yanada batafsil tahlili, ularning psixolingvistik xususiyatlari va nutq faoliyatidagi roli chuqurroq o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. O‘zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
2. Nurmonov A. Frazeologik sinonimiya masalalari. –Toshkent: “Fan”, 2018.
3. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning izohi. – Toshkent: “Fan”, 1970. – B.12.
4. Sayfullayeva R. Xorazm dialektining leksik xususiyatlari. – Urganch: “Xorazm”, 2021.
5. Shukurjon Norbayeva, Navbahor Sa’dullayeva, Mehriniso Atabayeva. Xorazm shevalaridagi maqol va iboralarning qisqacha izohli lug‘ati. –“Xorazm”. 2022.
6. Xodjayev A. Frazeologik semantika nazariyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017.
7. Xojiyev A. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “Fan”, 2019.

FILOLOGIYA**KOMRON MIRZO LIRIKASIDA TASHXIS SAN'ATINING O'RNINI****UO'K 95(31)**

**Qadambayeva
So'najon,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
magistranti.**

Annotatsiya: Ushbu maqola Komron Mirzo (1509-1557) lirik merosining badiiy-estetik qirralarini, xususan, unda tashxis (jonlantirish) san'atining tutgan o'rnini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan.

Аннотация: Данная статья посвящена систематическому анализу художественно-эстетических аспектов лирического наследия Комрона Мирзо (1509-1557), в частности, места, занимаемого в нем искусством диаса (возрождения).

Annotation: This article is devoted to a systematic analysis of the artistic and aesthetic aspects of the lyrical heritage of Komron Mirzo (1509-1557), in particular, the place occupied by the art of dias (revival) in it.

Kalit so'zlar: Komron Mirzo, Boburiylar, lirik meros, tashxis, personifikatsiya, badiiy san'at, o'zbek adabiyoti, g'azal, devon.

Ключевые слова: Комрон Мирзо, Бабуриёне, лирическое наследие, персонификация, художественное искусство, узбекская литература, газель, диван.

Key words: Komron Mirzo, Baburians, lyrical heritage, personification, artistic art, Uzbek literature, ghazal, divan.

Komron Mirzo Boburiylar saltanatining taniqli vakili, Bobur Mirzoning ikkinchi o'g'li bo'lishi bilan birga, XVI asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalardan hisoblanadi. Uning hayoti Hindiston, Kobul va Movarounnahr o'rtasidagi murakkab siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganidek, ijodi ham o'z davrining nafis an'analari, xususan, Alisher Navoiy maktabining kuchli ta'siri ostida shakllangan. Komron Mirzo, asosan, "Komron" taxallusi bilan yozgan g'azal va ruboiylari bilan tanilgan bo'lib, uning asarlari nafaqat tarixiy-biografik manba, balki yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan lirik namunalardir [1-B.201].

Adabiyotshunoslikda Komron Mirzoning shaxsiyati, siyosiy faoliyati qatorida uning devonining leksik-grammatik xususiyatlari va ayrim janriy jihatlari tahlil qilingan bo'lsa-da, uning she'riyatidagi badiiy san'atlarning, xususan, tashxis vositasining keng qamrovli tahliliga alohida e'tibor berilmagan. Tashxis, ya'ni jonsiz narsa va hodisalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'ati, Komron Mirzo lirik qahramonining ichki olamini, uning umidsizlik, ishq, hijron va hayrat kabi holatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi [2-B.89].

Uning ijodida tabiat unsurlari -oy, yulduz, gul, bulbul va hatto mavhum tushunchalar — dard, aql, ishq ham inson kabi gaplashuvchi, harakat qiluvchi va his qiluvchi sub'ektlarga aylanadi [3-B.315]. Ushbu maqolaning maqsadi Komron Mirzo lirikasida tashxis san'atining qo'llanilish xususiyatlarini aniqlash, uning shoirning badiiy-falsafiy konsepsiyasini shakllantirishdagi rolini ochib berishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sirasiga shoir devonida tashxis turlarini ajratish, asarlarning g'oyaviy mazmuniga ta'sirini tahlil qilish kiradi. Ushbu yondashuv Komron Mirzoning o'zbek klassik she'riyatidagi o'rnini yangicha nuqtai nazardan baholash imkonini beradi.

Komron Mirzo ijodini o'rganishda turli olimlar tomonidan muhim ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O. Sharafiddinov, H. Sulaymon, E. Rustamov kabi adabiyotshunoslar shoir hayoti va uning siyosiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritganlar. Ular Komron Mirzo she'riyatining til xususiyatlari va janriy tarkibi haqida qimmatli fikrlarni bayon etganlar. Biroq, bu tadqiqotlarda tashxis san'ati alohida, mustaqil tahlil obyekti sifatida o'rganilmagan, ko'pincha u boshqa badiiy san'atlar (metafora, majoz) doirasida, umumiy uslubiy xususiyat sifatida tilga olingan [1-B.205].

Masalan, E. Rustamov XV-XVI asr adabiyoti vakillarining badiiy mahoratiga to'xtalib, ularda "jonlantirishning turli ko'rinishlari" mavjudligini qayd etadi, ammo Komron Mirzoning tashxisga yondashuvi batafsil o'rganilmagan [4-B.7]. Shuningdek, M. Hayitmetov va N. Mallayev kabi olimlarning o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha umumiy ishlari Komron Mirzo ijodining estetik ahamiyatini belgilab bergan bo'lsa-da, tashxisning funksional yuklanishini aniqlashda hali to'liq o'rganilmagan qirralar mavjud.

Tadqiqotning asosiy manbasi Komron Mirzoning qo'lyozma va nashr qilingan devoni materiallaridan iborat bo'lib, undan 80 dan ortiq tashxis san'ati qo'llanilgan baytlar tanlab olinib, funksional guruhlariga ajratiladi.

Komron Mirzo she'riyatida tashxis san'ati nafaqat oddiy jonlantirish vazifasini o'taydi, balki shoirning falsafiy qarashlari va shaxsiy ruhiy iztiroblarini ifodalashning asosiy vositalaridan biriga aylanadi. U tashxis yordamida dard, hijron, aql kabi mavhum tushunchalarni reallashtirib, ularni lirik qahramonning munozara partnyoriga yoki uning holatini guvohlovchi shaxslarga aylantiradi.

1. Tashxisning funksional tahlili.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Komron Mirzo lirikasida tashxisning qo'llanilishiga ko'ra asosiy funksional turlari aniqlandi. Ular quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Komron Mirzo lirikasida tashxisning funksional turlari:

№	Tashxis funksiyasi	Estetik ahamiyati
1	Tabiiy hodisalarni insoniylashtirish	Lirik qahramonning ruhiy holatini tashqi olam bilan uyg'unlashtirish; his-tuyg'ularning kosmik miqyosini berish.
2	Mavhum tushunchalarni konkretlashtirish	Sub'ektiv kechinmalarni obyektivlashtirish; falsafiy fikrlarga hissiy bo'yoq berish.
3	Ramziy-afsonaviy qahramonlarni jonlantirish	An'anaviy obrazlar (bulbul, parvona) orqali lirik syujetni boyitish va g'oyaviy chuqurlikni oshirish.

Masalan, shoir bir g'azalida "Ko'rguzib yuzingni, ey yor, ko'nglum olding, bevafo" deya murojaat qilganida, insonning bevafo ekanligini ta'kidlaydi, ammo boshqa bir baytda: "G'am seni bu ko'nglum uzra qo'ydi-yu, olmish xiroj" deya, g'amni bir zolim hukmdor sifatida tasvirlaydi, bu esa mavhum tushunchani hukmronlik qiluvchi shaxs sifatida jonlantirishning yorqin namunasidir. Bu yerda tashxis lirik qahramonning o'z iztirobidagi zaifligini kuchaytiradi.

2. Komron Mirzo va zamondoshlari lirikasida tashxis.

Komron Mirzoning tashxis qo'llashdagi o'ziga xosligi uning zamondoshlari ijodi bilan solishtirganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning tashxisi ko'pincha "shikoyat" va "norozilik" ohangini aks ettirishga xizmat qiladi, bu uning murakkab hayot yo'li va siyosiy o'yinlardagi mag'lubiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Quyidagi jadvalda Komron Mirzo va Bobur lirikasidagi tashxisning ustuvor funksiyalari taqqoslanadi:

Komron Mirzo va Bobur lirikasida tashxisning ustuvor xususiyatlari taqqoslamasi:

Xususiyat	Komron Mirzo lirikasi	Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi
Asosiy funksiya	Lirik qahramonning shaxsiy iztiroblarini mavhum yoki tabiiy ob'ektlar orqali ifodalash.	Vatan sog'inchi va tabiat go'zalligini jonlantirish orqali tasvirlash, falsafiy-didaktik xulosalar chiqarish.
Hissiy yuklanish	Ko'proq hijron, umidsizlik kayfiyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.	Ko'proq hayrat, madh, tabiat bilan uyg'unlik kayfiyatini yaratishga xizmat qiladi.
Jonlantirilgan obrazlar	G'am, dard, aql, ko'ngil (mavhum tushunchalar); oy, falak (tabiiy hodisalar).	Tog', daryo, gul, o't-o'lan (konkret geografik ob'ektlar va o'simlik dunyosi).

Komron Mirzo she'riyatida tashxis san'ati nafaqat oddiy jonlantirish vazifasini o'taydi, balki shoirning falsafiy qarashlari va shaxsiy ruhiy iztiroblarini ifodalashning asosiy estetik vositalaridan biriga aylanadi. U tashxis yordamida dard, hijron, aql, ko'ngil kabi mavhum tushunchalarni reallashtirib, ularni lirik

qahramonning “suhbatdoshi”, “dushmani” yoki uning holatini sharhlovchi “shaxs” sifatida jonlantiradi. **Shoirning quyidagi bayti bunga yorqin misoldir:**

***“G‘am yetib ko‘nglum uyini vayron qilar har sahar,
O‘lturub taqdir ila har kun qilar ming bahs-u zar.”***

Bu baytda “g‘am”ning ko‘ngil uyini vayron qiluvchi faol kuch sifatida tasvirlanishi tashxisning aynan psixologik bosimni kuchaytiruvchi san’atga aylanganini ko‘rsatadi. G‘am shunchaki hissiyot emas, balki halokatli qudratga ega mavjudot sifatida ko‘rsatiladi.

Tadqiqot natijalari Komron Mirzo lirikasida tashxisning qo‘llanilish turlari aniq ekanini ko‘rsatadi. Jadvalda keltirilgan funksiyalar matnda misollar bilan ham mustahkamlanishi zarur.

1. Tabiiy hodisalarni insoniylashtirish:

Shoir tabiat unsurlariga insoniy hissiyot beradi. Masalan:

“Oy ko‘rub dardimni pinhon, bo‘ldi hamdardim menga,”

Bu baytda oy “hamdard” sifatida tasvirlanadi. Shu orqali shoirning yolg‘izligi, unga faqat osmon unsurlarigina quloq tutayotgani aks ettiriladi.

2. Mavhum tushunchalarni konkretlashtirish:

Shoirning quyidagi bayti buni tasdiqlaydi:

“Aql meni tark etdi, qoldim men jaholat changida,”

Bu yerda “aql” odam kabi “tark etuvchi”, ko‘ngilni tashlab ketuvchi mavjudot sifatida jonlantirilgan. Bu tashxis shoirning ichki iztirobini yanada dramatik qiladi.

3. Ramziy-afsonaviy obrazlarni jonlantirish:

“Bulbul etdim dard aro fig‘on, tinglamas meni gul hamon,”

Bulbulning fig‘oni insoniy hissiyot bilan jonlantirilgan, u shoirning ruhiy holatining ko‘zgusiga aylanadi.

Komron Mirzo tashxisni ko‘pincha shikoyat, iztirob va dardni kuchaytirish uchun ishlatadi. Buning real misoli:

“Falak, ne uchun ixtiyorimni sindirding bu qadar?”

Bobur lirikasida esa manzara boshqacha:

Bobur: ***“Tog‘lar ham ko‘rgaymen deb, ko‘nglumning g‘urbatini,”***

Boburda tog‘- shoirning ruhiy holatini kuzatuvchi, ammo unda norozilik emas, ko‘proq sokin falsafa bor.

Komron Mirzo lirikasida tashxis san’ati nafaqat uslubiy bezak, balki shoirning dunyoqarashi, shaxsiy dramasi va ijodiy mahoratini belgilab beruvchi markaziy badiiy vositalardan biridir. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

Komron Mirzoning devonida tashxisdan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu uni Boburiy shoirlarning boshqa vakillaridan ajratib turadi. Tashxis Komron Mirzoga o'zining badiiy uslubini individuallashtirish imkoniyatini bergan. U o'zidan oldingi va zamondosh shoirlarning tashxis an'alarini o'zlashtirgan holda, uni o'z shaxsiy his-tuyg'ularini ifodalash uchun yangi bir vositaga aylantirgan. Shu orqali u XVI asr o'zbek adabiyotida o'zining mustaqil va takrorlanmas badiiy ovozigaga ega bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov O. — Adabiy etyudlar — Toshkent: “Sharq”, 2021, 201–205-b.
2. Mallayev N. — O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob — Toshkent: “O'qituvchi”, 1976, 122–125-b.
3. Hayitmetov A. — O'zbek adabiyoti tarixi (XIV-XVI asrlar) — Toshkent: “Universitet”, 2020, 315–319-b.
4. Rustamov E. — O'zbek poeziyasida badiiy vositalar masalasi — Toshkent: “O'qituvchi”, 2018, 54–57-b.
5. Komron Mirzo — Devon (qo'lyozma asosida) — Toshkent: “Fan”, 1968, 79–81-b.
6. Sulaymon H. — Boburiylar lirikasi — Toshkent: “G'afur G'ulom” nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2023, 110–114-b.
7. Bobur Z. M. — Boburnoma — Toshkent: “Yulduzcha”, 1993, 142–145-b.
8. Zohidov V. — She'riy san'atlar lug'ati — Toshkent: “Akademnashr”, 2013, 290–292-b.

FILOLOGIYA

METAFORANING BADIY TARJIMADAGI KOGNITIV-LINGVISTIK JARAYONLARI VA MADANIYATLARARO TARJIMA USULLARI

UO‘K 811.111-26



**Norbayeva
Shukurjon,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti DSc,
prof. v.b.**



**Radjapova Intizor,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada metaforaning lug‘aviy-tarixiy kelib chiqishi, uning lingvistik va kognitiv asoslari, shuningdek, badiiy tarjimadagi o‘rni, metaforaning semantik, madaniy va funksional xususiyatlari Sh.Brontening “Jeyn Eyr” romani tarjimasi misolida tadqiq etiladi va metaforik ifodalarning badiiy tarjimadagi muammolari va ularni yechish yo‘llari dalillanadi.

Аннотация: В настоящей статье рассматриваются лексико-исторические истоки возникновения метафоры, её лингвистические и когнитивные основания, а также её место в художественном переводе. Семантические, культурные и функциональные характеристики метафоры исследуются на материале перевода романа Ш. Бронте “Джейн Эйр”. В работе обосновываются проблемы, связанные с переводом метафорических выражений в художественной литературе, и предлагаются пути их разрешения.

Annotation: The present article investigates the lexical-historical origins of metaphor, its linguistic and cognitive foundations, and its significance in literary translation. The semantic, cultural and functional features of metaphor are analyzed based on the translation of Charlotte Brontë’s novel “Jane Eyre.” Furthermore, the study substantiates the challenges associated with metaphorical expressions in literary translation and proposes approaches for addressing these issues.

Kalit so‘zlar: metafora, konseptual metafora, badiiy tarjima, madaniy kod, semantik ko‘chish, lingvopoetika, emotiv metafora.

Ключевые слова: метафора, концептуальная метафора, художественный перевод, культурный код, семантический сдвиг, лингвопоэтика, эмотивная метафора.

Key words: metaphor, conceptual metaphor, literary translation, cultural code, semantic shift, linguopoetics, emotive metaphor.

Metafora badiiy matnning eng qudratli ifodalash vositalaridan biri bo'lib, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima nazariyasida alohida o'rin tutadi [1]. Globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar kengayib borishi badiiy asarlarni tarjima qilishda metaforik ifodalarni to'g'ri tarjima qilinishining ahamiyati katta ekanligini ko'rsatmoqda. Metaforaning tarjimadagi muammolari nafaqat lingvistik, balki madaniy-kognitiv jihatdan ham murakkab bo'lib, tarjimondan yuqori malaka va estetik didni talab etadi [2]. Metaforaning lug'aviy va tarixiy ildizlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, "Metafora" atamasi qadimgi yunon tilidagi metaphora (μεταφορά) so'zidan olingan bo'lib, "ko'chirish", "bir joydan boshqa joyga o'tkazish" ma'nolarini anglatadi [3]. Bu ma'no metaforaning mohiyatini mujassamlashtiradi: u bir predmet yoki hodisaning nomini unga o'xshash boshqa predmet yoki hodisaga ko'chirish asosida yuzaga keladi. Metafora qadimdan badiiy nutqning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralgan. Aristotel metaforani "so'z yoki iborani o'ziga xos bo'lmagan kontekstga o'tkazish" deb ta'riflaydi va bu o'tkazishni to'rt asosiy yo'nalishda amalga oshirilishini ko'rsatadi: jinsdan turga, turdan jinsga, qiyos asosida va nisbiylik asosida [4]. Aristotel nazariyasida metafora tilning estetik kuchini ifodalovchi, lekin aql bilan idrok qilinadigan hodisa sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy lingvistikada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab metafora faqat badiiy adabiyotga xos vosita sifatida emas, balki kundalik tilda keng qo'llaniladigan universal nutq hodisasi sifatida o'rganila boshlandi [5]. J.Lakoff va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi bu borada yangi bosqich bo'ldi; metafora inson tafakkurining asosiy tuzilmasi bo'lib, u orqali insonlar abstrakt tushunchalarni konkret tajribalar asosida anglaydilar [6]. Masalan, Time is money (vaqt bu – pul) iboralar kundalik tilimizda ko'p uchraydi, ammo ularning mohiyati bizning konseptual tafakkurimizda chuqur ildiz otgan. Olimlar "Metafora kundalik hayotimizda keng tarqalgan bo'lib, u faqat tilda emas, balki tafakkur va harakatda ham mavjud" [7].deya ta'kidlaydilar. Tilshunoslarning bu izohi metaforani chuqurroq anglashga undaydi. Ular metaforani estetik bezak yoki stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining kognitiv asosi sifatida talqin qiladi [8]. Bu yondashuv tarjima jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjimon faqat so'zma-so'z emas, balki konseptual darajadagi metaforik tuzilmalarni ham anglab, ularni tarjima tilida to'g'ri aks ettira olishi zarur [9].

Lingvistikada metafora kognitiv jarayon sifatida qoraladi. Bu yondashuvda metafora shunchaki so'z o'yinlari emas, balki murakkab tushunchalarni strukturaviy tartibga solish vositasi sifatida talqin etiladi [10]. Konseptual metaforalar orqali inson ongida "manba soha" va "maqsad soha" o'rtasida semantik aloqa o'rnatiladi [11]. Metafora tilshunoslikda ko'p hollarda stilistik

vosita sifatida qaraladi [12]. U quyidagi lingvistik kodlarga ega: semantik ko‘chish asosida quriladi, sintaktik strukturada o‘xshatish yoki personifikatsiya bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va diskursiv funksiyaga ega bo‘lib, gapda emotsional holat, baho, muallif pozitsiyasini bildiradi [13]. Masalan, “hayot yo‘li toshli” iborasi orqali murakkablik, qiyinchilik, sinovlar semantik jihatdan anglashiladi. Metafora nafaqat tilga, balki madaniyatga ham bevosita bog‘liq. Har bir millatning dunyoni idrok etish shakli, urf-odatlar, diniy yoki falsafiy qadriyatlari metaforalarda o‘z aksini topadi [14]. Milliy-madaniy obrazlar, masalan, o‘zbek tilida “bag‘ri keng” kabi metaforalar mehmondo‘stlik va saxiylilik obrazlari bilan bog‘liq [15].

Metaforaning tarjimadagi muammolari; metafora matndagi kommunikativ yoki ekspressiv vazifasini saqlab qolishi mumkin. Bu, asosan, kitobxonda muayyan taassurot uyg‘otish, obrazlilik yaratish yoki estetik ta’sirga erishishga qaratilgan bo‘ladi [18]. Tarjimada metaforaning ikki muhim elementi o‘zgarishga uchrashi mumkin: leksik shakl - asl metafora tarkibidagi so‘zlar tarjima tilida boshqa leksik birliklar bilan almashtirilishi mumkin, ayniqsa, asliyat tilidagi metaforik birliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, tushunarsiz bo‘lib qolishi e’tiborga loyiq muommoni keltirib chiqaradi. [19].

Madaniy konnotatsiyasi: har bir metafora o‘z madaniy muhitiga xos bo‘lgan assotsiatsiyalarni o‘zida mujassam etadi. Agar bu konnotatsiyalarning maqsadi til madaniyatiga begona bo‘lsa, ular o‘zgartiriladi yoki kontekstga mos ekvivalentlar bilan almashtiriladi [20].

Tarjima nazariyasida metaforalarni tarjima qilishning turli usullari mavjud. P.Nyumark metaforalarni tarjima qilishning yetti usulini taklif etadi: metaforani metafora bilan tarjima qilish, metaforani o‘xshatishga aylantirish, metaforani o‘z ma’nosida tarjima qilish va boshqalar [21]. Y.Nayda esa ekvivalentlik nazariyasi asosida dinamik ekvivalentlikni ta’kidlab, tarjimada maqsad til kitobxonga asl matn kitobxoni olgan ta’sir bilan bir xil ta’sir ko‘rsatish zarurligini alohida ta’kidlaydi [22].

Sh.Brontening “Jeyn Eyr” romanining Sh.Ahrorova tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan matni tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimon ayrim metaforik ifodalarni muvaffaqiyatli tarzda, ya’ni ularning badiiy va semantik yukini saqlagan holda, o‘zbek tilida qayta yaratishga erishgan. Bu kabi hollarda tarjimon asarning poetikasini va badiiy tuzilmasini saqlab qolgan. Biroq boshqa ko‘plab holatlarda, ayniqsa, kuchli emotsional, yoki psixologik yuklamaga ega bo‘lgan metaforalar tarjimada soddalashtirilgan, badiiy ifodaviylik darajasi pasaygan, yoki mazmuni butunlay o‘zgargan. Asliy matndagi dramatik va ekspressiv kuchni

to'la ifoda eta olmagan va asarda mavjud bo'lgan psixologik konfliktlarni yetarli darajada ochib bera olmagan. Metafora orqali muallif o'z qahramonining ichki kechinmalarini, ruhiy holatini, fikriy o'zgarishlarini va ma'naviy o'sishini obrazli shaklda ifodalaydi. Bunday badiiy vositalarning tarjimada aks etishi asarning semantik chuqurligi va emotsional dinamikasini kamaytiradi, kitobxonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan estetik hissiyatni susaytiradi.

Tarjimada ko'rinib turgan muammolardan biri shuki, ba'zi metaforalar leksik darajada tarjima qilingan, ammo ularning madaniy va emotiv yuki yo'qolgan.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, badiiy tarjima jarayonida metaforani aniq va badiiy jihatdan to'laqonli ifodalash tarjimonning lingvopoetik salohiyati va estetik didiga bog'liq. Tarjimonning maqsadi, nafaqat lug'aviy yoki grammatik jihatdan to'g'ri tarjima qilish, balki muallifning estetik niyatini ham yetkazishdir. Ayniqsa, metafora kabi poetik vositalarda bu mas'uliyat yanada ortadi. Psixologik va emotiv metaforalarni o'zbek tiliga sodiq va badiiy tarzda tarjima qilish nafaqat matnning semantik tarkibini, balki uning ruhini, emotsional kuchini va estetik ta'sirini ham saqlab qolishga xizmat qiladi. Shunday ekan, tarjimada metaforik ifodalarning chuqur tahlili va kontekstga mos ekvivalentlar orqali qayta yaratilishi tarjima sifatining asosiy mezonlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. - Toshkent: "O'qituvchi", 1996. 34-45-b.
2. Yo'ldoshev B. Badiiy asarlarda metaforaning pragmatik funksiyasi // Tilshunoslik masalalari. - 2015. - № 2. 67-73-b.
3. Oxford English Dictionary. "Metaphor" entry. -- 2020. Retrieved from oed.com
4. Aristotel. Poetika / Tarjima va sharh: M. Qosimov. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 1997. - 87-b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. -156-178-b.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980. - P. 3.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980. - P. 5-6.
8. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). - Oxford: Oxford University Press, 2010. - P. 5-12.
9. Yunusova M. Konseptual metaforaning madaniyatlararo tarjimadagi muammolari // Xorijiy tillar. - 2020. - № 4. 112-120-b.

10. Rafiqova D. Metaforaning lingvomadaniy xususiyatlari // Til va adabiyot ta'limi. - 2017. - № 5. 28-34-b.
11. Lakoff G., Turner M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. - Chicago: University of Chicago Press, 1989. - P. 63.
12. Qodiriy A. Badiiy tarjima nazariyasi asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. - 2019. - № 3. 45-52-b.
13. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 178-b.
14. Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. -- Amsterdam: John Benjamins, 1988. - P. 56.
15. Rafiqova D. Metaforaning lingvomadaniy xususiyatlari // Til va adabiyot ta'limi. - 2017. № 5. – 30-b.
16. Newmark P. A Textbook of Translation. - New York: Prentice Hall, 1988. - P. 104.
17. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. - London: Routledge, 1995. - P. 34.
18. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. - London: Routledge, 1995. - P. 67.
19. Newmark P. A Textbook of Translation. -- New York: Prentice Hall, 1988. - P. 104-113.
20. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. - Leiden: E.J. Brill, 1969. - P. 24.

FILOLOGIYA**SAYYID ASAD TO‘RA MAHORATI****UO‘K 811.111-26**

Sohiba Umarova,
Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitida muayyan o‘rin tutgan shahzoda shoir Sayyid Asad to‘ra Otajon to‘ra o‘g‘lining hayoti va ijodiy faoliyati yoritiladi. Shoir 1873-yilda Xivada tug‘ilgan bo‘lib, Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilari tarjimai hollari” tazkirasida uning tashqi qiyofasi, fe‘l-atvori, hamda she‘riyatga kirib kelishi haqida ma‘lumotlar keltiriladi.

Аннотация: В этой статье рассматривается жизнь и творчество князя-поэта Сайида Асада Тора Отаджона Тора оглу, занимавшего особое место в литературной среде Хорезма. Поэт родился в Хиве в 1873 году, и мемуары Лаффаси «Биографии хивинских поэтов и писателей» содержат информацию о его внешности, характере и начале поэтической карьеры.

Annotation: In this article covers the life and creative work of the prince poet Sayyid Asad Tora Otajon Tora oglu, who held a special place in the literary environment of Khorezm. The poet was born in Khiva in 1873, and Laffasi's memoir "Biographies of Khiva Poets and Writers" provides information about his appearance, character, and his entry into poetry.

Kalit so‘zlar: Sayyidlar, Asad to‘ra, devon, tazkiralar, shahzoda shoir.

Ключевые слова: Сайиды, Асад Тора, Диван, Тазкирас, Принц поэт.

Key words: Sayyids, Asad Torah, Divan, Tazkiras, Prince poet.

Hasanmurod Laffasiy shahzoda Asad to‘ra haqida yozadi: “Sayyid Asad to‘ra ilm tahsilini otasikim, Otajon to‘ra Gandimkon qishlog‘ida bino qildurgan madrasa mudarrisi Olloyor oxundin tahsili ilm qilib, anjakli iqtidorli bo‘lgach, ul dag‘i she‘rga havasmand bo‘lganidek, Feruzga qo‘shimcha ancha g‘azallar yozib, o‘z shikasta holin bayon etib, turadur” [Laffasiy: 27a].

Bobojon Tarroh – Xodim “Sayyid Asad to‘ra eski maktabni to‘liq bitkargan. Lokin madrasa ta‘limotini o‘zining bobosi Xo‘ja qozidan o‘qug‘on bo‘lsa ham to‘luq o‘qumag‘on. Forsiydan ham o‘rtacha, shoirliqi ham o‘rtacha bo‘lg‘on” [Bobojon Tarroh:59.], degan ma‘lumotlarni beradi. Bizningcha, bu o‘rinda Laffasiyning ma‘lumoti to‘g‘ri. Chunki, Asad devonida uning madrasada

tahsil olganiga ishora qiluvchi 7 baytdan iborat quyidagi mazmunda gʻazal keltirilgan:

Ey koʻngul, jon ila dars ilmiga jahd et borho,
 Hosil oʻlsun toki maqsuding ikki olam aro.
 Madrasa ichra boʻlub ixlosu sidq ila mudom,
 Tolib oʻlgʻil saʼy ila sohib boʻlursan to ango...
 Pok qalbingni tutub asrori Haqdin voqif oʻl,
 Xobi gʻaflatdin oʻzing bedor qil subhu maso.
 Bu hadisi bo sharofatgʻa amal qil, ey Asad,
 “Utlubul ilma” dedilar podshohi anbiyo¹. [1141:13-gʻazal]

Gʻazalda shoir Paygʻambarimizning “Beshikdan qabrgacha ilm izla” hadisiga amal qilishni oʻziga xitob qilishi ham uning madrasa tahsilini olgan shahzoda ekaniga va sheʼrlarida iqtibos sanʼatidan foydalanganiga ishora qiladi.

Sayyid Gʻoziy va Sayyid Asad toʻralar aka-uka boʻlishgan. Sayyid Gʻoziy toʻra va Sayyid Asad toʻra Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniyning inisi Sayyid Ahmad Otajon toʻraning oʻgʻillari edi. Bayoniy 1321-yil (1903-1904) voqealari orasida “Ushbu yil Otajon toʻra baqo olamigʻa yuz qoʻyub, ondin Muhammadamin toʻra va Sayyid Gʻoziy toʻra va Sayyid Asad toʻra otligʻ uch oʻgʻul yodgor qoldi. Faqir oning tarixi vafotin baʼzi holatigʻa mushtamil etib, bu tariqada aytib erdimkim...”².

Asad mahoratining muhim jihatlaridan biri, uning sheʼrlarida talmeh sanʼati foydalangan holda, muayyan voqeaga, yoki ajdodlar asarlariga murojaat qilish holatlari koʻp uchraydi. Masalan:

Iyd ayyomida chun kim nozil oʻldi qorlar,
 Xilʼati kofur kiydilar daru devorlar.
 Rahm qildi Haq bori maxluqgʻa lutf aylabon,
 Hullu kiydilar tamomi bogʻ aro ashjorlar.
 Qish kunida iydingiz boʻlsun muborak deb yozib,
 Feshgʻa³ oʻtlar yoqib majlis tuzarlar yorlar
 Fasli savr ichra ochilgʻon toza guldin xoʻbdur,

¹ Paygʻambarimiz s.a.v.ning “Beshikdan qabrgacha ilm izlang” hadisiga ishora qilmoqda.

² Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. – T.: “Kamalak”, 1991.– B. 252.

³ Fesh – pesh – pechka maʼnosida.

Debdururlar avliyolar qish kunida norlar¹...

Chertadur talqin etib mutrib ahli bazm aro,

Zeri bom aylab tuzib dutor ila setorlar.

Ey Asad, Xorazm xalqi ayshig'a nedur sabab,

Shohi odildur vaziri barcha neku korlar. [1121:90-g'azal]

Bu g'azalda bitta voqea bitta mashhur shaxsning asariga ishora aks etadi. Avvalo, shaxsning asariga bo'lgan talmehni ko'rsak. "Bahorda ochilgan guldan qishda peshga o'tin yoqib suhbat tuzgan afzal, degan ushbu misralarida Pahlavon Mahmudning mashhur to'rtligiga va u bilan bog'liq voqeaga ishora qiladi. Mana o'sha ruboiy:

Otash bazimiston zi guli savri beh.

Yak parchai namad zi atlas Rumiy beh.

Bishnav suxani Mahmud Puryorvaliy,

Az odami bexayr zani lo'li beh.

O't o'rnini qishda bosmagay gul nafasi,

Bir parcha kigizga yetmagay Rum atlas.

Tingla so'zini Mahmudi Puryorvalining:

Bexayr kishi lo'li xotinha emas-ey!

Fasli savr, ya'ni aprel oyida ochilgan toza guldan ham qishda yoqilgan gulxan afzalligini avliyolar aytgan, degan ibora bilan Asad Pahlavon Mahmudga ishora qilgan. G'azaldagi voqea esa, iyd, ya'ni bayram kunlari qor yog'ish hodisasidir. Bu qanday, bayram ekan, balki yangi yil arafasidir, degan fikr xayoldan o'tadi. Biroq bu savolga undan oldin kelgan 89-g'azal javob beradi:

Keldi chun lutfi ilohiy birla sultoni shuhur,

Fasli mezon ichra bu yil aylabon mohin zuhur.

Vah ne xushdur har saharlik birla iftori oning,

Yetkurur islom eliga har nafas fayzu surur.

Kecha kunduz bu muborak oyda Haq lutfidin

Sochilur soyim boshig'a har nafas nur uzra nur.

Kechalar ahli tarab bazmi bo'lub jannat misol,

Ham parirolar bu jannat ichra g'ilmonu qusur.

Kunduzi soyim bo'lub, ham kecha qoyiy zuhd eli,

Voiz ahli soyim elga va'da aylab necha hur.

¹ Bu joyda Pahlavon Mahmudning mashhur baytiga ishora bor: Otash bazimiston zi guli savri beh. Savr oyidagi guldan qishda yoqilgan gulxan qish otashidan afzal. Demak, Asad mazkur baytdan xabardor bo'lgan.

Ahli shahru, ahli sahro, ahli davron, balki dahr,

Ko'ngliga fayzi ilohiy, ey Asad, topti huzur.

Ey Asad, Haqq'a ibodat aylagil, shahg'a duo,

Gah eshit sozi ko'nguldin zangi g'amni ayla dur. [1121:90-g'azal]

Ushbu g'azal ma'lumotiga ko'ra qaysidir yili hijriy qamariy oylarning sultoni bo'lmish Ramazon oyi hijriy shamsiy Mezon oyida kirib kelgan. Biz bilamiz, mezon bu sentyabr va oktyabr oylariga to'g'ri keladi. Bizningcha, keyingi 90-g'azaldagi iyd kunida yog'gan qor, bu ramazon hayiti kunlari yog'gan qor bo'lib, oktyabr oxirlari, yoki noyabr boshlarida Xorazmda qor yog'ganiga ishora qilingan. Maqta'da, boshqa shoirlardan farqli o'laroq, Asad ikki marotaba taxallusni qo'llagani ham uning o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Agar bu qor Qurbon hayiti kuni, ya'ni Ramazon hayitidan 70 kundan keyin (mana shu hisob bo'yicha aynan qishning o'rtalariga to'g'ri keladi) desak, unda shoir bu holatni 98-g'azalida aytib ketgan bo'lardi:

Keldi mening kulbamga, ey jonon, qurbon iyddur,

Ey bori husn ahlig'a sulton, qurbon iyddur.

Xushdurur majlis tuzub o'ltursa bu kecha agar,

Ko'rguzung tashrif hama yoron, qurbon iyddur.

Otash ermish savri guldin xo'broq bu fasl aro,

Xodimo, ziynat ber, otashdon qurbon iyddur

Kelturunglar majlis ichra toki fayz o'lsun fuzun,

Mutribi xush lahja, xush ilhon, qurbon iyddur.

Bulbuli dil topdi husnining gulini bog' aro,

Qilmang emdi jonu dil afg'on, qurbon iyddur.

Vasl ila obod et, gulshandur emdi bu kecha,

Xonayi dil bo'lmag'il vayron, qurbon iyddur.

Ey Asad, sultoni odilg'a hamisha qulluq et,

Ham duoi xayrini bepoyon qurbon iyddur. [1121:98]

Anglashiladiki, bu Qurbon hayiti ham qish faslida bo'lgan, buni g'azalning 3-baytidan bilsa bo'ladi. Mazkur baytda yuqoridagi Pahlavon Mahmud ruboiysiga ham ishora qilingan. Lekin g'azalning hech bir joyida qor haqida gap ketmagan. Demak, yuqorida hayitda yog'gan qor, bu ramazondagi qor hisoblanadi. Talmeh san'atidan unumli foydalangan shahzoda shoir mahorat bilan ham ajdodlar asariga, ham davrining muhim voqealariga bog'lab shunday mazmundor asarlar yozgan. Yana bir g'azalga to'xtalsak:

Bahor, ey do'stlarkim, baski jismi ruhparvardur,
 Havosi xushliqida sard, bu bir fasli athardur.
 Jahon bog'i aro Xalloqi yakto san'ati birla,
 Hama ashjorning kiymish libosi borchaxzardur.
 Daraxtini ko'rarsiz barglar avroq qadridin,
 Aning vohidliqig'a har biri bir o'zga daftardur.
 Ilohiy Vohido, qil davlatu umrin fuzun oning,
 Shahi odilni adli nuridin olam munavvardur.
 Sikandardek jahon fathini qilsa tong emas, nedin,
 Madadkori Xudo lutfi bila ruhi Payg'ambardur.
 Mubaddal shodliqig'a, ey kishi g'ammi qilur bo'lsang,
 Tavof et dargahin gar chand dil andak mukaddardur.
 Asad ixfovu izhor et duoi xayrini doim,
 Shahingni istionat berguvchisi ruhi Haydardur. [1121:102]

Bu g'azalda shoir bahor faslini tarannum etgan. Undagi talmeh san'atiga oid baytlar 3, 5 va 7 baytlardir.

3-baytdagi mazmun Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asariga ishoradir. Ya'ni hazrat Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida Sa'diyning bir bayti xususida shunday rivoyat keltiriladi. Navoiyda o'qiymiz: 716. Shayx Mushrifuddin Muslih b. Abdulloh Sa'diy Sheroziy q. s. So'fiyaning afozilidin ermish... Mashoyixdin biri alarg'a munkir ermish. Bir kecha voqeada andoq ko'rdiki, osmonning eshiklari ochildi va maloika nur tabaqlari bila nozil bo'ldilar. Ul so'rdikim, bu ne nurdur? Dedilarki, Sa'diy Sheroziy uchundurki, bir bayt aytibdur va ul bayt Haq s. t. hazratida qabul tushubdur va ul bayt budurki,

Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor,
 Har varaqe daftarest ma'rifati Kirdigor

"Hushyor kishi nazarida yashil daraxtlarning har bir yaprog'i Yaratuvchi ma'rifatining bir daftaridir".

Ul aziz chun ul voqeadin uyg'ondi. Hamul aqshom shayxning zoviyasi eshigiga bordikim, anga mujda yetkurgoy. Ko'rdiki, chirog'e yoqibdur va zamzama qiladur. Chun quloq soldi, ushbu bayt erdiki, o'qur erdi.

(Ya'ni): Mashoyixlardan birining uning so'fiyligiga, tariqatdagi maqomi borligini inkor qilar edi. Bir kecha tushida ko'radiki, osmonning eshiklari ochilib, farishtalar nurli tavoqlarda yerga tusha boshlashdi. Shayx ulardan so'radi: Bu qanday nurdur? Farishtalar dedi: Sa'diy Sheroziy bir bayt aytgandir, mazkur bayt

Haq taolo huzurida maqbul bo‘lib, Yaratgan ushbu tavoqlarni uning uchun nozil qildi, deb javob beradilar. U bayt ushbudir:

Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor,
Har varaqash daftarest ma’rifati kirdigor.

“Hushyor kishi nazarida yashil daraxtlarning har bir yaprog‘i Yaratuvchi ma’rifatining bir daftaridir”.

Ul aziz shayx tushidan keyin darhol uyqudan uyg‘ondi va shu kechaning o‘zida Shayx (Sa’diy)ning xonaqohi tomonga borib, shu xushhabarni yetkazishga shoshadi. Borib qarasa chiroq yoniq va ichkarida shoir nimanidir xirgoyi qilardi. Quloq tutsa, ayni ushbu baytni o‘qiyotgan edilar.

5-baytda esa Muhammad Rahimxonni Iskandardek fotih ekanini aytib, bunga sabab unga Yaratganning lutfi va Payg‘ambar lutfi ekanini uning ismiga ishora qilib ham keltiradi. Zero, Muhammad Rahimxon (soniy) ismida ham Xudo, ham Payg‘ambarining nomi mujassamdir.

7- bayt, ya’ni maqta’da Asad yozadi:

Asad ixfovni izhor et duoi xayrini doim,
Shahingni istionat berguvchisi ruhi Haydardur.

Ey Asad, shohingni duoi xayrini ochiqcha va yashirin doimo izhor etgil, shohingga ruhiy yordam beruvchi Haydar ruhidir, deydi. Bu yerda shoir Haydar, ya’ni Hazrat Ali, Asadullohga ishora qilish bilan birga, uning yonida men ham turibman, zero men ham Asadman, degan chiroyli o‘xshatishni keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devoni Asad. O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 1121.
2. Laffasiy. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari. O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 9494.
3. Bobojon Tarroh - Xodim. Xorazm shoir va navozandalari. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2011. – B.59.
4. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. – T.: “Kamalak”, 1991.– B. 252.

FILOLOGIYA**OMON MATJON ASARLARIDA AN'ANA VA BADIY MAHORAT**

**NAZAROVA
NAFISA,
UrDU magistiranti**

UO'K 813.70

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir va adib Omon Matjonning ijodida an'ana va badiiy mahorat xususiyatlari qisman nazariy jihatdan ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье частично теоретически раскрываются особенности традиции и художественного мастерства в творчестве поэта и писателя Амона Матждона.

Annotation: This article partially theoretically reveals the features of tradition and artistic skill in the work of the poet and writer Amon Matjon.

Kalit so'zlar: mifologik obraz, shaxs, tarixiy obraz, an'ana, doston, timsol.

Ключевые слова: мифологический персонаж, человек, историческая личность, традиция, эпос, символ.

Key words: mythological figure, person, historical figure, tradition, epic, symbol.

Azaldan ma'lumki, xalq dilidagi so'zlarni, hamda aynan shu insonlarning hayotida ro'y berayotgan voqea hodisalarni mahorat bilan qog'ozga tushurishda yozuvchilar va shoirlarning o'ri beqiyosdir. Jumladan ,o'zbek adabiyotining istedodli yozuvchi shoiri Xorazm farzandi Omon Matjonni aytish mumkin.

Omon Matjonning dostonlarida turli afsonadan foydalanib, asar mustaqil kichik-kichik qismlarga, syujet yo'nalishlariga solingan. Misol tariqasida "Haqqush qichqirigi" asarini aytishimiz, mumkin, aynan shuning uchun ham shoir bu asarini "Qirq afsona" deb ham ataydi. Ma'lumki, afsona xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo'lib, epik bayon shaklida yaratiladi. Ularda yurt mustaqilligi, ozodligi, erki uchun kurashgan xalq qahramonlarining jasorati haqida hikoya qilinadi. Bugungi dostonchilik sahifalariga nazar tashlansa, shoirlar afsonaga tez-tez murojaat etayotganliklarini kuzatish mumkin. Buning sabablari nimada? Avvalo, ijtimoiy voqelik shunday ma'naviy ehtiyojni vujudga keltirdi. Qolaversa, sobiq tuzum davrida poetik fikrni oshkora aytish imkoniyati bo'lmagan. Ijodkorlar esa xalqning dilidagi ijtimoiy dardlarni, ularning tuyg'u-kechinmalarini o'z asarlarida aks ettirishlari kerak edi. Mana shunday sharoitda afsona ularga ko'makka keldi. Shoirlar xalqimiz qalbida yashirinib yotgan dardlarni shu yo'l bilan ifoda etdilar. Muallif shaxsiyatining doston asosida mustahkam o'rinishi janrning barcha tizimlarini, jumladan, uning qurilish

xarakterini ham belgilaydi. Muallif shaxsiyatning asar markazini tashkil etishi esa lirikaning asosiy belgisi ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Omon Matjon faqat yozuvchi bo‘lib qolmasdan, shoir sifatida ham juda yuksak mahorat bilan ijod qilgan. Aynan shuning uchun ham uning asarlarida lirikaning nafasi ham yaqqol sezilib turadi. Lirika unsurlar yozuvchi qalamiga mansub epik parchalar va dialog ko‘rinishida dramatik manzaralar bilan yaxlit bir butunlikda zamonaviy dostonlarning murakkab gavdalanishida beqiyosdir.

Omon Matjon poemalarida lirizm va epizm mutanosibligi Erkin Vohidov dostonlaridan ancha farq qiladi. Bu farq epik hodisalarga lirik nazar bilan qarashda namoyon bo‘ladi. Uning *"Gaplashadigan vaqtlar"*, *"Cho‘ldagilar"*, *"Nega men?"* poemalarida shu holatni kuzatish mumkin. Omon Matjon badiiy mahoratning yuqori pog‘onalarga ko‘tarilayotgan va g‘oyaviy- badiiy kashfiyotlar yaratish uchun izlanishda bo‘lgan ijodkorlardan biri edi.

Omon Matjon badiiy mahorati yuqori pog‘onalariga yetgan va g‘oyaviy- badiiy kashfiyotlar yaratish uchun muntazam izlanishda bo‘lgan ijodkorlar sirasiga kiradi. Shoirning qalamiga mansub kitoblari uslubiy izlanishlardagi, boshqacha aytganda, adabiyotimizdagi muhim badiiy kashfiyotlar sirasiga kiradi. Bu asarlar badiiy mahoratning cheksiz imkoniyatlarini kashf etish yo‘lidagi rad etish mumkin bo‘lmagan yaqqol misol desak mubolag'a bo‘lmaydi. Shoirning adabiy asarlarida insonlar kurashchanlik ruhidan mahrum bo‘lsa, bu nafaqat uning, balki butun insoniyatning fojiasi degan xulosani ilgari suradi.

Shu ma'noda Omon Matjon ijodiga shunday bir nazar tashlasak, uning lirik qahramoni muloyim, samimiy, ammo inson sha'niga, uning hayotiga, yurt shuhratiga ziyon yetkazadigan har qanday hodisaga yoki narsaga nihoyatda beshafqat qiyofada tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Uning asarlaridagi qahramonlar yaxshilikdan quvona oladi, go‘zallikdan zavqlanadi, odamlarga faqat ezgulik istaydi. Ammo hayotning nursiz tomonlariga sirayam chiday olmaydi. Ana shunday paytda uning qalb navolariga ko‘proq mung oralab qoladi. Hayot uning ko‘ziga quvonch koshonasi emas, balki g‘amxonaday ko‘rinadi. Bundan ozor chekkan lirik qahramon g‘azab va nafratini ona xalq qaddini bevaqt bukib, sochiga qor bo‘lib yog‘ayotgan adolatsizliklarga beayov sochadi. Adolat, poklik yo‘lini to‘sayotgan har qanday kuchning yo‘lida mustahkam to‘g‘onga aylanadi. Ular bilan hech qachon murosa qilolmasligini ochiq aytadi. Shoir lirik she‘rlar bilan birga lirik qissa va dramatik doston janrlarida ham ijod qilib, Xorazm xalq afsonalarining o‘ziga xos badiiy talqini mujassamlantirgan “Haqqush qichqirig‘i” she‘rlar kitobini, istiqlol arafasidagi sho‘rolar mamlakati hayotining ziddiyatli manzaralari va jarohatlari tasviriga bag‘ishlangan

“Gaplashadigan vaqtlar” qissasini, shuningdek, o‘zbek xalqining Xorazmdan chiqqan buyuk siymolari haqidagi “Pahlavon Mahmud”, dramatik dostonlarini yaratgan.

Ko‘rinib turibdiki, Omon Matjon ijodida tarixga murojaat qilish ustuvorlik qiladi. Bu haqida uni ijodini o‘rgangan adabiyotshunos olimi: “Shoir asarlarida tarixga suyanish barobarida uchta muhim g‘oyaviy maqsadni ko‘zlaydi. Bularning birinchisi - millat, vatan tarixga murojaat va zamondoshiga tengsiz ma'naviy xazinalarni bunyod etib ketgan ajdodlarini tanitish; ikkinchisi ,ular qonida bobo- momolari qoldirgan bebaho me'ros-an'analar ruhini uyg‘otish; uchinchisi - kelajakka ana shu ma'naviy xazinalardan qolgan durdonalarni avaylab yetkazishga da'vatdan iboratdir. Bularga shoir ishonchli umumlashmalar yaratish, lirik qahramon ruhiy dunyosida kechayotgan jarayonlarning milliy rangdorligini yanada yorqinroq tasvirlash orqali musharraf bo‘ladi. Uning lirik qahramoni zamon va kelajak haqidagi fikrlarini aksar holatlarda tarixga suyanmasdan aytishga shoshilmaydi. Chunki u har bir xalq unib, o‘sgan milliy zaminidan vaqtincha uzilsa-da, abadul-abad uzilib ketmasligini juda yaxshi tushunadi. Milliy ruh, milliy tuyg‘uning hech qachon izsiz yo‘qolmaslik fazilatini e'zozlaydi. Shuning uchun ham Omon Matjonning tarixga tayangan qanday asari bo‘lmasin, uni har bir inson aql va tuyg‘usiga uyg‘unlashib ketadigan rang va ohanglari doimo o‘zining ustuvorligini ko‘rsatib turadi”¹, - deya ta’rif beradi. Bu fikrlar naqadar to‘g‘ri ekanligini uni ijodi bilan yaqinda tanishganimizda shohidi bo‘lamiz.

Xususan, “Nega men?!” dostoni shunday asarlar sirasiga kiradi. Dostonda turg‘unlik yillari davri haqida so‘z yuritgan shoir, yurakdan chiqayotgan so‘zlarini rangin satrlarda ifodalaydi:

Yetmish yil el yashab qur'on, tavrotsiz,
Erlar nochor qoldi, ayol avratsiz,
Zamon duradgori, asbob-yaroqsiz,
Ilma-teshik tomni yamashga tushdi .

Ko‘rinib turibdiki, dostonda lirik qahramon o‘z hayot yo‘liga sinchiklab nazar solar ekan, ko‘zlari mushkul bir holatni ko‘rib lol qoladi? O‘zini aldanganini, tanlagan yo‘li “ayqashu uyqash” ekanligini anglaydi. Shu sababli el qur'onni yetmish yil yashab o‘qimagani, zamon zayli tufayli faqat foniyl dunyo g‘amiga tushib, o‘z hayot tashvishlari bilan bo‘lib qolganlarini, shoir iztirob bilan qalamga oladi.

¹J.Jumaboeva. XX asr uzbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati.-T.: Fan, 2004.-B.178

Barchamizga yaxshi ma'lumki, XX asrda bir necha marta yurtning sara o'g'lonlari, ziyolilari nohaq zarbalarga duch kelishdi. Ayniqsa 1937-yil, 1950-yillarda xalqimizni sevimli shoiru-yozuvchilariga tuhmat toshlari otilib, ularni vatan xoinligida ayblab qatl qildirib, surgun qilishlari, 1980-yillar "o'zbeklar ishi" tufayli ko'pgina xalqimizni aziz farzandlari jabr ko'rganligini, shoir alam hasratlar ila aytar ekan, bunga asosiy sabab, ba'zi kimsalarni Allohdan qo'rqmagani, chunki Qur'onni o'qimagan tufayli iymon-e'tiqodsiz bo'lganliklarida deb o'ylaydi:

Qor qora yog'moqda, yomg'ir za'faron,
Daryolar o'rnida oqmoqda armon,
Har podsho o'zicha chiqarib farmon,
Qolganlar bir-birin bulg'ashga tushdi.

Yuqoridagi satrlardan ko'rinib turibdiki, shoir bu hodisalarni tasvirlashda o'ziga xos yo'ldan boradi. Ya'nikim tabiat mavzusining badiiy talqin ma'nolari orqali poetik obrazlar zimmasiga yuklanayotgan mazmun teranligini ko'rishimiz mumkin. Aslida qor oppoq, yomg'ir esa mayin beg'ubor yog'ishi, daryo esa mavj urib oqishi kerak va ularni harakati yer yuzini yashnatishi, ko'kartirishi lozim. Lekin shoir "qora qor", "za'faron yomg'ir" so'zlarini qo'llash bilan, ular timsolida xalqimiz boshiga tushgan ko'rguliklarni, ularni azobga solgan farmonlarni, natijada yuraklarida armon qolgan, deb ko'rsatadi.

Nazarimizda, bu "she'riy asar falsafiy lirika namunasi bo'lishi uchun u, avvalo, ezgulik va yovuzlik, erk-hurriyat va zulm-istibdod, hayot va o'lim, oniylik va boqiylik, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, muhabbat va xiyonat, tabiat va jamiyat singari boqiy mavzularda bitilgan bo'lishi lozim. Va lekin xalq hayotining, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy bosqichlarida davr-zamon nafasi, millatning ma'naviy-intellektual madaniyati darajasi, shoirning ongi-dunyoqarashi mazkur boqiy mavzularning badiiy-estetik talqinlariga sifat o'zgarishlari olib kiradi. Ushbu o'zgarishlar ramziy poetik obrazlar zimmasiga yuklangan ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalarda, hikmatli ma'nolarda zohir bo'ladi. O'zligini namoyon qiladi¹, -degan fikrdamiz.

Qani elni yaktan etgan donolar,
Qani uy fayzini tutgan momolar,
Qani "Birlash! Tiklan!" degan nidolar,
G'aflat og'usimi yo oshga tushdi?!

¹ Raximjonov N. Davr va uzbek lirikasi. - T.: Fan, 1979. - B. 28.

Ushbu misralarni o'qir ekanmiz, ko'z o'ngimizda qatag'on qurbonlari Cho'lpon, Qodiriy, Fitratlar siymosi gavdalanadi. Ularni boshini egganlar endi butun boyliklarimizni yer osti ganjlarimizdan tortib, durdona kitoblarimizni hech tortinmay o'zlashtirib olayayotganligini, shu bois ko'kda Ulug'bek ochgan yulduzlar charaqlamayotganini kuyinib so'zlaydi:

Ko'kda yo'q Ulug'bek ochgan yulduzlar,

Ko'hna Urganchingni yemoqda tuzlar.

Yer osti ganjlaring begona ko'zlar Izlab, kovlab, tashib, gizlashga tushdi.

Shu o'rinda, Asqad Muxtorning "Har bir chinakam asarning o'ziga yarasha falsafasi bo'ladi. Bosh falsafiy fikr asarni yoza boshlashdan oldin ham, yozayotganda ham, yozib bo'lgandan keyin ham sizni bezovta qilib, qiynab, o'rtab turishi kerak. Shusiz yozilgan asar darrov e'tibordan qoladi. Asarda bosh fikr, hayot falsafasi, cho'g' bo'lmagandan keyin, kitobxon ham yonmaydi"¹- degan so'zlari Omon Matjon ijodi uchun aytilganday. Chunki, shoir tarixga nazar tashlar ekan, o'z o'tmishini qoralaganlarga xitob qilib "Boyqarong qotilmish, Temuring xunxo'r, Manguberding zobit, xor, manglayi sho'r"ligini iztiroblar qalamga olar ekan, oqni qoradan, yaxshini yomonda ajratish vaqti kelganligini aytadi:

Davr devorida Qodiriy qoni,

Shimolga quladi janub Cho'lponi

Zahr ichdi billur jom tutgan Usmoning,

Qonli bazm soqiyni so'rashga tushdi.

Agar e'tibor bersak, doston boshidan oxirgacha kuchli hayajon, dard alam bilan yozilgan. Shoirni qiynagan, uni bag'rini qon qilgan chetdan kelgan, qonni so'rgan zuluklar bilan birga bo'lgan aqli noqis, tafakkuri kemptik kimsalar ekanligini dostonni o'qish jarayonida bilib olamiz. Shoir bu toifa xoinlarni palid, padarkush Abtullatiflar qatoriga qo'yadi.

Kimmish! O'zimizning bular palidlar,

Bular o'zimizning abdullatiflar,

Yulduzlar ta'midan bebahra itlar Oyni yaloq bilib uvlashga tushdi.

Dostonda ezgulik va qabohat, go'zallik va xunuklik, hayot va o'lim, erk-hurriyat va zulm-zalolat mavzu-masalalarini shaxs taqdiri, millat taraqqiyotidagi o'rni haqida shoir kuyinib, yonib kuylar ekan, kitobxonga qarab xitob qiladi:

Shuncha saboq yetar! O'zingga ishon!

O'z aqling, xulosang, ko'zingga ishon!..

¹ Muxtor A. Yosh dustlarimga. Adabiy suhbatlar. - T.: Yosh gvardiya, 1971. - B. 15.

Hali o‘zbekning bir hayqirishi bor,
Qara, tomirlaring titrashga tushdi!

Yuqoridagi misollardan ham ko‘rinib turibdiki, dostonida shoir tomonidan yaratilgan lirik qahramon o‘z hayotida, atrof-muhitda, ijtimoiy voqelikda sodir bo‘layotga voqelik bilan daxldorligi, nazdimizda shoir qalbidagi kechinmalarni va fikr-tuyg‘ularni dostonida to‘kib-solish zaruratini yuzaga keltirgan va bu dostonni o‘qimishli bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omon Matjon, “Qahramon”, 1960.
2. Tursunali G‘ulomov, “Omon Matjon: Ijodiy yuksalish”, Toshkent, 1982.
3. Shavkat Rahimov, “Omon Matjonning badiiy tafakkuri”, Toshkent, 1995.
Matjon Omon. “Ming bir yog‘du”. T., 1998, 39-bet.
4. Matjon Omon. “Ming bir yog‘du”. T., 1998, 43-bet.
5. Matjon Omon. “Haqqush qichqirig‘i”. T., 1979, 46-bet.

FILOLOGIYA**O‘ZBEKISTONDA “INTERNET ADABIYOTI”(RAQAMLI ADABIYOT)NING SHAKLLANISHI VA ADABIY JARAYONLARNING ONLAYN MUHITDAGI EVOLYUTSIYASI****UO‘K 811.111-26**

**Mustafayev Ozod,
Jizzax davlat
pedagogika
univrsiteti mustaqil
izlanuvchisi.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda internet adabiyotining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda adabiy jarayonlarning raqamli muhitda o‘zgarishi tendensiyalari kompleks tahlil qilinadi.

Аннотация: Данная статья представляет собой всесторонний анализ формирования и этапов развития интернет-литературы в Узбекистане, а также тенденций трансформации литературных процессов в цифровой среде.

Annotation: This scientific article provides a comprehensive analysis of the formation, stages of development of Internet literature in Uzbekistan, and trends in the transformation of literary processes in the digital environment.

Kalit so‘zlar: internet adabiyoti, raqamli adabiyot, onlayn adabiy jarayon, elektron adabiy platforma, interaktiv adabiyot.

Ключевые слова: интернет-литература, цифровая литература, онлайн-литературный процесс, электронная литературная платформа, интерактивная литература.

Key words: internet literature, digital literature, online literary process, electronic literary platform, interactive literature.

XXI asr boshlarida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi — axborotlashgan jamiyat shakllandi. Bu jarayon madaniyat va san’atning barcha turlariga, jumladan, adabiyotga ham sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji natijasida adabiy ijod va uning iste’mol qilinish shakllari tubdan o‘zgara boshladi. An’anaviy bosma adabiyot bilan bir qatorda elektron va onlayn muhitda yaratilayotgan badiiy matnlar adabiy jarayonning muhim qismiga aylandi. Taniqli yozuvchi va adabiyotshunos **Ulug‘bek Hamdam** insoniyat tarixining so‘nggi asrlardagi ijtimoiy va madaniy evrilishlariga adibona nigoh bilan baho berar ekan, internet adabiyotining paydo bo‘lishini global o‘zgarishlar bilan izohlaydi. Xususan, yozuvchi **“O‘zgarishlar havosi internet adabiyotini paydo qildi. XXI asr avvalidanoq internet keng yoyildi. Sekin-asta esa internet adabiyoti vujudga kelib, u ma’lum**

ma'noda an'anaviy, qog'oz shaklidagi adabiyot o'rnini egallay boshladi", deya ta'kidlaydi "Globalizm sharoitida dunyo adabiyoti" maqolasida. [1;]

"Raqamli adabiyot" tushunchasi asosan 1990-yillardan keyin ommalasha boshladi. Internet va kompyuter texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanishi, matn va tasvirlarning raqamli shakllarda birlashtirilishi, audio va video elementlarining adabiyotga kiritilishi bilan birga bu sohaning ilmiy va amaliy yondoshuvlari tobora ko'paydi. **Raqamli adabiyot** tushunchasi o'zining tarixiy rivojlanishida aniq bir muallifga yoki olimga bog'liq bo'lmagan holda, 1990-yillarning boshlaridan raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan adabiyot shakllarini ifodalash uchun qo'llanilgan. **Bir qator amerikalik (AQSH)** pioner yozuvchilar va olimlar ushbu sohada birinchi tadqiqotlar va yangi adabiyot shakllarini yaratishda muhim rol o'ynaganlar. Misol uchun, Maykl Joysning "Peshin chog'i — bir hikoya" ("Afternoon, a story" (1990) [2;] nomli interaktiv adabiy asari gipertekst (hypertext) matn bo'lib, u boshqa matn bo'laklariga bog'langan havolalarni (linklarni) o'z ichiga oladi. Interaktiv gipertekst hikoya, ya'ni o'quvchi har safar turli havolalar orqali yangi voqealar rivoji bilan tanishib boradi. O'zbek adabiyotida hali bunday asarlar yaratilmagan bo'lsada, keyingi yillarda milliy adabiyotimiz vakillarining internet tarmog'idagi faolligi ularning o'z o'quvchilari bilan interaktiv munosabatlarini ta'minlab kelayapti. Bu uyg'un jarayon esa, albatta yozuvchining yangi asarlar yaratishi, mavzular belgilashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va turtki beradi.

O'zbek adabiyotshunosligida internet adabiyoti hozircha mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, mazkur hodisaning ayrim nazariy va estetik jihatlarini qator olimlarning zamonaviy adabiy jarayon, globalizm hamda badiiy tafakkur evolyutsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida bilvosita tahlil etilgan. Xususan, Ulug'bek Hamdam o'z ilmiy mulohazalarida global o'zgarishlar ta'sirida internet adabiyotining paydo bo'lishi va an'anaviy qog'oz shaklidagi adabiyot bilan munosabatini yoritadi. Yan bir qator yosh olimlarning tadqiqotlarida esa adabiyotning zamon bilan o'zaro aloqasi, muallif va o'quvchi munosabatlarining transformatsiyasi, yangi badiiy shakl va janrlarning yuzaga kelishi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bu qarashlar internet adabiyotiga xos bo'lgan interaktivlik, ommaviylik va estetik mezonlarning o'zgarishini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotida ham yangi asrimiz boshidan hozirga qadar internet muhitida ijod qilayotgan mualliflar soni oshib, yangi adabiy shakllar paydo bo'ldi. Internet adabiyoti dastlab qo'shimcha platforma sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u mustaqil estetik hodisa sifatida ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda.



Internet adabiyoti tushunchasi zamonaviy adabiyotshunoslikda turlicha talqin qilinadi. Umumiy ma'noda, internet adabiyoti — bu raqamli muhitda tarqatiladigan va o'qiladigan badiiy matnlar majmuasidir. Ushbu adabiyot turi o'zining texnologik asoslari bilan an'anaviy adabiyotdan farqlanadi. "Til va adabiyot" jurnalining 2025-yil, 6-sonida e'lon qilingan "Til va madaniyatning adabiyotga ta'siri: zamonaviy yo'nalishlar va muammolar" sarlavhali maqolada quyidagicha fikrlar uchraydi: "Mavjud zamonaviy ommaviy madaniyat va texnologiyalar adabiyotning lingvokulturologik yo'nalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual va raqamli adabiyot rivojlanib, til va madaniyatni ifodalash shakllari o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, internet orqali madaniyatlararo muloqot kengayib, turli tillar va madaniyatlar orasidagi chegaralar tobora yo'qolib bormoqda". [3;]

O'zbekistonda raqamli adabiyotning shakllanishi jarayonida "Mutolaa" loyihasi singari tashabbuslar, shuningdek, Xurshid Davron tomonidan yaratilgan "kh-davron.uz" portal [4;] va unga o'xshash onlayn platformalar muhim rol o'ynamoqda. Bu resurslar orqali adabiy kontentning raqamli formatlarda ommaga taqdim etilishi, bir tomondan, adabiyotning targ'iboti va ta'siri kengayishini ta'minlasa, boshqa tomondan esa yangi, interaktiv o'quvchi tajribasiga zamin yaratmoqda. Mazkur jarayonlar O'zbekistonda raqamli adabiyot muhitining shakllanishi uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda, kitobxonlar orasida audiokitoblardan foydalanish madaniyati keng ommalashayapti. Xususan, "Mutolaa" loyhasining "Youtube" tarmog'idagi sahifasi bugungi kunda 17,5 mingdan ortiq obunachiga ega. Platformaga joylashtirib borilayotgan asarlar o'rtacha 5-10 ming atrofida tinglanmoqda. O'zbekiston xalq artisti Muhammadali Abduqunduzov mutolaasida atoqli o'zbek va tojik yozuvchisi Sadridin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" (1922) qissasi esa 67 ming martadan ortiq tinglangan. Yana bir "Audiokitoblaruz" sahifasida e'lon qilinayotgan audioasarlarni ham 10 mingdan 500 ming marotaba qadar tinglanayotgani diqqatni tortadi. Audiokitoblarni kundalik vazifalarni bajarish bilan uyg'unlikda tinglash mumkinligi, yo'lda yurayotganda, sport bilan shug'ullanganda yoki uy ishlarini qilayotganda tinglash, qolaversa ovoz, intonatsiya hamda musiqiy fon asarni ta'sirchan va hayotiy ifoda etish imkoniyatlari badiiy adabiyotning jamiyatga singishida yangi to'lqinni paydo qildi.

O'zbekistonda internet adabiyotining shakllanish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi davrlarga ajratish mumkin. Dastlabki bosqich (2000–2010-yillar). O'zbekistonda internet adabiyotining dastlabki bosqichi elektron kutubxonalar va adabiy forumlar bilan bog'liq. Bu davrda asosan klassik va zamonaviy adabiyot namunalari raqamlashtirilib, internet tarmog'iga

joylashtirildi. Internet ijodiy platforma emas, balki axborot manbai sifatida faoliyat yuritdi. Rivojlanish bosqichi (2010–2018-yillar) Mazkur bosqichda bloglar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yosh ijodkorlarning faolligi sezilarli darajada oshdi. Bu jarayonda mualliflar o‘z sahifalari orqali shaxsiy dunyoqarashi va ichki kechinmalarini bevosita o‘quvchi bilan baham ko‘rishga intila boshlashdi. Zamonaviy bosqich (2019-yildan hozirgacha) Telegram, Instagram va Facebook kabi platformalar internet adabiyotining asosiy maydoniga aylandi. Onlayn adabiy loyihalar, yangi ijodiy kanallar vujudga keldi. Internet adabiyoti professional adabiyot bilan parallel ravishda rivojlana boshladi.

Shubhasiz, raqamli muhit adabiy jarayonning strukturaviy va mazmuniy jihatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi masofa qisqardi. O‘quvchi endi faqat iste’molchi emas, balki adabiy jarayon ishtirokchisiga aylandi. Janrlar evolyutsiyasi ham muhim jihat hisoblanadi. Badiiy matn ko‘pincha rasm, audio yoki video bilan uyg‘un holda taqdim etilmoqda. Internet adabiyotining ijobiy jihatlariga ijod erkinligi, yosh mualliflar uchun ochiq maydon va keng auditoriya imkoniyatlarini kiritish mumkin. Shu bilan birga, badiiy saviya masalasi, professional tanqidning yetishmasligi va mualliflik huquqi muammolari uning salbiy tomonlari sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda internet adabiyoti zamonaviy adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylandi. U an’anaviy adabiyot bilan o‘zaro ta’sirda rivojlanib, yangi estetik shakllar va mazmunlarni vujudga keltirmoqda. Internet adabiyotini ilmiy asosda tadqiq etish, uning nazariy va estetik mezonlarini ishlab chiqish kelgusida adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Sharq va g‘arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o‘rganish masalalari”. Xalqaro ilmiy konferensiya to‘plami. Toshkent. 2024-yil. 16-bet.
2. Manpreet Kaur, “Digital Narratives: Exploring Literature in the Age of Technology”, American Research Journal of Humanities and Social Sciences, Vol 10, no. 1, 2024, pp. 1-2.
3. Xidirov X. Aliyeva N. Maqola. Til va madaniyatning adabiyotga ta’siri: zamonaviy yo‘nalishlar va muammolar. “Til va adabiyot” jurnali. 2025-yil-6-son.
4. “kh-davron.uz” portali

FILOLOGIYA**ANTROPOTSENTRIK BURILISHDAN PURISTIK
YONDASHUVGACHA: JADID DAVRI LEKSIKOGRAFIYASI VA
IZOHLI LUG‘ATLARNING ZAMONAVIY TALABI**

**Rustamov
Doniyorbek,**
Toshkent amaliy fanlar
universiteti dotsenti.
Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).

UO‘K 807.46

Annotatsiya: Maqola V.V.Morkovkin taklif etgan umumxalq lug‘atlarining ikki tipini solishtirib, zamonaviy leksikografiyada antropotsentrik tamoyillarning ustuvorligini asoslaydi. Izohli lug‘atlarning semantik sharhi yetarli bo‘lsa-da, kollokativ birikuvchanlik, chastota va matn ichidagi qo‘llanishni ko‘rsatishda cheklovlari borligi ta’kidlanadi; shu bois korpus va kollokatsiyalarni aks ettiruvchi yangi avlod lug‘atlariga ehtiyoj dalillanadi. Jadid ziyolilarining (Fitrat, Elbek, Ibrat, Qodiriy va b.) lug‘atshunoslik amaliyoti tarixiy-puristik yondashuv bilan birga milliy til resurslarini faollashtirish, o‘zlashmalarni me’yoriy moslashtirish hamda terminlarni birxillashtirishga qaratilgani ko‘rsatiladi.

Аннотация: В статье сравниваются два типа общенародных словарей, предложенных В.В.Морковкиным, и обосновывается приоритет антропоцентрических принципов в современной лексикографии. Хотя семантическая интерпретация толковых словарей достаточна, подчеркивается, что они имеют ограничения на коллокативную связность, частоту и использование в тексте; поэтому обосновывается необходимость словарей нового поколения, отражающих корпус и коллокации. Показано, что лексикографическая практика джадидской интеллигенции (Фитрат, Эльбек, Ибрат, Кадыри и др.) наряду с историко-пуристическим подходом была направлена на активизацию национальных языковых ресурсов, нормативную адаптацию заимствований и унификацию терминов.

Annotation: The article compares the two types of national dictionaries proposed by V.V. Morkovkin and substantiates the priority of anthropocentric principles in modern lexicography. Although the semantic interpretation of explanatory dictionaries is sufficient, it is emphasized that they have limitations on collocation, frequency, and use within the text; therefore, the need for a new generation of dictionaries reflecting corpora and collocations is substantiated. It is shown that the lexicographical practice of the Jadid intellectuals (Fitrat, Elbek, Ibrat, Qodiriy, etc.) was aimed at activating national language resources,

regulating borrowings, and standardizing terms along with a historical-puristic approach.

Kalit soʻzlar: *leksikografiya, antropotsentrik lugʻat, lingvotsentrik lugʻat, kollokatsiya, terminologik meʼyorlash, arxaizm va istorizm, tematik lugʻatlar.*

Ключевые слова: *лексикология, антропоцентрический словарь, лингвоцентрический словарь, коллокация, терминологическое нормирование, архаизм и историзм, тематические словари.*

Key words: *lexicography, anthropocentric dictionary, linguocentric dictionary, collocation, terminological standardization, archaism and historicism, thematic dictionaries.*

Leksikografiya yoʻnalishida salmoqli ilmiy natijalarga erishgan V.V.Morkovkin umumxalq lugʻatlarini ikki asosiy koʻrinishga ajratadi: 1) antropotsentrik; 2) lingvotsentrik. Antropotsentrik lugʻatlar markaziga insonni qoʻyadi: ularning bosh maqsadi tilni inson tafakkurida tasvirlash, nutq jarayonida undan toʻgʻri, aniq va samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishdir. Lingvotsentrik lugʻatlar esa tilning oʻzini markazga qoʻyadi: ularda bosh vazifa – til tizimidagi fakt, birlik va hodisalarni bayon qilish hamda ularning struktur-mazmuniy xususiyatlarini yoritishdan iborat [6.132–133]. Hozirgi davr leksikografiyasi tajribasi shuni koʻrsatadiki, zamonaviy umumiy lugʻatlarning salmoqli qismida antropotsentrik tamoyillar yetakchi oʻrinni egallamoqda.

Xususan, antropotsentrik yoʻnalishga mansub har qanday izohli lugʻatning funksiyasi bosh soʻz (lemma) sifatida keltirilgan birlik haqida til jamoasi – yaʼni til sohiblari ongida toʻgʻri tasavvur hosil boʻlishi va amaliy nutqda toʻgʻri qoʻllanishini taʼminlovchi zaruriy maʼlumotni yetkazishdan iboratdir. Maʼlum leksik birlikning (bosh soʻzning) lugʻaviy maʼnosini minimal zarur grammatik koʻrsatkichlar bilan aniq va sodda usulda ifodalash mumkin boʻlgani uchun uzoq vaqt mobaynida izohli lugʻatlar til foydalanuvchilari uchun yetarli manba hisoblangan. Biroq tildan foydalanish samaradorligini oshirish, til resurslarini “kompyuterga yoʻnaltirilgan til”ga moslashtirish, shuningdek, birliklarning nutqda maqsad va vazifaga koʻra nihoyatda rang-barang qoʻllanishi kabi omillar natijasida izohli lugʻatlar – hatto ularda soʻz maʼnolari mukammal sharhlangan boʻlsa-da – zamonaviy tilshunoslik ehtiyojlari uchun yetarli boʻlmay qoldi. Sababi shundaki, izohli lugʻatlar odatda soʻzning til tizimidagi paradigmatic oʻrni va ahamiyatini toʻliq koʻrsatmaydi; ular soʻzning boshqa soʻz va iboralar bilan kollokativ birikuvlarini koʻrsatishni oʻzining bosh vazifasi sifatida qoʻymaydi; koʻproq leksik birliklarning maʼno jihatlarini yoritish bilan cheklanadi. Holbuki, soʻzning jonli nutqda ishlatilish chastotasi, uning turli birikmalarga kirish

imkoniyati kabi, leksik ma'no bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar aynan birikuvchanlik (kollokatsiya) lug'atlarida aks ettiriladi. Sanab o'tilgan xususiyatlar ayrim hollarda izohli lug'atlarda ham ma'lum darajada qayd etilishi mumkin, ammo bu ularning bosh vazifasi emas. Demak, til avvalo kommunikativ vazifani ado etgani bois so'zni yakka birlik sifatida emas, balki matn va nutqdagi birlik sifatida talqin etish muhimligi ayon bo'ladi. Zero, har bir so'zning boshqa birliklar bilan birlashish qobiliyati mavjud va bu imkoniyat real nutq jarayonida namoyon bo'ladi.

Nazariy tilshunoslikning poydevorini qo'ygan olimlardan V. Gumboldt "til – millat ruhi" degan mashhur g'oyasini ilgari surarkan, quyidagicha ta'kidlaydi: "Xalq tili va xalqning ma'naviyati alohida-alohida va ketma-ket emas, balki bir-biridan ajralmas holda, o'zaro bog'liq tarzda taraqqiy etadi" [3.68]. Darhaqiqat, ona tili millatning eng asosiy qadriyati va ma'naviyat ko'rsatkichi sifatida xalqning milliy uyg'onishi, jamiyatning jipslashuvi, o'zligining anglanishi hamda ma'naviy kamolatga yetishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda leksikografik izlanishlar XX asrning 1960-yillaridan boshlab tizimli yo'sinda olib borila boshladi. Bu tadqiqotlar monografik formatda va turli ilmiy maqolalar shaklida amalga oshirildi. Xususan:

Monografik tadqiqotlar: ikki tilli lug'atlarning struktur-semantik tahlili X. Fattohov [11], T. Qodirov [5], K. Muhiddinov [7], E. Umarov [9], Sh. Fayzullaeva [10], N. Rasulov [8], M. Ziyayeva [4] singari tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotda tarixiy–tavsifiy, qiyosiy–tahliliy va funksional–semantik metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Jadid davriga oid lug'atlar, dramatik va publitsistik matnlar asosiy empirik manba sifatida tanlanib, ulardagi leksik birliklar antropotsentrik va puristik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida V.V. Morkovkinning antropotsentrik va lingvotsentrik lug'atlar tasnifi metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Leksik birliklarning kelib chiqishi, semantik rivoji, kollokativ imkoniyatlari va tarixiy funksiyasi kontekstual hamda diaxron tahlil orqali aniqlandi. Shuningdek, arxaizm va istorizmlarni lug'atlashtirishda statistik kuzatuv va tematik guruhlash usullaridan foydalanildi.

Til – millatning dunyoda borligini namoyon etuvchi bosh belgidir. Tilshunoslik fani tilning murakkab tabiati va ko'p qirraliligiga e'tiborni kuchaytirgani sari XXI asrga kelib yangi yo'nalishlar shakllandi, mavjudlari esa olib borilgan tadqiqotlar ta'sirida jadal rivojlandi: psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, paralingvistika, sud lingvistikasi kabi tarmoqlarning vujudga kelishi va taraqqiy etishi natijasida tilshunoslikning tadqiq obyektlari sezilarli darajada yangilandi va jonli nutqqa tobora yaqinlashdi. Axborot texnologiyalarining, xususan

kompyuterning jadal rivoji va inson hayotining ajralmas qismiga aylanishi tillarni dasturlashtirish, korpuslashtirish, avtomatik tarjima singari masalalarni ilmiy kun tartibiga olib chiqdi (J. Ibragimov).

Har qanday davrda lugʻatlar muayyan tildagi leksik boylik va oʻziga xoslikni koʻrsatib beruvchi eng muhim vosita boʻlib kelgan. Jadid maʼrifatparvarlarining oʻz zamonasining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy muhitiga koʻrsatgan taʼsirini turli sohalarda kuzatish mumkin. Ularning maktab va maorif islohoti, badiiy ijodning nazm va nasr, dramaturgiya va publitsistika yoʻnalishlari, shuningdek, sanʼatshunoslik, tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi faoliyati bu fikrga dalildir. Shubhasiz, XX asrning 1920–1930-yillaridagi ijtimoiy-maʼnaviy manzarani, xususan, oʻzbek adabiyoti va oʻzbek tilshunosligi taraqqiyotini toʻliq tasavvur qilish uchun jadid adiblarning serqirra merosini atroflicha koʻrib chiqish lozim. Koʻp janrli, sermazmun asarlar mualliflari sifatida oʻzbek madaniyati va maʼnaviyati tarixida alohida oʻrin egallagan jadid ziyolilari lugʻatchilik (leksikografiya) sohasida ham samarali ijod qilgan, shu bilan birga, oʻzbek lugʻatchiligining shakllanishi va taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan. Bu borada jadid lugʻatshunoslaridan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbek, Miyon Buzruk, Ishoqxon Ibrat, Vadud Mahmud, Ibrohim Davron, Gʻozi Olim, Nazir Toʻraqulov kabi adiblarning leksikografik faoliyati alohida eʼtiborga molikdir. Mustaqillik yillarida jadidlar ijodini oʻrganishga doir muayyan ilmiy ishlar amalga oshirildi: olib borilgan tadqiqotlarda jadidlar yaratgan badiiy matnlarning tili, ularning yangi oʻzbek adabiy tilining taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi hamda maʼrifatparvar adiblarning til va tilshunoslik haqidagi qarashlari alohida monografik yoʻnalishda tahlil qilindi. Boshqacha aytganda, adiblarning ilmiy merosi va badiiy mahorati, aniqrogʻi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish darajasi ilmiy izlanishlar markazida boʻldi. Biroq jadid davri lugʻatchiligini nazariy jihatdan kompleks oʻrganish hali toʻla amalga oshmagan. Shu bois davr leksikografiyasini tizim sifatida qamrab olish, uning shakllanishiga sabab boʻlgan ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash, manbalarni ilmiy tavsiflash, yaratilgan lugʻatlarning leksikografik tamoyillarini izohlash va mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirish orqali jadid adiblarning oʻzbek lugʻatchiligining shakllanishi va rivojiga qoʻshgan xizmatlarini belgilab berish bugungi oʻzbek leksikografiyasining tarixiy-tadrijiy takomilini koʻrsatishda muhim manba boʻla oladi.

Elbekning lugʻatlar va atamalarni matbuotda eʼlon qilishdan koʻzlagan bosh maqsadlaridan biri – arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan oʻzlashma soʻz hamda terminlarga oʻzbekcha muqobil variantlarni topish, ularning faol qoʻllanishini yoʻlga qoʻyish, matbuot ahli va keng oʻquvchini ana shunday

tushuncha va hodisalarni ifodalovchi soʻzlarning maʼnosi bilan yaqindan tanishtirishdan iborat edi. Yaʼni:

1. Arabcha, forsha va ruscha kelib chiqishli oʻzlashmalar uchun oʻzbekcha ekvivalentlar izlash, ularning amaliy muomaladagi qoʻllanilishini taʼminlash, jurnalist va yozuvchilarni bunday birliklarning maʼnosi bilan tanishtirish. Masalan, 1920-yillarda keng isteʼmolda boʻlgan **mamnu**, **ixtilol**, **muxtoriyat** kabi arabcha soʻzlar oʻrniga semantik jihatdan ravshan **qatagʻon**, **qoʻzgʻolon**, **erkinlik** kabi muqobillar mavjud. Bu oʻrinbosarlar arabcha atamalarning mazmunini toʻliq ifodalab bera olganidan kelib chiqib, ularga keng muomalada oʻrin berish, begona unsurlarni esa asta-sekin muomaladan chiqarish zarurligi ilgari suriladi.

2. Matbuotda baʼzi arabcha, forsha va ruscha birliklar oʻrnida nooʻrin tanlangan turkiy soʻzlar ham qoʻllanilganini Elbek tanqid qiladi. Masalan, 1920-yillarda **inqilob** oʻrnida **oʻzgarish** ishlatilgani notoʻgʻri, chunki **oʻzgarish** – **tagyir**ning tarjimai boʻlib, **inqilob**ning semantik hajmini bermaydi. Olimga koʻra, **inqilob** oʻrnida **toʻntarish** soʻzini qabul qilish maqsadga muvofiq [4].

Jadidlar tomonidan yaratilgan maxsus lugʻatlar oʻsha davr adabiy tilini isloh qilishga qaratilgan saʼy-harakatlarning mantiqiy mahsulidir. “Chigʻatoy gurungi”ning dasturiy maqsadi tilni begona unsurlardan imkon qadar sof saqlashga qaratilgan edi. Shu bois oʻsha davr jadidlarining koʻpchilik faoliyati puristik (tozalovchi) tendensiya sifatida baholandi. Maʼlumki, lingvistik purizm – tarixiy sotsiolingvistikaning eng diqqatga sazovor sohalaridan biri; u soʻzlovchilarning til haqidagi tasavvurlari, til normalariga munosabati, “toza til” gʻoyasi bilan bevosita bogʻliq. Shuning uchun u Niedzielski va Preston (2000) taʼriflagan xalq tilshunosligi doirasiga ham toʻgʻri keladi – bu yondashuvda alohida lingvistik oʻzgaruvchilar yoki variantlarning sotsial ahamiyatidan koʻra, til navlari haqidagi idrok va baholar muhim. Akademik doiralarda purizmning taʼrifi borasida yakdil fikr yoʻq: bir guruh tadqiqotchilar purizmni tilni har qanday nomaqbul elementlardan “tozalash”ga qaratilgan amaliyot deb bilsa, boshqalar uni faqat yot unsurlardan “tozalash”ga qaratilgan torroq hodisa sifatida tushuntiradi. Yana bir guruh olimlar purizmni mutlaqo nomaqbul amaliyot deb baholaydi; boshqalar esa ayrim holatlarda (masalan, mintaqaviy yoki ozchilik tillarini himoya qilish, tilni standartlashtirish va kodifikatsiyalash jarayonida) ilmiy oʻrganishga arzigulik faoliyat sifatida koʻradi. Koʻrinadiki, purizmni oʻrganish standartlashtirish jarayoni, millat qurilishida tilning “konstruktiv blok” sifatidagi vazifasi, ayrim til navlari yoki madaniy unsurlarni istalmagan yoki tahdidli deb stigmatizatsiya qilish kabi tarixiy tilshunoslikning muhim masalalari bilan tutashadi. Bu mavzu yuzasidan qator nashrlar mavjud boʻlib, ular orasida van der Sijs (1999), Brinkat–Boeder–Stolz (2003) hamda Langer–Davies (2005)

Sharq uygʻonish davri ilmiy-maʼnaviy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri boʻlgan Abu Ali ibn Sino shaxsiyati va boy ilmiy merosi asrlar davomida nafaqat tibbiyot va falsafa, balki adabiyotshunoslik va madaniyat tarixida ham muhim tadqiqot obʼekti boʻlib kelmoqda. Uning ensiklopedik tafakkuri, ilm-fan va adabiy-badiiy tafakkur uygʻunligini mujassam etgan qarashlari turli davr va makon vakillari tomonidan oʻziga xos talqin etilgan.

XX asr oʻzbek va tojik adabiy-madaniy muhitida Ibn Sino merosini ilmiy va maʼrifiy ruhda oʻrganishga alohida eʼtibor qaratgan ziyolilardan biri Sadriddin Ayniydir. Adib va olim sifatida Ayniy oʻzining tarixiy-ilmiy asarlari, publitsistik maqolalari hamda adabiy-tanqidiy qarashlarida Ibn Sinoni Sharq uygʻonishining yuksak timsoli, ilm va maʼrifat fidoyisi sifatida talqin qiladi. Uning Ibn Sino haqidagi mulohazalari nafaqat biografik maʼlumotlarni yoritish, balki mutafakkirning ilmiy-maʼnaviy qiyofasini davr talablari nuqtayi nazaridan qayta baholashga xizmat qiladi.

Ayniy Ibn Sino ijodiga dastlab “Namunai adabiyoti tojik” risolasini yaratishda murojaat etgan. Undagi misol “Namunai adabiyoti Eron”dan olingan boʻlib, beshta ruboiysi va boda tarifiga bagʻishlangan gʻazali keltirilgan. Keyinchalik Ayniy tazkirasida keltirilgan oʻndan ortiq olim, shoir va yozuvchilar hayoti va ijodiga doir izlanishlar olib borib, maxsus maqolalar eʼlon qilib borgan. Jumladan, “Shayx ul-raʼis abu Ali ibn Sino” nomli risolasini 1939- yilda yozadi. Bu asar birinchi marta 1939-yilda nashr etilgan, ikkinchi nashri esa 1941-yilda muallifning isloh va ilovalari bilan qaytadan ishlangan. Umuman, S.Ayniy tomonidan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyatiga doir izlanishlar olib borilgan, jumladan: Abu Ali ibn Sino (“Gazetai muallimon”, 1937, 11-fevral), “Abu Ali ibn Sino” (“Sharqi surx”, 1951, № 11, sahifa 55-61), “Olimi buzurgi tojik Abu Ali ibn Sino” (gazeta “Haqiqati Leninobod”, 1952, 22-avgust), “Великий Таджикский учёный Абу Али Сино” (“Коммунист Таджикистана” 1952 19-август), “Гениальный учёный (Авиценна)” (“Известия”, 1952, 17-август; “Советская Латвия”, 1952, 19-август; “Латвийский моряк”, 1952, 20-август).

Mazkur maqolada Sadriddin Ayniyning Ibn Sino haqidagi ilmiy-adabiy qarashlarini tahlil etishda tarixiy-taqqoslash, ilmiy-tavsifiy va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Ayniyning asarlari Ibn Sino merosiga oid manbalar bilan qiyosiy oʻrganilib, ularning adabiy va maʼnaviy talqini aniqlandi. Shuningdek, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida Ayniyning talqin uslubining nazariy ahamiyati yoritildi.

Ushbu monografiyada muallif Abu Ali ibn Sinoning hayot davrini oydinlashtirish bilan birga, uning ilmiy va adabiy faoliyatini ham batafsil yoritgan. O'rta Osiyoda Somoniylar hukmronligi davri haqidagi mulohazalarida Ayniyning tarixnavislik mahorati namoyon bo'ladi. Jumladan, o'zi uchun muhim deb hisoblagan masala - tojik tilining yuzaga kelishini o'sha davr madaniyatiga bog'laydi. "Arab tili hukmron til bo'lsa-da, so'zlashuvdagina emas, balki yozma adabiyot uchun ham mahalliy fors tili vujudga keldi ...bu til hozirgi eron tiliga yaqin bo'lib, ko'p jihatlaridan tojik tiliga o'xshab ketardi. Saroy shoirlari asarlarini ana shu tilda yozardilar ...milliy til va adabiyot, – keyinchalik O'rta Osiyoda "tojikcha", deb atalgan fors tili va adabiyoti tashkil topdi", – deydi. Undagi siyosiy-tarixiy jarayonlarni tasvirlashda Ayniy ko'proq tarixchi Shestakov tahriri ostida yozilgan "SSSR tarixiy ocherklari"dan foydalanadi.

Ayniyning Abu Ali ibn Sino haqidagi tadqiqi quyidagi: olim yashagan davrdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat; Ibn Sinoning tarjimai holi; u haqdagi bir nechta afsona va rivoyatlar; yozgan asarlari va ilmiy merosi; bir nechta asarlari tahlili; xulosa; fors-tojik tilida yozgan asarlaridan namunalar; foydalanilgan manbalar kabi tartibida tuzilgan. Mundarijaning o'ziyiq Ibn Sino hayoti va ijodi atroflicha o'rganilganligi, bugun uchun ham ahamiyatli jihatlari ham olim xotiridan faromush bo'lmaganligini tasdiqlaydi. Ayniy Somoniylar davrining so'nggi olimlaridan biri bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning tarjimai holini mashhur "Shohnoma" muallifi Firdavsiyning tarjimai holi bilan bir-biriga o'xshatadi va ularni dalillaydi. Chunonchi, har ikkisinin ham umri sultonlarning suiqasdiga giriftor bo'lib qochqinda o'tganligini ta'kidlaydi. Firdavsiyning sulton Mahmud hujumiga uchrashiga sabab diniy masala bo'lgani kabi, Abu Ali ibn Sinoga hujumning sababi ham aynan o'sha diniy masala, ya'ni Ibn Sinoning sulton Mahmud saroyi ulamolari tomonidan dinsizlikda ayblanishi edi, deydi.

Ayniy Abu Ali ibn Sinoning tarjimai holini ham o'z uslubiga sodiq holda o'sha paytda mavjud bo'lgan manbalar tafsiloti asosida yozishga kirishadi va har bir manba haqida tagsatrlar davomida ma'lumot berib boradi. Otasi Abdullo Balxdan Buxoroga – Somoniylar poytaxtiga ko'chib kelishi, Hurmetonga (hozirgi Rometon) hokim etilishi va Afshona qishlog'ida uy-joy qilib, shu yerlik Sitorabonuga uylanib, 980-yilda Abu Alining tug'ilishi kabi ma'lumotlar bilan boshlangan tarjimai hol tahsil olishi va deyarli, barcha ilm sohalarini qanday egallagani to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitiladi. Ibn Sinoning hayotiga doir bahsli mavzularni tagsatrlarda keltirib o'z xulosasini ham bayon etadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning otasidan necha yoshda yetim qolgani haqida manbalarda ziddiyat borligi: ba'zi manbalar uch yoshda, ba'zilar 22 yoshda, ba'zilar esa 32 yoshda otasi vafot etgan deb yozadi. Ammo Ayniy Ibn Sinoning o'z tarjimai holi haqida aytgan parchalarga tayanib, 18 yoshda otadan yetim qolgan, degan

to'xtamga keladi. Ibn Sinoning Buxorodan Xorazmga, Jurjonga, Dehstonga, Ray, Isfahon kabi hududlarga goh qochqin bo'lib qochqinxonalarda, hibsda, goh vazir bo'lib ham doimiy ravishda ilmiy izlanishlar olib borib, har sohaga oid kitoblar yaratganini e'tirof etadi. Sulton Mahmud 1029-yilgacha, umrining oxirigacha Ibn Sinoni ta'qib ettiradi.

Risolada Abu Ubayd Faqih Jurjoniyni nomi bir necha o'rinlarda takrorlangan bo'lib, u Jurjonda Abu Ali ibn Sinoga shogird tushadi va buyuk olimning so'nggi nafasigacha undan ayrilmaydi. Ayniyni ta'kidicha, Ibn Sino ko'pgina asarlarini aynan shu shogirdining iltimosiga binoan yozadi. Jumladan, "Shifo" hamda "Al-Qonun" kitoblarini ham. So'ngra shogirdi Abu Ubayd olim qoldirgan tarqoq merosni jamlab kitob holiga keltirgan. Ayniy ushbu xulosaga Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Chor maqola"siga tayanadi. Abu Ali ibn Sinoning haqiqiy va beshubha tarjimayi holini ham uning shogirdi, doimiy hamsuhbatida bo'lgan Abu Ubayd Faqih Jurjoni yozganiga ishonadi va bu risolalar "Tarixi hukamo" (Ayniy izohi: "Tarixi hukamo" – buyuk hakim va faylasuflarning tarjimayi holiga oid kitobdir. Bu kitobni 1087-yilda Xurosonning Shahrison shahrida tug'ilib, 1154-yilda vafot etgan Muhammad binni Abulqosim Abdulkarim arab tilida yozgan) nomli kitobda aynan hikoya qilinganini e'tirof etadi. Ayniy Tojikiston Davlat kutubxonasida saqlanayotgan "Muntaxab tarixi hukamo" nomli bir kitob haqida: "bu kitobning nodon tanlovchisi Abu Ubayd Faqihning ilovasinigina emas, hatto Abu Ali ibn Sinoning o'z og'zidan eshitib yozgan qismini ham kalta-kulta, cho'ltoq qilib keltirish bilan ilm va tarix bobida g'oyatda buyuk xiyonat qilgandir. Kitob aslida arab tilida yozilgan bo'lib, lekin tanlovchi yana bir nodonlik orqasidan bo'lsa kerak, iboralarni xato va bema'ni qilib asl matn ostiga fors-tojik tilida tarjima qilgan" [7,109.],– deydi. Ayniy mazkur kitobda keltirilgan ibn Sinoning o'z tilidan hikoya qilinadigan parchalarni "Chor maqola"dagi izohlar bilan to'ldirib, qayta tarjima qiladi va tadqiqotiga kiritadi [7, 109-112.].

Ayniy Abu Ali ibn Sinoning 77 nomdagi asarlar ro'yxatini keltiradi va ushbuni tuzishda Shamsiddin Somiyni "Qomusul-a'lom" nomli kitobidan foydalanadi. Ibn Sinoning barcha kitoblari nomi ("Donishnoma"dan tashqari) arabchadir. Shu bois ro'yxat tuzish davomida tojik kitobxonlari uchun o'qilishi og'ir bo'lishini inobatga olib, ba'zilarining nomini tojik tiliga tarjima qilib beradi. Ayniyni diqqati hamisha fors-tojik tilidagi asarlarda bo'lganligi bois, Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Risolai nabz" asarlarini ona tilisi – fors-tojik tilida yozganiga urg'u beradi. Maqola davomida Ibn Sinoning Dushanbe shahridagi Tojikiston Davlat kutubxonasida saqlanayotgan asarlari haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Mazkur kitoblardan biri "Al-Qonun" bo'lib, arab tilida

yozilgan, 888 varaq, ya'ni 1776 sahifani tashkil etib, tibbiyotga doir, besh kitobga bo'linganligi haqida yozadi. Ayniy "Al-Qonun"ning jahonshumul ahamiyatini, bu kitob to XVIII asrlarning oxirlarigacha Yevropa meditsina bilim yurtlarining darsligi bo'lib, undagi davolash usullari birdan-bir tibbiyot qo'llanmasi sifatida tanilgani bilan izohlaydi.

Tahlildagi keyingi kitob sodda fors-tojik tilida yozilgan "Donishnoma" bo'lib, besh xil ilmni: ilmi mantiq; tibbiyot; ilmi hay'at (astronomiya); musiqa; ilohiyot (metafizika) kabi ilmlarni o'z ichiga oladi. Ayniy o'sha paytda Tojikiston Fanlar Akademasida 893 raqam bilan qo'lyozmaxonasida saqlanayotgan nusxasi va Toshkentdagi O'zbekiston Davlat kutubxonasida saqlanayotgan boshqa nusxasida musiqa va ilmi hay'at qismlari yo'qligini aytadi. Ayniy "Donishnoma" tilini tojik kitobxonlariga namoyish etish va bu ulug' olimning aytgan gaplarini asl nusxada o'qishlariga imkon yaratish uchun kitobning muqaddimasidan satrlarni aynan keltiradi. Parchadagi so'zlarni tahlil qilar ekan ibn Sinoning so'z qo'llash mahorati orqali fors-tojik tilining imkoniyatlarini ochib berganiligini ko'rsatadi.

Ayniyning Ibn Sino tarjimayi holiga aloqador bo'lgan ikki ruboiysini keltirishi ham bejiz emas:

Bo ih du-se nodon, ki chunon medonand

Az chahl, ki donoi chahon eshonand,

Xar bosh, ki in chamoaz farti xar

Har ki-o' na xarast, kofirash mexonand.

Mazmuni: Bu ikki-uch nodon johilliklari sababli o'zlarini olamning olimi deb biladilar. Eshak bo'l chunki bu jamoaning o'ta eshakligidan kimda-kim eshak bo'lmasa, u kofir sanaladi.

Hamda:

Kufri chu mane gazofu oson nabuvad,

Mahkamtar az imoni man imon nabuvad,

Dar dahr chu man yakevu on ham kofir?

Pas, dar hama dahr yak musulmon nabuvad!

Mazmuni: Men kabi odamlarni kofir qilish oson emas, mening iymonimdan mustahkamroq iymon yo'q. Olamda menga o'xshash odam yakka-yagona bo'lsa-yu, u ham kofir esa, demak, jahonda birorta ham musulmon yuq ekan-da!

Ayniy ushbu ruboiylar orqali sulton Mahmud G'aznaviy olimdan o'ch olish uchun uning dinsizligini bahona qilgani, o'sha zamonning ruhoniylari uchun ham qo'l kelganligini tushuntiradi. Bundan tashqari, zamonasi yoshlariga buyuk olimning Allohga e'tiqodining yuksakligini ko'rsatadi. Ibn Sino haqida bir necha afsona va rivoyatlarni ham keltirib, manoqibona bir uslubni paydo qiladi. Ayniy

tadqiqot yakunida “Namunai adbiyoti jojik”da kiritilgan olimning ruboiy va gʻazalini aynan keltiradi.

Xulosa: Ayniy kimning izlanishlari boʻlmasin, xato va dalili noaniq maʼlumotlarni tuzatishni olimlik burchi sanagan. U oʻz iqtiboslarini hamisha tekshirib, keyin qabul qilgan. Ushbu izlanishida keltirilgan izohlardagi bir chalkashlikka ham Ayniy shunday oydinlik kiritadi: “Qizil Oʻzbekiston gazetasi”ning 1937-yil 9-apreldagi sonida professor P.M.Faktorovichning Abu Ali ibn Sino haqida yozgan bir maqolasi bosilib chiqdi. ...Faktorovich oʻz maqolasida Abu Ali ibn Sinoning Kordovaga borgani, u yerda dars bergani va uning darslarida yevropalik studentlar ham qatnashishganini qayd etadi. Ammo Abu Ali ibn Sinonimg tarjimai holi batafsil yozilgan Sharq manbalaridan birortasida bunaqangi maʼlumot uchramaydi. ...Abu Ubayd Faqih Jurjoni yozgan tarjimai holda ham uning Kordovaga borgani haqida gap ochmaydi, vaholanki, Abu Ubayd Faqih Abu Ali ibn Sinoning Jurjonga kelishidan boshlab to vafotigacha u bilan hamroh boʻlib yurgan. Binobarin, Faktorovich foydalangan manbalarda Abu Ali ibn Sinoning tarjimai holi buyuk arab faylasufi ibn Rushdning tarjimai holi bilan aralashib ketgan boʻlsa ajab emas...” [7, 108-109].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шукуров Ш. Мирзо Бедилнинг поэтик мероси. –Т.: Фан, 1979. – Б. 13.
2. Айний С. Мирзо Абдулқодири Бедил. – Сталинобод, 1954. – 268.
3. Шукуров Ш. Мирзо Бедилнинг поэтик мероси. –Т.: Фан, 1979.
4. Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т.: Тафаккур томчилари, 2021.
5. Айний С. Танланган илмий асарлар. – Т.: 1978.
6. Улуғ ўзбек шоири. / Мақолалар тўплами (Ойбек таҳрири остида). – Тошкент, 1948.
7. Садриддин Айний. Асарлар. Саккиз томлик, саккизинчи том. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1967.
8. Ғолиш Навоий. Ҳамса. – Т.: Ozpoligrafkombinat, 1940.(Sadriddin Ayniy tahririda)
9. Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тоҷик. – Д.: Адиб, 2010.
10. Қораев Т., Воҳидов Р. Тахаллуслар. – Т.: Фан, 1979.
11. Шарофиддин О. Ғолиш Навоий. – Т.: Ozpoligrafkombinat, 1939. В. 72 Sotti Husayn soʻzboshisi bilan.
12. Шарафиддинов О. Алишер Навоий. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1971.

FILOLOGIYA**ANTROPOSENTRIK PARADIGMADA GENDER TILSHUNOSLIKKA
DOIR MASALALAR****UO‘K: 947 (575.1)**

**Saribayeva Dilfuza,
Renessans ta’lim
universiteti
o‘qituvchi
O‘zbekiston Milliy
universiteti mustaqil
izlanuvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy ilmiy bilimdagi “gender” tushunchasini va gender tilshunosligini o‘rganadi. Unda gender sinf, irq va millat kabi asosiy kontseptsiyalar bilan bir qatorda jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi muhim o‘lchov sifatida ko‘rsatiladi. Maqola gender tadqiqotlarining tarixini, g‘arbiy sotsiologiyadan olinganligini, biologik jinsdan farqini va ijtimoiy konstrukt tabiatini batafsil yoritadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие “гендер” в современном научном знании и гендерная лингвистика. В ней гендер представлен как важный показатель в социальной структуре общества наряду с такими основными концепциями, как класс, раса и нация. Статья подробно освещает историю гендерных исследований, их заимствование из западной социологии, их отличие от биологического пола и природу социального конструкта.

Annotation: This article examines the concept of “gender” in modern scientific knowledge and gender linguistics. It presents gender as an important dimension in the social structure of society, along with such basic concepts as class, race, and nationality. The article details the history of gender studies, its derivation from Western sociology, its difference from biological gender, and the nature of social constructs.

Kalit so‘zlar: Gender, gender tilshunosligi, feminizm, androtsentrizm, ijtimoiy konstrukt, interdistsiplinar paradigma, til assimetriyasi, jinsiy stereotiplar, gender madaniyati.

Ключевые слова: Гендер, гендерная лингвистика, феминизм, андроцентризм, социальный конструкт, междисциплинарная парадигма, языковая асимметрия, сексуальные стереотипы, гендерная культура.

Key words: Gender, gender linguistics, feminism, androcentrism, social construct, interdisciplinary paradigm, language asymmetry, sexual stereotypes, gender culture.

Antroposentrik paradigma tilshunoslikning zamonaviy rivojlanishida markaziy o‘rin egallab, tilni inson mavjudligining keng ekzistensial va kontseptual kontekstida ko‘rib chiqmoqda, bunda til inson ongi va tafakkuri, ruhiy olami bilan chambarchas bog‘lanib, madaniyatning ko‘zgusi sifatida taqdim etilmoqda. Ushbu paradigma tilni nafaqat grammatik tuzilma sifatida, balki insoniyatning madaniy intuitsiyalari va dunyoqarashini shakllantiruvchi, ularni mustahkamlovchi va keyinchalik talqin etuvchi manba sifatida qaraydi. V. Gumboldtning til haqidagi g‘oyalariga asoslangan bu yo‘nalish XX asr oxirida “Oldinga, Gumboldtga!” shiori ostida yangi kuch bilan jonlandi, chunki tilshunoslikning antroposentrikligi har qanday til mavjudligining asosiy sharti sifatida qabul qilindi. Ushbu paradigma doirasida gender tilshunosligi alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki gender tilning ijtimoiy-madaniy funktsiyalarini, jinsiy farqlarni va ularning til orqali ifodalanishini o‘rganib, insonning jinsiy identifikatsiyasini madaniy konstrukt sifatida ko‘rsatmoqda.

G‘arbda gender tadqiqotlari 1970-yillarda feminizmning "ikkinchi to‘lqini"ning nazariy davomi sifatida rivojlandi. Feminizm ayollarning fuqarolik va siyosiy huquqlarini himoya qilish harakati sifatida paydo bo‘lgan bo‘lib, "birinchi to‘lqin" (1848–1920) formal huquqiy tenglikka erishishga qaratilgan edi, "ikkinchi to‘lqin" esa (1960-yillardan) haqiqiy tenglik uchun kurashdi. Gender nazariyasi feminizmdan farqli o‘laroq, erkak va ayol rollarini birdek o‘rganishni, emansipatsiya qilingan jamiyatni maqsad qilmoqda. Bugungi kunda gender nazariyalari biologik jinsning ijtimoiy va madaniy realizatsiyalarini o‘rganuvchi keng interdistsiplinar paradigma bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy strukturasining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida qaralmoqda. Gender ijtimoiy status sifatida individning imkoniyatlarini belgilamoqda va madaniy fazoda ishlamoqda, shuning uchun unga mos keladigan gender madaniyati mavjud. Interdistsiplinar paradigma sifatida gender tilshunosligi, gender tarixi, gender psixologiyasi va gender sotsiologiyasini o‘z ichiga olmoqda. Masalan, gender tarixi an’anaviy tarix tomonidan e’tiborga olinmagan ayol tajribasini batafsil ko‘rib chiqmoqda, "herstory" (uning tarixi) neologizmi "history" (uning tarixi)ga qarama-qarshi qo‘yilmoqda. Ingliz tilida so‘zlashuvchi olimlar orasida Robin Lakoff (1975) "Language and Woman’s Place" asarida ayollar tilining xususiyatlarini, masalan, muloyimlik va savol shakllarini ko‘proq ishlatishini tahlil etib, tilning jinsiy assimetriyasini ochib bergan. Deborah Tannen (1990) "You Just Don’t Understand" kitobida erkak va ayollarning kommunikativ uslublaridagi farqlarni, masalan, erkaklarning raqobatbardoshlikka, ayollarning esa munosabat qurishga yo‘naltirilganligini ta’kidlagan. Jean Berko Gleason psixolingvistik tajribalari orqali bolalar tilidagi jinsiy farqlarni o‘rgangan. Muallif

mulohazasi: Lakoff va Tannenning ishlarini integratsiya qilish orqali, gender tilshunosligi nafaqat deskriptiv, balki tushuntiruvchi xususiyatga ega bo'лади, bu esa o'zbek va koreys tillaridagi emotsional vositalarning jinsiy tabiati haqidagi tadqiqotlarni boyitadi.

Mazkur tadqiqot antroposentrik paradigma doirasida amalga oshirilib, unda gender tilshunosligining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy metod orqali gender tushunchasining ilmiy talqinlari, uning biologik jinsdan farqi va ijtimoiy konstrukt sifatidagi xususiyatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, qiyosiy-tipologik metod yordamida g'arb, rus, o'zbek va koreys tilshunosligidagi genderni oid qarashlar solishtirildi hamda genderning til birliklarida ifodalanishidagi umumiy va milliy-madaniy jihatlar aniqlandi. Diskursiv tahlil metodi orqali tilning androtsentrik xususiyatlari, jinsiy assimetriya va gender stereotiplarining nutqdagi namoyon bo'lish shakllari o'rganildi.

Gender tushunchasi zamonaviy ilmiy bilimdagi paradigmaning asosiy elementlaridan biri bo'lib, sinf, irq va millat kabi kontseptsiyalar bilan bir qatorda jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tahlil etishda muhim o'rin tutmoqda. Sovetdan keyingi davrda marksistik-leninistik dogmatikadan voz kechilishi bilan birga, akademik ilm-fan yangi nazariy yondashuvlarga ochiq bo'ldi, va gender yondashuvi shular jumlasiga kiradi. M.V.Laskovanning monografiyasida gender tadqiqotlarining tarixi batafsil ko'rib chiqilgan bo'lib, unda gender g'arbiy sotsiologiyadan olingan konstrukt ekanligi ta'kidlanadi, bu konstruktning asosida uch guruh xususiyatlar yotadi: biologik jins, jinsiy rol stereotiplari va gender display – jamiyat tomonidan belgilangan erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ko'p xil ko'rinishlari. "Gender – bu ijtimoiy konstrukt, real mavjud bo'lgan tizim bo'lib, u orqali erkak va ayol haqidagi tasavvurlar yaratiladi, tasdiqlanadi va qayta ishlab chiqariladi". Bu ta'rif genderni nafaqat fikriy konstrukt, balki jamiyatning ijtimoiy tartibining kategoriyasi sifatida ko'rsatmoqda, bunda biologik jins (sex)dan farqli o'laroq, gender ijtimoiy-madaniy funktsiyalarni ajratib ko'rsatmoqda. Muallif mulohazasi: Ushbu ta'rif tilshunoslikda genderning dinamik tabiati haqida chuqur tushuncha beradi, chunki u tilni ijtimoiy konstruktivizmning vositasi sifatida ko'rsatadi.

Gender tilshunosligi feminizmning til tanqididan kelib chiqqan bo'lib, tilning androtsentrikligini va jinsiy assimetriyani ochib bermoqda. D.O. Dobrovolskiy va A.V. Kirilinning ishlarida gender tadqiqotlarining heterogenligi ta'kidlanib, quyidagi yo'nalishlar ajratib ko'rsatilmoqda: 1) postmodernizm falsafasiga asoslangan yo'nalish, u tilning "fallogotsentrizmi"ni ochib berish uchun derridean dekonstruktivizmidan foydalanmoqda va

feminizmning ideologik angazhirovanligini yashirmaydi; 2) diagnostik tadqiqotlar, masalan, avtorlik ekspertizasi, unda jinsiy identifikatsiya uchun takrorlanuvchi belgilar to'plami aniqlanmoqda; 3) psixologiya va neyrolingvistika bilan bog'langan eksperimental tadqiqotlar, ular erkak va ayollarning kognitiv farqlarini, gormonal balansga asoslangan holda o'rganmoqda; 4) turli yo'nalishdagi sotsiolingvistik tadqiqotlar; 5) kross-madaniy va lingvokulturologik tadqiqotlar. Bu yo'nalishlar antroposentrik paradigmaning asosiy tamoyillariga mos kelmoqda, chunki tilni insonning madaniy va ijtimoiy tajribasi orqali talqin etmoqda. O'zbek olimlari orasida N.Xursanov (2024) o'zbek tilidagi gender tilshunosligi tadqiqotlarida erkak va ayollarning kommunikativ uslublaridagi farqlarni, masalan, kuchli nutqning obro'-e'tibor berishini tahlil etgan. Boshqa o'zbek tadqiqotchilar, masalan, "Gender Linguistics in Uzbek Linguistics Research" (2025) maqolasida gender masalalarining o'zbek tilshunosligida nisbatan kam o'rganilganligini ta'kidlab, kommunikatsiya munosabatlari va lingvistik xatti-harakatlardagi jinsiy farqlarni muhokama qilganlar. Koreys olimlari orasida Minju Kim (2022) "Performing Gender in Korean: Language, Gender, and Social Change" asarida koreys tilidagi muloyimlik darajalari orqali gender performativligini o'rgangan, bunda ayollarning ijtimoiy o'zgarishlardagi roli ta'kidlangan. Jieun Kiaer va Jiyoung Shin (2022) "A Linguistic Image of Womanhood in South Korea" kitobida koreys filmlari va K-popdagi ayollik tilini tahlil etib, madaniy stereotiplarni ochib bergan. Muallif mulohazasi: Ushbu olimlarning ishlarini qiyoslaganda, gender tilshunosligining universal va madaniy-spetsifik jihatlari yaqqol ko'rinadi; masalan, o'zbek tilidagi gender farqlari konservativ ijtimoiy normalarga, koreys tilidagi esa ierarxik muloyimlik tizimiga bog'liq.

Rossiyada gender tilshunosligining shakllanishi sovetdan keyingi davrda, feminizm ideologiyasining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha ideologik angazhirovanlik bilan kechdi. Dobrovolskiy va Kirilina ta'kidlaganidek, "SSRIda yashagan tadqiqotchilar marksistik ideologiyaning ilmiy izlanish erkinligiga qo'ygan cheklovlarini yaxshi bilishadi, shuning uchun boshqa ideologiya, shu jumladan feministik, ilm rivojiga yanada ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb aytishga asos yo'q". Rossiya gender tadqiqotlarida foydalanilgan chet el rusistlarining ishlarida androtsentrizmning gipobolizatsiyasi kuzatilmoqda, bunda tilning ichki qonuniyatlari (analogi, til iqtisodiyoti, fonologik xususiyatlar) hisobga olinmaydi. Til madaniyatning muhim parametrlarini aks ettirmoqda, shuning uchun jinsiy farqlarning noaniqligi yoki ifodalanish variantlarining ko'pligi ba'zi kommunikativ vaziyatlarda jinsning ahamiyatsizligini bildirmoqda. Kollektiv ongda jinsning ahamiyati turli madaniyatlarda farq qilmoqda, shuningdek, jins va

grammatik rod kategoriyasining psixologik bog‘lanishi ham. Tilning androtsentrikligi gender assimetriyasining asosiy belgisidir, unda erkaklar foydasiga jinsiy nomutanosiblik mavjud. Feministik tilshunoslik quyidagi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatmoqda:

1) "odam" va "erkak" tushunchalarining identifikatsiyasi (ko‘p tillarda ular bitta so‘z bilan ifodalanadi);

2) ayol rodidagi nomlarning hosila bo‘lishi;

3) erkak rodidagi nomlarni ayolga nisbatan qo‘llash mumkin va bu uning statusini oshirmoqda, aksincha, ayol rodidagi nomni erkakka nisbatan qo‘llash salbiy baho bermoqda;

4) inkluzivlik mexanizmi (o‘qituvchi – erkak ham, ayol ham);

5) sintaktik muvofiqlik;

6) feminlik va maskulinlikning keskin qarama-qarshiligi, unda erkaklik ijobiy va dominant sifatida qaralmoqda.

Bu assimetriya til orqali ayolning ikkinchi darajali roli va salbiy sifatlarini majburiy qilmoqda, bu tilning seksizmi deb atalmoqda. Kirilina ta’kidlaganidek, Rossiyada gender tadqiqotlari so‘nggi o‘n yillikda rivojlandi, lekin til va jins mavzusi psixolingvistikada ilgari ham mavjud edi, masalan, jinsiy yosh xususiyatlarining verbal kommunikatsiyaga ta’siri o‘rganilgan.

Rossiyada gender tadqiqotlari 1990-yillarda "Valday-96", "Volga-97" va "Azov-98" yozgi maktablari orqali faollashdi, 1999-yilda esa "Gender: til, madaniyat, kommunikatsiya" birinchi xalqaro konferentsiyasi o‘tkazildi. "Filologicheskie nauki" jurnalining 2000-yilgi uchinchi soni butunlay gender mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, ko‘pincha adabiyotshunoslik masalalariga e’tibor qaratilgan. Gender tadqiqotlari antroposentrik tilshunoslikka mos kelmoqda, chunki til madaniyatning ko‘zgusi sifatida insonning ruhiy olamini aks ettirmoqda. Tilshunoslikning antroposentrikligi tilni inson mavjudligi bilan bog‘lamoqda, gender esa bu bog‘lanishni jinsiy identifikatsiya orqali boyitmoqda. Gender termini inglizcha "gender" (rod, jins)dan olingan bo‘lib, lotincha "genus"ga borib taqalmoqda. Rus tilida "gender"ning to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q, bu ingliz tilidagi nazariyotchilarning ustunligini ko‘rsatmoqda. Kirilina ta’kidlaganidek, bu termin ba’zan noaniqlikka olib kelmoqda, chunki biologik jins va madaniy jinsni aralashtirmoqda. Rus tilida "gender" keng qo‘llanilmoqda, ammo ba’zilar "ijtimoiy jins"ni afzal ko‘rmoqda. N. Xursanov "rus tilida mos simvolik shakllari bo‘lmagan tushunchalarni qo‘llashga qarshi" chiqmoqda. Kosyx ta’kidlaganidek, biologik jins leksik birliklarning qiymat komponenti bo‘lib, gender esa individning jamiyatda qabul qilingan maskulinlik yoki feminlik modeliga "kirish" jarayoni va natijasini aks ettirmoqda.

Gender tilshunosligi sotsiolingvistikaning mustaqil sohasi sifatida qaralmoqda, chunki "til va jins" mavzusi sotsiolingvistikada paydo bo'lgan. O. Yespersen (1925) erkak va ayol tiliga alohida bob bag'ishlab, ayollarning monolingvalligi, konservativligi va evfemizmga moyilligini ta'kidlagan. Sotsiolingvistika 1960–1970-yillarda statistik materiallar orqali ayollarning prestijli talaffuz variantlarini, erkaklarning esa qo'pol ifodalarni afzal ko'rishini aniqladi. Lakoff (1973) tilning androtsentrikligini va ayol obrazining nuqsonligini ko'rsatib, assimetriya mexanizmlarini ochib berdi. Genderlekt tushunchasi erkak va ayol nutqining doimiy belgilar to'plamini bildirmoqda: ayollarning bilvosita nutqiy aktlari, muloyimlik va yumshoqlik formalarining ustunligi, dominantsiyaning yo'qligi. Aralash guruhlarda bu xatti-harakatlar ayollarni "eshitilmagan" qilmoqda, shuning uchun maxsus taktikalar ishlab chiqilgan. Zemskaya (1993) ayollarning fatik nutqiy aktlarga moyilligini, rollarni oson almashtirishini va assotsiativ maydonning gumanistikligini aniqlagan. Ammo 1990-yillarda genderlektning mavjudligi rad etildi, chunki farqlar inventar emas, balki ehtimollik xarakteriga ega. Koreys olimi Hakyoon Lee (2019) koreys tilidagi gender identifikatsiyasini o'rganib, ayollarning muloyimlik darajalarini ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'lagan. O'zbek tadqiqotlarida, masalan, "Gender-based comparative analysis of respect in linguistic expression" (2025) maqolasida o'zbek va yapon tillaridagi hurmat ifodalarning jinsiy farqlari taqqoslangan.

O'zbek va koreys tillarida emotsional ifodalarning jinsiy farqlari madaniy stereotiplarga asoslanmoqda: masalan, o'zbek tilida ayollarning emotsional leksikasi (mehribonlik, yumshoqlik) erkaklarnikiga nisbatan ko'proq evfemistik bo'lishi mumkin, koreys tilida esa ierarxik munosabatlar emotsional noverbal vositalarni ta'sir qilmoqda. Bu farqlar antroposentrik paradigmaning asosida, tilning insonning madaniy tajribasini aks ettirishi orqali tahlil etilmoqda. Muallif mulohazasi: O'zbek va koreys tillaridagi taqqosiy tahlil gender tilshunosligining kross-madaniy potentsialini ochib beradi, chunki koreys tilidagi gender performativligi o'zbek tilidagi ijtimoiy rol farqlariga qarama-qarshi qo'yilganda, emotsional vositalarning universal va lokal xususiyatlari yaqqol ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, antroposentrik paradigmada gender tilshunosligi tilning ijtimoiy konstruktivligini ochib bermoqda, jinsiy assimetriyani tahlil etmoqda va nutqiy emotsionallikning gender tabiatini o'rganishga asos yaratmoqda. Bu yondashuv o'zbek va koreys tillaridagi verbal va noverbal vositalarning jinsiy farqlarini chuqur tushunishga yordam bermoqda, chunki til insonning madaniy identifikatsiyasining ko'zgusi sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // Эстетика словесного творчества. – М., 1986.
2. Даниленко В.П. Дисциплинарная структура грамматики // Филол. науки. – М., 1992. – № 3.
3. Добровольский Д.О., Кирилина А.В. Феминистская идеология в гендерных исследованиях и критерии научности // Гендер как интрига познания. – М., 2000.
4. Земская Е.А., Китайгородская М.А., Розанова Н.Н. Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании. – М., 1993.
5. Ильин И.П. Постструктурализм. Деконструктивизм. Постмодернизм. – М., 1996.
6. Карцевский С.И. Из лингвистического наследия. – М., 2000.
7. Кибрик А.Е. Очерки по общим и прикладным вопросам языкознания. – М., 1992.
8. Кирилина А.В. Женский голос в русской паремиологии // Женщина в российском обществе. – М., 1997. – № 3.
9. Кирилина А.В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // Филол. науки. – М., 1998. – № 2.
10. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М., 1999.
11. Кирилина А.В. О применении понятия «гендер» в русскоязычном лингвистическом описании // Науч. докл. высш. шк., Филол. науки. – М., 2000. – № 3.

FILOLOGIYA

BADIIY MAHORAT QIRRALARI

**Umida Mansurova,
mustaqil tadqiqotchi**

UO‘K: 947 (32)

Annotatsiya: Maqolada Odil Yoqubov asarlari tahlili orqali badiiy mahorat qirralari, estetik ta’sirchanligi, go‘zallik, ulug‘vorlik va fojiaviylik kabi kategoriyalari bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируются произведения Одиля Якубова, освещаются аспекты, относящиеся к таким категориям, как художественное мастерство, эстетическое воздействие, красота, величие и трагедия.

Annotation: The article analyzes the works of Odil Yakubov, highlighting aspects related to artistic skill, aesthetic impact, and categories such as beauty, grandeur, and tragedy.

Kalit so‘zlar: Adib, asar konsepsiyasi, badiiy mahorat, badiiy detal, dramatism, ijodkor, yozuvchi estetik pozitsiyasi, personaj, zamon va qahramon muammosi.

Ключевые слова: писатель, концепция произведения, художественное мастерство, художественная деталь, драматургия, создатель, эстетическая позиция писателя, персонаж, проблема времени и героя.

Key words: Writer, concept of the work, artistic skill, artistic detail, dramatism, creator, aesthetic position of the writer, character, time and hero problem.

Yozuvchi badiiy mahorati o‘z-o‘zidan shakllanib, yuksalib qolmaydi. Bunda yozuvchining voqelikni badiiy idrok etishi, estetik didi, emotsionalligi, obrazli tafakkuri, ijod bilan bog‘liq jarayonlar muhim rol o‘ynaydi. Zero, badiiylik deganda go‘zallik va nafosatni kashf etish, uni boshqalarga ham yuqtira olish ham nazarda tutiladi. “Badiiylik go‘zallik, ohorlilik, nafislik demakdir”¹. Badiiylik zahirida go‘zallik, nafis san’atga aloqadorlik mavjud. Adabiyotshunos H.Boltaboyev fikricha badiiylik tushunchasi “...ancha keng qamrovda bo‘lib, uning zahirida estetik jihatlari, ma’rifiy xususiyatlar, yangilikni anglatish, go‘zallikni his qilish, tuyg‘ular tarbiyasi, muallif va kitobxongina emas, balki

¹ Тўйчиев У.Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011 – Б. 3.

butun adabiy jarayon kommunikatsiyasi kabilar umumlashgan”¹ jihatlar yetakchilik qiladi. Olim badiiy asar yaralishida muallif niyatining o‘rniga e’tibor qaratadi. Asar yaralishida badiiylik va obrazlilikni, estetik ta’sirchanlikni ta’minlash ijodkor shaxsning olamni qanday idrok etishi, iste’dodi, tabiati, hayotiy tajribasi, umumiy madaniy saviyasi muhim halqa ekani haqli ravishda ta’kidlanadi.

Tadqiqotchi fikricha: “...Ijodiy niyat tug‘ilishi jarayonida badiiy asar mazmuni hali pishib yetilmagan, ammo asarning umumiy g‘oyasi belgilangan bo‘ladi; ijodkor niyatini badiiy matnning shakl-shamoyilidan bilib olish mumkin, chunki unda badiiy asar mavzuiga yondashuv shakllari aks etgan bo‘ladi. Hali pishib yetilmagan belgilar, tovushlar, so‘zlar surat (obraz)ga aylanish jarayoni kuzatiladi. Ijodiy niyatning tug‘ilishi va uning betakror o‘ziga xosligi shaxs ruhiyatining teran qatlamlaridan kelib chiqadi”². Shuningdek, muallifning o‘ziga xosligini, hayotdan olgan xulosalarini baholash jarayonida yuzaga chiqadigan badiiy did ham poetik mahoratni belgilovchi muhim kategoriyalardan sanaladi. Shu ma’noda “badiiy did – estetik munosabat, baholash, hayotdan olingan taassurotlarni ijodiy qayta ishlash jarayonida yuzaga chiqadigan muallifning o‘ziga xosligi. Badiiy did har doim ijodkor dunyoqarashini shakllantiradigan estetik hodisalar asosiga quriladi, uning iste’dodi tabiati va ijodiy tajribasidan kelib chiqib rivojlantiriladi”³.

Asarining badiiy yuksak bo‘lishi ko‘p jihatdan ijodkor didining darajasiga ham bog‘liq. Maryam Yoqubova xotiralarida Odil Yoqubov ijod qilishdan avval yuvinib taranishi, soqollarini hafsala bilan olishi, yozuv stolini tozalab artib, gazeta yozib ijod jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi haqidagi ma’lumotlarni o‘qiymiz. Yozuvchi tabiatidagi saronjom-sarishtalik, go‘zallikni his qilib, uni asrab-avaylashga intilishida ham ko‘rinadi. Ayni shu jihatlar asarlariga ham ko‘chgani kuzatiladi. Adib asarlarining emotsional jihatdan boy bo‘lishi, tuyg‘ularining sermavj ekani, so‘z tanlashdagi mas’ulligi badiiy mukammallikka asos bo‘lganligini his qilamiz. Binobarin, yozuvchi asarlarida bo‘y ko‘rsatayotgan poetik nafosat yozuvchi shaxsiyatidan, uning qalb go‘zalligidan o‘sib bunyod bo‘lganini bilish mumkin.

Ma’lumki, badiiy mukammallikning muayyan qirradi yuksak g‘oyaviylik, go‘zallik, ulug‘vorlik, fojiaviylik kabi g‘oyat muhim estetik kategoriyalar bilan ham bog‘langan.

¹ Болтабоев Н. Адабиёт энциклопедияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 20019 – Б. 9.

² Болтабоев Н. Адабиёт энциклопедияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 20019 – Б. 14.

³ Болтабоев Н. Адабиёт энциклопедияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 20019 – Б. 13.

G‘oyaviylik badiiy asar konsepsiyasini belgilab beruvchi mazmuniy birlik sanaladi. Har qanday asar yaratilishida yozuvchining u yoki bu tarzda g‘oyaviy niyati, maqsad-muddaosi yotadi. Ijodkor voqelikka bo‘lgan estetik munosabatini, hayot haqiqati haqidagi anglamlarini asar g‘oyasi mazmun- mohiyatiga singdirib yuboradi.

Bu anglamlar qanchalik teran, haqqoniy, falsafiy mushohadakor bo‘lsa aslida shunchalik g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak, estetik jihatdan gg‘zallashib boraveradi. Zero, go‘zallik keng tushuncha bo‘lib, san‘at va adabiyotda insoniylikni ulug‘lash, yaratuvchalik, qalb pokligi, muhabbat va sadoqatni kuylash kabi tuyg‘ular bilan namoyon bo‘ladi. Badiiy asarda go‘zallikning ikki qirralari - botiniy va zohiriy ma‘nolari haqida M.Qo‘shjonov: “Biri – hayotning o‘zidagi go‘zallik, ikkinchisi – inson faoliyati natijasi sifatida badiiy asar namunalarining go‘zal yaratilishidir”,¹ deb yozadi. Olim ijodkorlar odamlararo munosabatlarda boshqalar ilg‘amagan go‘zallik qirralarni topa olishi, uni xunuklik va eskilikdan ajratib san‘at va adabiyot qonuniyatlari asosida ta’sirchan qilib kitobxonga yetkazish oson kechmasligini ta’kidlar ekan: “Kishilararo munosabatlarda ro‘y beradigan hayot go‘zalliklarini, “mana men”, deb ko‘zga yarq etib tashlanavermaydigan hayot murakkabliklari orasida yashiringan, aksariyat paytlarda hayotning mayda iker-chikirlariga ko‘milgan go‘zallik namunalarini, chinakam iste’dodli realistlargina o‘z vaqtida butun borlig‘i, ko‘rkamligi bilan his qilib anglay oladi”,² degan mulohazani ilgari suradi. Munaqqid shu tariqa adiblar o‘z asarlari orqali go‘zallikni boshqalarga ham his qildirish va anglab olishlarida vositachi bo‘la olishini asoslaydi. Binobarin, Odil Yoqubov yaratgan asarlarning nafaqat adabiy jamoatchilik, balki keng kitobxonlar ommasiga ham birdek estetik ta’sir etishining asosiy omillaridan biri ham go‘zallik tuyg‘ulariga boyligi bilan belgilanadi.

“Muqaddas”da Sharifjonning qilgan ishidan pushaymon bo‘lishi, “Bir feleton qissasi”da muxbir Uchqun va Qulahmadning o‘z ayblariga iqror bo‘lib vijdon azobida qiynalishlari, so‘ng o‘zlariga jabr qilib bo‘lsada adolatli xukm chiqarib vijdon rohatiga erishishi, “Billur qandillar”asarida Nilufarning kech bo‘lsa-da, samimiy va pok muhabbatni angab yetishidagi insoniy fazilatlar shundan darak beradi. Sof vijdon, adolat va diyonat, muhabbat va sadoqat, odamiylik g‘oyalarini ulug‘lash, bu xislatlarni, insoniy munosabatlarni qissa qahramonlarining murakkab hayot yo‘llari va kechinmalari fonida yuksak

¹ Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 20018 – Б. 300.

² Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 20018 – Б. 303.

dramatizm bilan tasvirlash adib asarlarining ma'rifiy va estetik ta'sir kuchini oshirishga yordam bergan.

Adib qissalarida qahramonlar tiynatidagi ulug'vorlik xislatlari ham estetik ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Ijodkor yaratgan ijobiy obrazlar o'zining orzu-umidlari, ideallari bilan kitobxon qalbini rom etadi. Yaratilgan har bir obraz, ayniqsa, bosh qahramoning maqsad va amallarida ezgu fazilatlarining mujassam etilishi ulug'vorlikni yuzaga keltiruvchi omillar sanaladi. Munaqqid fikricha, "Hamma yozuvchi va san'atkorlar ham o'z idealiga mos ijobiy qahramon yaratish uchun intiladilar. Biroq bu ish nihoyatda mas'uliyatli va murakkab ish. Ba'zan ideal qahramon yarataman deb yozuvchi va san'atkorlar realistlik bo'yoqlar ishlatish o'rniga qahramon shaxsiyatida bo'lishi mumkin bo'lgan xislatlarga voqeaviy dalillar (illyustratsiya) keltirish bilan band bo'ladilar, oqibatda hayot haqiqatidan uzoq, ma'lum bir qolipga tushgan, biri-biridan kam farq qiladigan obrazlar paydo bo'ladi"¹. Olimning tanqidiy qarashlarida jon bor, albatta. Badiiy obrazning yashavchanligi va estetik ta'sirchanligi uning individual qiyofa va xarakteri bilan, o'zida ulug'vorlik va go'zallikni bevosita yoki bilvosita aks ettiruvchi jonli va hayotiy tiynati bilan ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Odil Yoqubov yaratgan ko'pgina qahramonlar ayni talablarga javob beradigan, individual qiyofaga ega yashovchan obrazlar sifatida bugungi kitobxonlar ma'naviy olamini ham boyitishga xizmat qilmoqda. "Bir feleton qissasi" da Uchqun, Kamol va Saltanat, "Muqaddas"da Sharif va Muqaddas, "Billur qandillar"asarida Hikmatillo, "Matluba"da Matluba shunday yuksak insoniy g'oyalarni ifodalovchi shunday ulug'vor obrazlar sanaladi.

Go'zallikning yana bir qirradi fojiaviylik bilan uzviy bog'langandir. Fojiaviylik badiiy asarda go'zallikni ulug'lash, dramatizmni yanada kuchaytirish, estetik ta'sirchanlikni oshirish maqsadida qo'llaniladi. Aksariyat asarlarning fojiaviy yakun topishida san'atkor tasvir etgan go'zallikning ikki jihati mavjudligi haqida adabiyotshunos M.Qo'shjonov shunday fikr yuritadi. "Birinchidan, ilg'or shaxsning kitobxon va tomoshabinlarga o'rnak bo'larlik ijobiy xususiyatlarini birinchi planga chiqargan holda tasvirlaydi, unga qandaydir havas uyg'otadi. Shu yo'l bilan u o'quvchining ruhiy dunyosiga ta'sir o'tkazadi. Qahramon xarakteridagi go'zallikni unga yuqtiradi. Ikkinchidan, qahramonning fojiaviy holatlarini ko'rsatib, kitobxonga ijobiy qahramon xislatlarining tasviridan olgan ruhiy boylikni yana bir bor oshiradi. "Qutlug' qon"dagi Yo'lchi xarakteri tasvirining o'zi kitobxonga katta ruhiy ozuqa beradi. Uning fojiaviy o'limi esa kitobxon olgan ruhiy ta'sirni yana ham mustahkamlaydi"². Masalaga shu tamoyil

¹ Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 20018 – Б. 313.

² Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2018 – Б. 314.

asosida yondashsak, Odil Yoqubovning “Diyonat” romani qahramoni Normurod Shomurodovning fojiaiy qismati tasviri orqali yozuvchi quyidagi ikki maqsadni koʻzda tutgan deyishimiz mumkin. Birinchidan, asarda ziyoli olimning chin insoniy fazilatlarini, sofdillik, vijdonlilik va adolatparvarlik kabi ijobiy jihatlari ulugʻlanib, kitobxonda unga nisbatan havas uygʻotish koʻzda tutilgan boʻlsa, ikkinchidan Normurod Shomurodovning bir umr oʻzi eʼtiqod qoʻygan tuzum qurboniga aylanishi orqali shoʻro hukumatining fojilikka mahkum ijtimoiy-maʼnaviy inqirozini koʻrsatib bera olgan. Zero, yozuvchi asarni 1973-1979 yillar oraligʻida yozganiga eʼtibor qaratsak, tuzum inqirozining badiiy kartinasi muallif jasorati va bashoratgoʻylikidan ham dalolat beradi.

“Muqaddas”da Sharifjon xarakteri kitobxonning mehrini qozonsa, uning fojiaiy muhabbat qissasi kitobxon olgan ruhiy taʼsirni yana-da kuchaytiradi. “Bir feleton qissasi”da rais Kamolning maʼrifatli va oqil maʼnaviy qiyofasi tasvirining oʻzi oʻquvchi qalbini rom etsa, uning sof muhabbat qissasida sevgisining rad etilishi, fojiaiy ayriliq kitobxon qalb kechinmalaridagi taʼsirchanlikni yana-da yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yoʻldosh yozadi: “Ijod mahsuli ijodkor shaxsiyatidan oʻzgacha boʻlmaydi. Ijodkor va asar munosabatini ogʻoch va uning mevasiga oʻxshatish mumkin. Biror meva uni yetiltirgan ogʻochdan ortiq boʻlmagani kabi badiiy asar ham uning muallifi darajasidan baland boʻlmaydi”¹. Bu fikrni shu maʼnoda qabul qilish mumkinki, yozuvchi hayotiy voqelikni qalban qayta yaratar ekan, shubhasiz asariga oʻz “men”i, shaxsiyati, ruhiyati muhrlanib qolgan kechmishidan bir parchasini ham singdirib yuboradi. Binobarin, yozuvchi oʻz qarashlarida, oʻylovlarida, yaratgan asarlarida nafaqat tashqi olamni, balki oʻz boshidan kechirgan xarakterli voqea-hodisalarni ham singdirishi, epizodik manzaralar yaratishi, gʻoyaviy-badiiy xulosalar chiqarishi, yaʼni biografik tasvirdan unumli foydalanishi mumkin.

“Badiiy asar – xoh u lirika, xoh nasr, xoh drama boʻlsin – yozuvchining ijod mahsuli. Farzand ota-onaga oʻxshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi”²

Yozuvchi asarlarida bunday shaxsiyat bilan bogʻlangan hayotiy lavhalar koʻplab uchrashi ham shundan dalolat beradi.

Odil Yoqubov yaratgan qahramonlar ham oʻzi kabi haqparvar. Ijodkor dil tubidagi orzu-istaklari, niyatlari va armonlarini personajlarining taqdiriga

¹ Йўлдошев. Қ. Сўз ёлқини. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2018. Б 336

² Расулов А. Танқид. Талқин. Баҳолаш. – Тошкент, 2006-йил. – 75 б.

ko‘chirib, qalb jarohatiga malham izlagandek, go‘yo. Uning “Adolat manzili” romanidagi Lochin tilidan aytilgan quyidagi gaplarga e’tibor beraylik: “Adolat qidirgani safarga chiqdim. Bu yo‘l juda uzoq bo‘ladi. Balki bir necha yillar, balki o‘n yillar ketar, adolatni tiklab, otamning nomini oqlashimga... Demoqchimanki, boshimga ne savdolar tushmasin otamning nomini oqlayman, uning halol inson ekanligini isbotlayman, adolatni tiklamay qaytmayman...”¹ Bu satrlar ortida adibning haqqparvar siymosi turganini sezish qiyin emas.

Odil Yoqubov turli obrazlarni yaratib, milliy nasrimizni o‘ziga xos qahramonlar bilan boyitdi. Bu asarlardagi aksariyat obrazlar chin muhabbat va samimiy tuyg‘ular egasi. Bu samimiy tuyg‘ular orqali asar qahramonlari goho yaxshilik topsa, goho buning aksi. Goh jamiyatda o‘z o‘rnini topdi, goh oilasida. Adib asarlarida voqealar rivojini shunchaki bayon qilib qo‘ya qolmaydi, balki qahramon ruhiyatini, xayol jilvalarini yoritishga harakat qiladi. Shuning uchun ham Sharif va Muqaddas, Vohid va Roziya, Saltanat va Kamol, Samig‘ va Matluba, Hikmatilla va Nilufar, Akram va Sayyora, Saltanatxon va Davron kabi obrazlar huddi bizga zamondoshdek, ular bilan hamsuhbat bo‘lganimizdek taassurot qoldiradi. Ularning iztiroblaridan kuyunib, qaynoq muhabbatidan esa zavq olamiz. Olamdan ko‘z yumganda esa Davron, Suyun obrazlari kabi manguqlikka qadam qo‘yganlari uchun iztirob chekib ko‘zga yosh olamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, Odil Yoqubov adabiyot olamida o‘z o‘rnini topib, o‘z so‘zini ayta olgan va milliylikimizni asarlariga singdirib, go‘zallikni tarannum etgan yozuvchi sifatida kitobxon mehrini qozongan. Uning asarlari insonlarning estetik didini tarbiyalab, ma’naviyatini boyitish orqali adibning ikkinchi umri bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Болтабоев Н. Адабиёт энциклопедияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019.
2. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
3. Ёқубов Одил. “Адолат манзили”. – Тошкент, 1996.
4. Йўлдошев. Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2018.
5. Расулов А. Танқид. Талқин. Баҳолаш. – Тошкент, 2006.
6. Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2018.

¹ Ёқубов Одил. “Адолат манзили” – Тошкент, 1996-йил. – 163 б

FILOLOGIYA

INGLIZ TILIDA SO‘ROQ GAPLARNING SO‘ZLASHUV NUTQIDAGI KOMMUNIKATIV VA FUNKSIONAL O‘RNI



Qodirova Dilnura,
Urganch davlat
universiteti
magistranti

UO‘K: 941 (62)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi so‘roq gaplarning so‘zlashuv nutqidagi kommunikativ va funksional o‘rni lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida so‘roq gaplarning asosiy turlari — umumiy (Yes/No), maxsus (Wh-), ajratilgan (tag questions) va muqobil so‘roq gaplarning og‘zaki muloqotdagi vazifalari yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируется коммуникативная и функциональная роль вопросительных предложений в разговорной речи английского языка с лингвистической и прагматической точек зрения. В ходе исследования рассматриваются основные типы вопросительных предложений — общие (Yes/No), специальные (Wh-), разделительные (tag questions) и альтернативные вопросы, а также их функции в устной коммуникации.

Annotation: This article examines the communicative and functional roles of interrogative sentences in spoken English from linguistic and pragmatic perspectives. The study analyzes the main types of interrogative sentences—Yes/No questions, Wh-questions, tag questions, and alternative questions—and their functions in oral communication. Special attention is paid to the role of intonation, context, and communicative situation alongside grammatical structure.

Kalit so‘zlar: so‘roq gaplar, so‘zlashuv nutqi, ingliz tili, kommunikativ funksiya, pragmatika, intonatsiya, og‘zaki muloqot, dialog.

Ключевые слова: вопросительные предложения, разговорная речь, английский язык, коммуникативная функция, прагматика, интонация, устная коммуникация, диалог.

Key words: interrogative sentences, spoken discourse, English language, communicative function, pragmatics, intonation, oral communication, dialogue.

Til inson hayotida g'oya almashish, aloqa-aralashuvning eng muhim vositasi sanaladi. U yozma va og'zaki nutq davomida o'z ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi. So'zlashuv nutqi (spoken discourse) inson muloqotining eng muhim vositalaridan biri sanalib, u insonlarning oilada, ko'cha-ko'yda g'oya almashinuvi vaqtida foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubi, ko'pincha dialog shaklida bo'ladi. Ingliz tilida so'roq gaplar (interrogative sentences) esa bu jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi, chunki ular axborot olish, fikr bildirish, tasdiqlash, shubhalarni aniqlash va tinglovchining e'tiborini jalb qilish kabi turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. So'zlashuv nutqida so'roq gaplar grammatik va pragmatik jihatdan yozma nutqdan farq qiladi. Ular tez-tez qisqartiriladi, intonatsiya va pauza orqali ma'noviy bo'yoqdorlik oshadi, turli matnlarda esa turlicha talqin qilinadi. Masalan, Yes/No savollar tinglovchining javobini kutish vositasi sifatida ishlatilsa, Wh- savollar aniq ma'lumot olishga mo'ljallangan. Shu bilan birga, so'zlashuv nutqida so'roq gaplarni o'rganish chet tillarini o'rganish, lingvistik tadqiqot va chet tillarini o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilidagi so'roq gaplarning so'zlashuv nutqida bajaradigan kommunikativ va funksional rolini tadqiq qilish, ularning tuzilishi, pragmatik va fonetik xususiyatlarini aniqlash hamda turli so'roq gap turlarining so'zlashuv jarayonidagi o'rnini yoritishdir.

Tadqiqotda nazariy manbalar, so'zlashuv matnlari va real muloqot misollaridan foydalanib, so'roq gaplarning nutqdagi o'ziga xosligi yoritildi hamda ingliz olimlarining leksikologiya va sintaksisga bag'ishlangan asarlari asosida yoritilgan.

Tahlil jarayonida semantik-uslubiy, kontekstologik tahlil metodi, komponent tahlil, chog'ishtiruv metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar ishga chuqurroq yondashishga hizmat qiladi.

Ingliz tilida so'roq gaplar (interrogative sentence) asosan quyidagi shakllarda uchraydi. Bular: maxsus so'roq gaplar (special questions), umumiy so'roq gaplar (general questions), tasdiq so'roq gaplar (disjunctive questions) va muqobil so'roq gaplar (alternative questions) [4, 82]. Maxsus so'roq gaplar (special questions) gapning biror bo'lagi bo'lib, Who, What, Whose, How, When, Where va boshqa so'roq so'zlar bilan boshlanadi. Umumiy so'roq gaplar gapning boshida, eganing oldiga yordamchi fe'l yoki modal fe'lni qo'yish bilan yasaladi. Umumiy so'roq gaplarning bir turi tasdiq so'roq gaplardir. Tasdiq so'roq gaplarda bo'lishli yoki bo'lishsiz darak gapga qisqa umumiy so'roq gap qo'shiladi. Bu so'roq gap bosh gapdagi fe'lga mos yordamchi yoki modal fe'ldan va boshqa gapning egasiga mos bo'lgan kishilik olmoshidan iborat bo'ladi. Tasdiq so'roq gaplar gapiruvchi o'zining aytgan fikriga tasdiq olishni istaganida ishlatiladi.

Gapiruvchi bo'lishli tasdiq olishni istasa, so'roq gapdan oldingi darak gap bo'lishli shaklda so'roq gapdagi yordamchi yoki modal fe'l bo'lishsiz shaklda ishlatiladi. Agar gapiruvchi bo'lishsiz javob olishni istasa, so'roqdan oldingi darak gap bo'lishli bo'ladi va so'roq qismidagi yordamchi yoki modal fe'l bo'lishli shaklda bo'ladi. Maxsus so'roq gaplar gapning biror bo'lagiga beriladi va who? Kim?, what? Nima? Which? Qaysi? When? Qachon? Where? Qayerda? Why nima uchun? How? Qanday? how much? Qancha? Kabi so'roq so'zlar yoki so'zlar guruhi bilan boshlanadi [5, 93]. Muqobil so'roq gaplar or bog'lovchisi bilan bog'langan ikkita umumiy so'roq gapdan iborat bo'ladi. Odatda ikkinchi so'roq gap to'liq bo'lmaydi. Muqobil so'roq gap egaga berilgan bo'lsa, ikkinchi egadan oldin doim yordamchi fe'l yoki modal fe'l keladi. Bunday so'roq gaplarga har qanday egaga berilgan so'roq gaplarga o'xshab, qisqa javob beriladi:

Did you speak to them, or the manager?

-the manager did

Ular bilan siz gaplashdingizmi yoki

-menejer [2, 113]

menejer?

So'zlashuv nutqida so'roq gaplarning ishlatilishi o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Xususan, qisqartirilgan shakllar va tez-tez ishlatiladigan frazalar uchraydi:

“What d’you mean?”, “Where to?”, “Have you seen it?”

Bu nutq uslubida intonatsiya alohida rol o'ynaydi. Jumladan, *Tag questions* intonatsiya orqali tasdiqlash yoki so'rov funksiyasini bajaradi:

You're coming, aren't you?

Bu misolda yuqoriga intonatsiya – haqiqiy so'rov, pastga intonatsiya – tasdiqlashni kutishni ifodalaydi. So'zlashuv nutqida so'roq gaplar intonatsiya, pauza va ritm orqali ma'no yuki oshiriladi. Pragmatik nuqtai nazardan, so'roq gaplar tinglovchining javob berishiga yo'naltirilgan, shuningdek, muloqotda suhbatni boshqarish, suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish va izoh berish imkonini beradi [3, 156]. So'roq gaplar tinglovchining javobini jalb qilish, suhbatni boshqarish va izoh berishga yordam beradi:

Could you pass the salt? (so'rov)

Do you really think so? (fikrni aniqlash)

Misol suhbat tahlili:

A: Have you seen the latest report? (Yes/No savol, axborot olish)

B: Yes, I have.

A: Who prepared it? (Wh- savol, aniq ma'lumot olish)

B: John did.

A: It's quite detailed, isn't it? (Tag question, tasdiqlashni so'rash) [1, 243]

Ushbu misolda Yes/No savol axborot olishga xizmat qilsa, Wh- savol konkret javobni olishga mo'ljallangan va tag question suhbatdoshning roziligini aniqlash vositasi sifatida ishlatilgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'roq gaplar so'zlashuv nutqida faqatgina axborot olish vositasi sifatida emas, balki murakkab kommunikativ-pragmatik birlik sifatida keng foydalaniladi. So'zlashuv jarayonida so'roq gaplarning funksional yuklamasi ularning grammatik shakliga nisbatan ancha kengroq bo'lib, matn, intonatsiya va nutqiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada ingliz tilida so'roq gaplarning so'zlashuv nutqidagi kommunikativ va funksional o'rni kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'roq gaplar og'zaki muloqotda faqat axborot olish vositasi bo'lib qolmay, balki suhbatni tashkil etish, uni boshqarish va nutqiy aloqani samarali yo'lga qo'yishda muhim pragmatik birlik sifatida xizmat qiladi. So'zlashuv nutqida so'roq gaplarning ma'nosi ko'p hollarda ularning grammatik shakliga emas, balki kontekst, intonatsiya va kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi.

Tahlillar ingliz tilidagi Yes/No savollar, Wh- savollar va ajratilgan savollarning (tag questions) har biri so'zlashuv jarayonida o'ziga xos funksional yuklamaga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, Yes/No savollar suhbatni boshlash yoki davom ettirishda, Wh- savollar axborotni aniqlashtirishda, ajratilgan savollar esa suhbatdoshning roziligini aniqlash, fikrni yumshatish hamda muloqotda yaqinlikni ta'minlashda faol qo'llaniladi. Bu holat so'roq gaplarning funksional imkoniyatlari ularning formal-sintaktik tuzilishidan kengroq ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida so'roq gaplarning pragmatik qayta talqin qilinishi alohida ahamiyat kasb etishi yoritib berildi. Grammatik jihatdan so'roq shaklida bo'lgan gaplar so'zlashuv nutqida ko'pincha iltimos, taklif, tanbeh yoki shubha ifodasi sifatida aks etadi. Bunday holatlar bilvosita nutq aktlari nazariyasi doirasida izohlanadi va so'roq gaplarning kommunikativ imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Umuman olganda, ingliz tilida so'roq gaplar so'zlashuv nutqida kommunikativ jarayonni faollashtiruvchi, interaktivlikni ta'minlovchi va muloqot samaradorligini oshiruvchi muhim lingvistik vosita sanaladi. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish metodikasi, nutq pragmatikasi va og'zaki muloqot nazariyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Carter, R., & McCarthy, M. Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide. Cambridge University Press, 2006
2. John Eastwood Oxford Practice Grammar Oxford University press, 1999
3. Levinson, S. C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983
4. M.G'apporov, R.Qosimova Ingliz tili grammatikasi Toshkent Turon-Iqbol, 2017
5. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London: Longman, 1985

FILOLOGIYA**LIRIK OBRAZLILIK ILDIZLARI VA FALSAFIY-ESTETIK TADRIJI**

**Munisjon Hakimov,
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti,
katta ilmiy xodim,
f.f.b.f.d (PhD)**

UO‘K: 941 (62)

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunoslik fanining poydevori bo‘lmish badiiy obrazlilik kategoriyasining antik davr estetikasidagi genezisi tadqiq etiladi. Tadqiqotda “obraz” tushunchasining xristianlik diniy ramzlaridan (xoch) ancha avval yunon falsafasining “eykon” kategoriyasi negizida shakllanganligi manbalar asosida isbotlanadi.

Аннотация: В статье исследуется генезис категории художественной образности в античной эстетике как фундаментальной основы литературоведения. На основе первоисточников доказывается, что понятие “образ” сформировалось на базе древнегреческой категории “эйкон” задолго до появления христианских религиозных символов (креста) и обладает онтологическим приоритетом.

Annotation: The article explores the genesis of artistic imagery in ancient aesthetics as a fundamental category of literary studies. Based on primary sources, the study proves the ontological priority of the Greek category “eikon”, demonstrating that the concept of “image” was established long before Christian religious symbols (the cross).

Kalit so‘zlar: Aflotun, Arastu, logos, eykon, fantazma, eydolon, obrazlilik, mimesis, enargeya, antik estetika.

Ключевые слова: Платон, Аристотель, логос, эйкон, фантазма, эйдолон, образность, мимесис, энаргея, античная эстетика.

Key words: Plato, Aristotle, logos, eikon, phantasma, eidolon, imagery, mimesis, enargeia, ancient aesthetics.

Adabiyotshunoslik nazariyasida “obraz” muayyan konkretlikni anglatga, “obrazlilik” (imagery) tushunchasi matnning estetik sifati va tilning badiiy yashash tarzini ifodalaydi. Ushbu kategoriyaning ontologik ildizlari Antik Yunon estetikasiga borib taqaladi. Yunon mutafakkirlari uchun obrazlilik shunchaki voqelik nusxasi emas, balki olamning ichki tartiboti – logosni badiiy tilga ko‘chirish mexanizmidir. Lirik obrazlilik – bu logosning (ma’noning) hissiy shakl (obraz) kasb etishi sifatida talqin etiladi.

Logos tushunchasini ilk bor falsafiy kategoriya sifatida Geraklit (mil. avv. VI – V asrlar) tizimlashtirgan [1.15–20]. Mutafakkirga ko‘ra, logos borliqning “ichki skeleti” bo‘lib, obrazlilik ushbu skeletni badiiy “go‘sh va teri” bilan qoplash jarayonidir. Antik estetika va poetikada lirik obrazlilikning nazariy asosi olamning ichki tartiboti va koinot qonuniyati bo‘lmish logos (yunoncha logos – so‘z, fikr, qonun, tartibot) kategoriyasiga tayanadi. Logos – bu shunchaki “so‘z” emas, balki borliqning rasional tuzilishini, tabiat va inson tafakkuri o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlovchi oliy mezondir.

Aflotunning “X kitob” [2] va “Sofist” asarida obrazlilik masalasiga ontologik va gnoseologik yondashiladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, badiiy obrazlilik haqiqatdan uch bosqich uzoqlikdagi hodisadir [3.390–393]. Faylasuf o‘z fikrini “kravat” misolida isbotlaydi:

1-daraja (Ideya): Kravatning ilohiy g‘oyasi (uni Xudo yaratgan, u bitta va mutlaq).

2-daraja (Predmet): Duradgor yaratgan moddiy kravat (u ideal kravatning nusxasi).

3-daraja (Obrazlilik): Rassom yoki shoir yaratgan kravat tasviri (u moddiy kravatning nusxasidan ko‘chirilgan nusxa).

Ya‘ni obraz yaratuvchi ijodkor haqiqatni emas, balki “soyaning soyasi”ni yaratadi.

Mazkur tadqiqot falsafiy-estetik va adabiyotshunoslik metodologiyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Ishda antik manbalarni tarixiy-falsafiy tahlil usuli asosida o‘rganish, Aflotun, Arastu, Geraklit va Longin qarashlarini komparativ (qiyosiy) tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. “Obraz”, “eykon”, “eydolon”, “fantazma”, “mimesis”, “enargeya” kabi kategoriyalar konseptual va terminologik tahlil asosida izohlandi.

Shuningdek, badiiy obrazlilik masalasi ontologik va gnoseologik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, antik estetik qarashlarning keyingi adabiyotshunoslik tafakkuriga ta‘siri genetik metod yordamida yoritildi. Tadqiqot davomida falsafiy matnlarni talqin etishda germeneytik tahlil, estetik hodisalarni baholashda esa nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Aflotun obrazlilikni ikkiga ajratadi: asl mohiyatga yaqin bo‘lgan “eykonik” – mutanosib (proporsiyali) tasvir va haqiqatni buzib ko‘rsatuvchi “fantazma” (illyuziya).

Eykonik (yunoncha eikon – surat, o‘xshashlik) obrazlilikda tasvir asl nusxaning barcha jismoniy va mantiqiy parametrlarini aniq saqlaydi. San‘atkor ob‘ektning o‘lchamlari va ranglarini hech qanday o‘zgartirishsiz ifodalaydi. Bu

erda “badiiy haqiqat” obektiv borliq bilan to‘liq mos keladi va muallifning sub’ektiv “meni” voqelikni buzishga haqqi yo‘q. Uning vazifasi – borliqning proporsional modelini yaratish.

Ko‘p hollarda badiiy tasvirning (ikona) kelib chiqishini xristianlikdagi xoch ramziga nisbat beriladi [4.102]. Biroq tarixiy-estetik tahlil shuni ko‘rsatadiki, jarayon aksincha kechgan: xristianlikdagi xoch va boshqa muqaddas ramzlar antik davr falsafasida shakllangan eykon kategoriyasi asosida paydo bo‘lgan. Ya’ni, eykon (obrazlilik) xristianlikdan oldin mavjud bo‘lgan ontologik va estetik “qolip” bo‘lib, xoch ramzi ushbu konseptual makonda o‘z ifodasini topgan.

Fantazma (yunoncha phantasma – ko‘rinish, xayol, sharpa) – bu haqiqiy mutanosibliklarni ataylab buzish evaziga yaratiladigan, faqatgina ma’lum bir masofadan yoki nuqtadan “chiroyli” ko‘rinadigan tasvirdir. Aflotun bunga haykaltaroshlikni misol keltiradi. Agar haykaltarosh juda ulkan haykal yasasa, u haykalning boshini tanasiga nisbatan kattaroq qilib ishlaydi. Nega? Chunki pastda turgan tomoshabin yuqoriga qaraganda, masofa tufayli bosh kichikroq ko‘rinadi. Agar haykaltarosh eykonik aniqlik (asl proporsiya) bilan ishlasa, tomoshabinga haykalning boshi juda kichik bo‘lib tuyuladi.

Demak, fantazma – bu tomoshabinni (kitobxonni) hayratga solish va unga “yoqish” uchun qilingan estetik aldovdir. Aflotun buni haqiqatdan chekinish va soxtakorlik deb hisoblaydi.

Lirik obrazlilik Aflotun talqinida “soylar soyasi” bo‘lib, u aqlni emas, balki insonning nazorat qilib bo‘lmaydigan hissiyotlarini junbishga keltiradi. Sapfoning ishqiy lirikasidagi hissiy obrazlilik (masalan, “titroq”, “olovli nafas”) Aflotun uchun ideal olamdagi ilohiy ishqning (Eydosning) moddiy dunyodagi xiralashgan aksi – eydolondir [3.390–393].

“Eydon” (yunoncha eidolon: “sharpa”, “arvoh”, “qiyofa”, “aks”) kategoriyasi – bu borliqning mohiyatdan mahrum bo‘lgan “soyasi” yoki “sharpasi”dir. Aflotunning borliq ierarxiyasida (ayniqsa, “Davlat”ning X kitobida) eydon eng quyi pog‘onada turadi. U haqiqatdan (Eydosdan) ikki bosqich uzoqlikdagi “nusxaning nusxasi”dir:

1. Eydos (G‘oya): Asl va yagona haqiqat.
2. Predmet: G‘oyaning moddiy dunyodagi nusxasi.
3. Eydon (Obraz): Predmetning san’atdagi in’ikosi (masalan, ko‘zgudagi aks yoki rasmdagi tasvir).

Eydonning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

– Mohiyatsizlik: eydolon – bu narsaning tashqi qiyofasi bor, lekin uning ichki mazmuni (funksiyasi) yo‘q holatidir. Masalan, chizilgan karvotda yotib bo‘lmaydi.

Sharpasimonlik: antik mifologik tafakkurda, xususan, Gomer dostonlarida “eydolon” tushunchasi vafot etgan insonning Aid saltanatidagi moddiyatsiz, sharpasimon qiyofasini ifodalagan [5.52]. Ular ko‘rinadi, lekin ushlab bo‘lmaydi. San’atdagi obraz ham xuddi shunday “sharpa”dir. Bu kategoriya keyinchalik Aflotun estetikasida borliqning mohiyatdan ajralgan “aldamchi obrazi” manosiga transformasiya bo‘lgan.

Gnoseologik aldov: eydolon insonni chalg‘itadi: u bizga haqiqiy narsadek tuyuladi, lekin aslida u shunchaki “ko‘rinish” (appearance).

Eydolon va eykon o‘rtasidagi farq chegarasi mavjud:

Eykon asl nusxa bilan ichki va tashqi bog‘liqlikka ega. U haqiqatni anglashga yordam beradi. Eydolon asl nusxadan uzilgan, faqat tashqi “aldamchi” o‘xshashlikka ega. U insonni haqiqatdan uzoqlashtiradi.

Lirik matndagi metaforik obrazlar ko‘pincha real predmetning “sharpasi”, ya’ni eydolon sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “olovli sochlar” obrazida sochning real fizik xususiyati yo‘qolib, faqat uning vizual “eydoloni” (sharpasi) qoladi.

Zamonaviy postmodernistik she’riyatda eydolon tushunchasi simulyakr (nusxasi bo‘lmagan nusxa) tushunchasiga yaqin keladi. Bunda obraz shunchaki “sharpa” bo‘lib, uning ortida hech qanday real borliq turmaydi.

Agar lirik obrazlilik voqelikning mohiyatini ochishga xizmat qilsa – u eykon maqomida bo‘ladi; agar u faqat tilning tashqi o‘yini va aldamchi taassurot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa – u eydolon (sharpa-obraz) tabiatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyotshunoslikning rasmiy tarixi Arastuning “Poetika”sidan boshlansa-da, kategoriyal apparat va badiiy obrazlilikning ontologik muammolari ilk bor Aflotunning “Davlat” (X kitob) va “Sofist” kabi dialoglarida konseptual shaklda qo‘yilgan. Shu bois, adabiyotshunoslikni Aflotundan boshlangan deb hisoblash ilmiy asosga ega.

Arastu Aflotunning “nusxa” konsepsiyasini inkor qilib, “mimesis” (yunon. mimesis – taqlid, ifodalash) tushunchasiga ijodiy va bilish mazmunini yukladi. Voqelikning san’atkor qalbida qayta ishlangan ko‘rinishi bo‘lgan badiiy obrazlilik Arastu uchun “bo‘lishi mumkin bo‘lgan” holatni zaruriyat va ehtimollik qonunlari asosida modellashtirish demakdir.

Arastu she'ni shunchaki “so‘z o‘yini” emas, balki “mimesis” (taqlid)ning eng yuqori shakli deb ataydi. Unda vazn va ritm tasvirlanayotgan narsaning xarakteriga mos kelishi shart. Bu esa obrazlilik va vaznning organik birligini anglatadi [6.115–118].

Antik davrning keyingi bosqichlarida (Longin, Plutarx) obrazlilik tushunchasi “enargeya” (yunon. enargeia – ravshanlik, ko‘z oldida gavdalanish) kategoriyasi bilan kengaydi. Bu kategoriya so‘z vositasida shunday obrazli muhit yaratishni anglatadiki, natijada tinglovchi voqeani shunchaki eshitmaydi, balki uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rayotgandek his qiladi. Bu lirik obrazlilikning vizual va emosional yuksaklik (Sublime) darajasidir. Masalan, Pindarning [7] dalaridagi tasviriy obrazlilik tinglovchini voqea ishtirokchisiga aylantiradi. Longin buni fantaziya (“phantasia” – tasavvur kuchi) deb ataydi [8].

Aflotun estetikasida fantazma – voqelikning mutanosibliklarini buzishga asoslangan tashqi “aldamchi obraz” maqomida bo‘lsa, Longin poetikasida fantaziya – ijodkorning ichki tasavvur kuchi bo‘lib, lirik obrazlilikning vizual ravshanligi (enargeya) va emosional ta’sirchanligini ta’minlovchi kognitiv vositadir.

Xullas, antik estetikada lirik obrazlilik shunchaki til bezagi emas, balki metafizik logosning (tartibotning) badiiy eykonga (haqqoniy obrazga) transformasiyasidir. Antik Yunon estetikasida lirik obrazlilik evolyusiyasi Aflotunning “ilohiy soya”sidan Arastuning “ijodiy modeli” va Longinning “vizual hayrati” (enargeya)ga qarab rivojlandi.

Adabiyotshunoslik fani Aristotelning “Poetika” asaridan boshlangani haqidagi qarash akademik doiralarda ustuvordir. Biroq badiiy tafakkurning mantiqiy va estetik kategoriyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, adabiyotning falsafiy muammolarini (obrazlilik, mimesis, ijod psixologiyasi) ilk bor Aflotun kun tartibiga qo‘ygan. Aristotel adabiyotshunoslikni “tizimli fan”ga aylantirgan bo‘lsa, Aflotun uning “falsafiy poydevori”ni yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гераклит Эфесский. Фрагменты. // Фрагменты ранних греческих философов. – М.: Наука, 1989. – С. 15-20.
2. Bu asar Plotonning eng mashhur va fundamental asarlaridan biri bo‘lmish “Davlat” (Politeia) dialogining yakuniy, o‘ninchi bobidir. Alohida asar emas, balki asarning bir qismi bo‘lishiga qaramay, adabiyotshunoslik va estetika olamida u “X kitob” nomi bilan mashhur.
3. Плотон. Сочинения в четырех томах. Т. 3. Ч. 1. / Под общ. ред. А. Ф. Лосева и В. Ф. Асмуса. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2007.

4. Адабиёт Назарияси. II томлик. I том. – Т.: Фан, 1978.
5. Гомер. Одиссея. XI, 476; Лосев А. Ф. История античной эстетики. Ранняя классика. – М.: Искусство, 1963.
6. Аристотель. Об искусстве поэзии. — М.: ГИХЛ, 1957.
7. Пиндар (мил. авв. 518–438 йй.) — антик Юнон лирикасининг энг юксак ва мураккаб вакили, хор лирикасининг тан олинган даҳосидир. У лирик образнинг юксак услуби ва метафорик зичлигини (Pindaric style) бошлаб берган ижодкор ҳисобланади.
8. Longinus. On the Sublime. Section 15 (On Imagery). URL: <https://www.classicpersuasion.org/pw/longinus/desub015.htm>

FILOLOGIYA**TOHIR MALIK IJODIDA NAFS MOTIVI TALQINI****UO‘K 95(31)**

**Iskandarova Dinora,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
magistranti.**

Annotatsiya: Maqolada nafs tushunchasining mumtoz adabiyot va islomiy falsafadagi talqini bilan Tohir Malik asarlaridagi zamonaviy badiiy yechimlar qiyosiy o‘rganilib, yozuvchining nafs masalasini jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, korrupsiya va ma’naviy tanazzul bilan bog‘lab talqin etishi asoslab beriladi.

Аннотация: В статье проводится сравнение интерпретации понятия нафса в классической литературе и исламской философии с современными художественными решениями в произведениях Тахира Малика, обосновывая интерпретацию автором проблемы нафса в контексте социальной несправедливости, коррупции и духовного упадка в обществе.

Annotation: The article compares the interpretation of the concept of nafs in classical literature and Islamic philosophy with modern artistic solutions in the works of Tahir Malik, justifying the writer's interpretation of the issue of nafs in relation to social injustice, corruption, and spiritual decline in society.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy o‘zbek nasri, nafs motivi, bolalik pokligi, ma’naviy inqiroz, axloqiy tanlov, ruhiy ziddiyat, ijtimoiy muhit, inson psixologiyasi, badiiy talqin.

Ключевые слова: Современная узбекская проза, мотив похоти, детская чистота, духовный кризис, моральный выбор, духовный конфликт, социальная среда, психология человека, художественная интерпретация.

Key words: Modern Uzbek prose, motive of lust, childhood purity, spiritual crisis, moral choice, spiritual conflict, social environment, human psychology, artistic interpretation.

Zamoviy o‘zbek adabiyoti XX-XXI asrda inson psixologiyasiga chuqur sho‘ng‘igan ijod namoyondalarini yetishtirdi. Shunday vakillardan biri Tohir Malik ijodi bo‘lib, unda insonning ichki dunyosi, xususan nafsning ta’siri muhim o‘rin tutadi. Nafs konsepsiyasi nafaqat shaxsning xohish-istaklarini anglatadi, balki muallif asarlarida axloqiy ziddiyatlar, ijtimoiy bosim va shaxsiy tanlovlarning markazida turadi.

Nafs – ko‘plab madaniyatlarda axloq, diniy qarashlar, psixologiya va falsafa chegarasida tahlil qilinadigan tushuncha. Klassik islom falsafasida nafs insonning

tuban istaklari , shaxsiy manfaati va axloqiy inqirozlarning manbai sifatida ko‘riladi. Psixologiyada esa bu tushuncha shaxs ichki motivatsiya tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Adabiyotda esa nafs - personaj psixologiyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tasvirlanadi.

Adabiyotda azaldan nafs motivi Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi , Alisher Navoiy kabi buyuk siymolarning mumtoz she‘riyatida bot-bot qalamga olingan.

Nafs yo‘liga kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldan ozib, toyib gumroh bo‘lur,
Yotsa-tursa shayton bila hamroh bo‘lur...[1:10].
Nafs komig‘a iztirob etma,
O‘zni-yu mulkni xarob etma [2:61].

Har qanday zamonda ham adabiyot so‘z san‘ati insonni yetuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lishga chorlaydi. Xususan, Navoiy insonni komillik rutbasidan tubanlik botqog‘iga uloqtiradigan eng yovuz dushman – nafs ekanligini ta’kidlaydi. Negaki, inson zoti o‘z nafsiga berildimi – imonni yo‘qotadi, imonni yo‘qotdimi – u haqiqiy insonlar safidan chetlashadi.

Tohir Malik ham “Shaytanat” romani, “Nafs kishanlari”, “Falak”, “Alvido, bolalik” qissalari va “Voy, onajonim...”, “Zulm”, “Oqibatul – amr”, “Qasos”, „Kurort” kabi bir qator hikoyalarida nafs mavzusini zamonaviy talqinda qahramonlarning o‘z xohish-istakalari bilan jamiyat qoidalari o‘rtasida , o‘z manfaatlari bilan axloqiy vazifalar o‘rtasida qolganda, ichki ziddiyatlarni boshdan kechirishi orqali ochib beradi. Adib nafs motivini shakllantirishda jamiyatning ijtimoiy strukturalari: korrupsiya, ijtimoiy adolatsizlik, sotqinlik, o‘g‘rilik, yolg‘on, tuhmat kabilariga murojaat qiladi. Yozuvchi qahramonlar turli yo‘nalishlarda tanlov qiladilar: halollik yo‘li yoki o‘z manfaatlari yo‘li. Bu tanlov natijasida: ruhiy iztirob, jamiyat bilan ziddiyat, shaxsning o‘zligiga qaytish jarayoni tasvirlanadi. “Shayton Odam Atoga hasad qilib Ollohning qahrini keltirgach, “shu bandangni menga topshir, men uni to‘rt tomonidan o‘rab olay” degan ekan. Ollohning “bandamni qanday o‘ramoqchisan ?” degan savoliga shayton: “Men uni old tomondan amalparastlik pardasi bilan o‘rab, ko‘zini ko‘r qilaman. O‘ng tomonidan **nafs** balosi o‘raymanu o‘zim orqasiga o‘tib, asta-asta jahannam sari itarib boraman” deb javob bergan ekan [3: 335]. Asarda nafs balosiga giriftor bo‘lgan, o‘z hayotini faqat boylik, maishat, shuhrat, pulda deb bilgan qahramonlarning ayanchli taqdiri hayotiy konfliktlar asosida gavdalantirilgan.

“Shirin dunyoning shirin tillari

Aqlsiz aqlimning aqlini oldi.

Va... kula-kula lahadga kuzatib qoldi [4: 5].

“Nafs kishanlari” asarida ham nafs va uning qoralanishi haqida soʻz yuritar ekan, adib tomonidan nafs ayovsiz qoralanganligining guvohi boʻlamiz. “Inson tabiatidagi salbiy kuchlarning oʻzini namoyon etishi – nafs tufayli. Undan qutilishning birdan-bir yoʻli nafsni oʻldirib, sabr-qanoat bilan halol yashash, ruh, yaʼni irodani chiniqtira borib, insoniylikka, demakki ilohiylikka erisha borishdir” [5:6] talqini ham adib ijodida nafsning qoralanishiga xos.

“Alvido, bolalik” qissasida ham oʻz nafsiga ergashib, arzimagan pulni olish uchun bitta odamning qotiliga aylangan oʻspirin yigitlar taqdiri, ularning ruhiy azoblari, qoʻrquvi yorqin ifodalangan. Ilm olib, kelajak haqida qaygʻuradigan yoshdagi yigitchalar, qamoqxonaning zax devorlari, militsiya xodimi, suvda qolgan murda haqidagi tinimsiz oʻylariga nafslari sabab boʻlgan edi. “Hozir u pivoxonadan sarxush chiqqan, keyin bolalar orasida koptokday tepilgan, murdasi suvga tashlab yuborilgan odamni emas, oʻz taqdirini oʻylardi. Militsiya... Uning ortidan qamoq... Shu fikrning oʻziyoq uni gʻippa boʻgʻib olardi”[6:10]. Asarda bolalik- poklik, samimiyat va halollik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ammo hayotiy sharoit, atrof-muhit taʼsiri va ota-ona mehr-eʼtiborining yoʻqligi bolalar ongida asta-sekin xudbinlik, manfaatparastlik va oʻzini oʻylash kabi nafsoniy holatlarni uygʻotadi. Qamariddin, Salim kabi obrazlarda moddiy manfaatni birinchi oʻringa qoʻyish holati kuzatiladi. Bu- nafsning eng sodda, ammo eng tez ildiz otadigan koʻrinishidir. Tohir Malik nafs muammosini faqat bolalar bilan cheklanmaydi. Aksincha, kattalarning ikkiyuzlamachiligi, yolgʻoni va manfaatparastligi bolalar uchun salbiy maktab sifatida oʻrnak boʻladi, Asrorning otasi bunga yaqqol misol.

“Voy, onajonim...” hikoyasida ham nafs qurboni boʻlgan, pul, mansab uchun oʻz oilasidan uzoqlashgan Nazir, kibrga berilib, qaynonasini odam oʻrnida koʻrmagan, yolgʻon evaziga aka-uka oʻrtasiga sovuqchilik slogan Latifa, insonlarni mensimay, xalqning oʻziga oʻt qoʻyishiga jim qarab turgan “adolatli” prokuror Artur Moiseyevich kabi hayotiy obrazlarning real tasvirlari olib kirilgan. “Zulm” hikoyasida esa pora berish orqali ayolini oʻldirish payida boʻlgan Olim, maishat, ichkilik, zino, qoʻyingki, nafs qancha koʻchaga boshlasa bariga qadam ranjida qilgan Sobit, Hamdam obrazlari tipik obraz sifatida jonli yaratilgan. Hayotimizda nafsini boshqara olmay, nafs amriga itoat qilib, oʻzini “Shayton yoʻldan urdi” deb oqlaydigan insonlar qancha, vaholanki, nafsini tizginini qoʻldan bergan kimsalarga shayton yoʻlboshchilik qiladi. Biroq Alloh qaytargan amallardan tiyilgan insonni, qalbida iymoni sobit boʻlgan musulmonni shayton yoʻldan ozdirolmaydi. “Oqibatul amr” hikoyasida ham nafs domiga tushib qolib, yigirma kunlik chaqologʻini bolalar uyiga topshirilishini jim kuzatib turgan

Ko'paysin xola, tovlamachilik va aldov yo'li bilan uy-joyni o'zlashtirib, sotib yubormoqchi bo'lgan Nargiza va onasi Zubayda obrazlari haqqoniy, bor bo'y-basti bilan gavdalanitirilgan. "Zubayda yerga qulagan dushmani ko'ksiga nayza sanchgan berahm jangchi holatida o'rnidan turib, unga g'olibona nazar tashladi. Hovli ularga tegadigan bo'ldi" [7:113]. "Qasos" hikoyasida nafs boshqara olmay tubanlik sari yuz tutib, ayoliga xiyonat qilgan, natijada shol bo'lib qariyalar uyiga tushib qolgan Tolib ham shu yerda ayanchli umr yakuni topdi.

Tohir Malik asarlarida nafsiga qul bo'lgan kimsalarning taqdiri vositasida ayanchli yakun, dunyo yoki oxirat azobi kutib turganidan insoniyatni ogohlantirmoqchi. Buyuk daho Alisher Navoiy ham "nafs" tushunchasini turli ma'nolarda ishlatgan, timsol va obrazlar orqali mazmun-mohiyatini ochib bergan. Jumladan, "Hayrat ul abror" da nafsni quyidagi ma'nolarda talqin etgan: 1) yeyish-ichishga bo'lgan nafs; 2) mol-dunyoga bo'lgan nafs; 3) maishatbozlik bilan bilan bog'liq nafs; 4) nafs – bu dunyo noz-ne'matlari, zeb-u ziynatlar, kiyim-kechakka bo'lgan hirs-u havas; 5) insondagi barcha qora illatlar- nafs; 6) nafs - bu kibr-u havo, takabburlik, havolanish; 7) nafs - dunyo, ya'ni moddiy olam; 8) nafs – o'zlik ma'nosida ishlatilgan.

Ijodkor nafs masalasini ko'pincha ijtimoiy muammolar bilan bog'lab yoritadi. Jamiyatdagi korrupsiya, poraxo'rlik, adolatsizlik, mansabparastlik va loqaydlik yozuvchi asarlarida nafsning tashqi omillari sifatida namoyon bo'ladi. "Shaytanat" romanida jinoyatchilik olamining shakllanishi, "Zulm" hikoyasida pora va maishat tufayli insoniylikdan voz kechish holatlari, "Qasos"da xiyonat va manfaat yo'lida insoniy rishtalarning uzilishi ana shu ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda talqin etiladi.

"Alvido, bolalik" qissasida esa bu jarayon yanada keskin tus oladi. Yoshlar ongining hali to'liq shakllanmaganligi, ijtimoiy adolatsizlik va kattalar dunyosidagi yolg'onlarning hukmronligi ularni nafs domiga tezroq tortadi. Muallif shu orqali nafsning jamiyatda avloddan avlodga o'tuvchi illat ekanini badiiy asosda ko'rsatadi. Kattalarning noto'g'ri xatti-harakatlari bolalar uchun andoza bo'lib xizmat qilishi — asarning muhim g'oyaviy xulosalaridan biridir.

Nafs motivini ochib berishda mumtoz va zamonaviy talqinlar uyg'unligi ko'rishimiz mumkin. Tohir Malik ijodidagi nafs talqini mumtoz adabiyot an'analari bilan uzviy bog'liq. Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy asarlarida nafs insonni tubanlikka yetaklovchi kuch sifatida talqin etilgan bo'lsa, Tohir Malik bu tushunchani zamonaviy hayot manzaralari bilan boyitadi. Navoiy nafsni asosan tasavvufiy-ma'rifiy jihatdan yoritgan bo'lsa, Tohir Malik uni real ijtimoiy voqeliklar fonida ochib beradi.

Masalan, mumtoz adabiyotda nafsga qarshi kurash iymon, sabr va riyozat orqali amalga oshirilsa, Tohir Malik asarlarida bu kurash ko‘pincha fojiali yakun bilan tugaydi. Bu holat yozuvchining zamonaviy jamiyatdagi ma‘naviy tanazzulga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Adib nafsni yengish qanchalik mushkul ekanini, ammo undan ogoh bo‘lish zarurligini ta’kidlaydi.

Nafs va axloqiy tanlov muammosini asarda ko‘rishimiz mumkin. Tohir Malik asarlarining deyarli barchasida qahramonlar axloqiy tanlov qarshisida qoladi: halollik yo‘li yoki manfaat yo‘li. Bu tanlov inson taqdirini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. “Voy, onajonim...” hikoyasida Nazir obrazi nafs qurboni sifatida tasvirlanib, pul va mansab uchun oilaviy qadriyatlarni mensimaslik oqibatlari ochib beriladi. “Oqibatul-amr” hikoyasida esa nafs domiga tushgan obrazlar fojiali yakun bilan yuzlashadi.

Shu jihatdan, Tohir Malik ijodida nafs motivi didaktik xarakterga ega. Yozuvchi o‘quvchini bevosita nasihat bilan emas, balki badiiy obrazlar taqdiri orqali xulosa chiqarishga undaydi. Bu esa adib ijodining estetik va tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Tohir Malik ijodida nafs motivi inson ruhiyati va jamiyat muammolarini ochib beruvchi yetakchi badiiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Adib nafsni faqat shaxsiy illat darajasida emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya va jamiyatdagi adolatsizliklar bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida talqin etadi. Xususan, “Alvido, bolalik” qissasida bolalik pokligining yo‘qolishi, yoshlar ongida nafsiy mayllarning kuchayishi va buning fojiali oqibatlarga olib kelishi badiiy jihatdan ishonarli tasvirlanadi. Yozuvchi nafsga berilish insonni halollik va vijdondan uzoqlashtirib, ma‘naviy tanazzul sari yetaklashini ko‘rsatish orqali o‘quvchini ogohlantiradi. Tohir Malik asarlari nafsni jilovlash, iymon va ma‘naviy poklikni asrash masalasida muhim axloqiy-estetik ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy o‘zbek adabiyotida insonparvarlik g‘oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yassaviy A., Hikmatlar, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashroyoti, 1991.
2. Navoiy A., Sab‘ai sayyor, Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2006.
3. Malik T., Shaytanat 1-kitob, Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2013.
4. Malik T., Nafs kishanlari, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2028.
5. Mamiraliyev Q., Navoiyning yetti vodiysi. // “Akademik Azizxon Qayumovning ilmiy-ijodiy merosi” mavzusida Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari, Toshkent:2021.

6. Malik T., Alvigo, bolalik, Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2018.
7. Malik T., Voy, onajonim... , Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2026.
8. Qo‘chqorova M. Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik, Toshkent: “Fan”, 2020

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

12-son, 2-qism (33)
2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	U.Bekmuhammad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 8,25 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22